

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**



**UMUMIY PSIXOLOGIYA
fanidan zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tayyorlangan**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lif sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lif yo'nalishi:	5111400 – xorijiy tillar va adabiyoti (tillar bo'yicha) 5111600 – milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi 5112000 – jismoniy madaniyat 5112100 – mehnat ta'limi

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "24" 08 №603 sonli buyrug'ining 2- ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil –“18” 08dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan (VD-5110100-3.01. 2017 y) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: S.Jonzoqova – ” Pedagogika va psixologiya ” kafedrasи
o'qituvchi. _____

(imzo)

J.Mirzoyev – “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи
o'qituvchisi _____

(imzo)

Taqrizchi: S.Sharapova – GulDU Pedagogika va psixologiya kafedrasи
(PhD) p.f.n. _____

(imzo)

O'UM GulDU Ilmiy- uslubiy Kengashining 2020 yil “30”.08 dagi “1” sonli
majlisida tasdiqlangan.

GulDU Ilmiy- uslubiy Kengashi raisi: dots . Sharipov F

MUNDARIJA

1.O'quv materiallari	
1.1.Ma'ruzalar mavzulari bo'yicha o'quv materiallari.....	
1.2.Seminar mashg'ulotlari mavzulari.....	
1.3. Adabiyotlar ruyxati.....	
2. Mustaqil ta'lim mavzulari.....	
3. Glossariy.....	
4. Ilovalar.....	
4.1.Fan dasturi.....	
4.2.Ishchi fan dasturi.....	
4.3. Tarqatma materiallar.....	
4.4. Testlar.....	

I. O'QUV MATERIALLAR

1.1. MA'RUA MAVZULARI BO'YICH A O'QUV MATERIALLARI

1- MAVZU: Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari.

Asosiy savollar.

- 1.1. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 1.2. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari.
- 1.3. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi.
- 1.4. Yosh va pedagogik psixologiya ilmiy maktablar.
- 1.5. Yosh va pedagogik psixologiya fanining o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.

Fanining maqsadi: - talabalarda umumiy psixologik bilimlarni egallashga, ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlarni, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va muloqoti, psixik taraqqiyot qonuniyatlarini, psixik jarayonlarning ontogenezdagi psixologik xususiyatlari, hozirgi zamон ta'lim-tarbiya nazariyasining vazifalari hamda shaxsni etnopsixologik metodlar yordamida o'rganish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, G'arb va Sharqning ulug' allomalari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Avloniy, Ya.Komenskiy, K.Ushinskiy va boshqalar)ning ijtimoiy pedagogik va psixologik qarashlarini o'zlashtirish, Qur'on va Hadislardagi pedagogik va psixologik faoliyatga, umuminsoniy insonparvarlikka oid fikrlarni o'rganib, o'z ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish.

KALIT SO'ZLAR: Yosh davrlari psixogiyasi, psixik jarayonlar, yosh psixologiyasi fanining predmeti, tamoyillari, asosiy vazifalar, metodlari, tashkiliy, empirik, statistik, sharx.

1.1. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Birinchi savol bayoni

Yosh davrlari psixologiyasi fanining predmeti turli yoshidagi odamlarning bolalar, kattalar, erkaklar, ayollarning ontogenezda psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi hamda o'zaro munosabati qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Yosh psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol va xk) rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, uning har xil faoliyatini (o'yin, o'qish, mehnat kabilar), er va ayolning jinsiy tafovutlarini, shuningdek, inson shaxsining tarkib topishini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

Inson ruhiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu soxadagi ma'lumotlarni tuplash ham mazkur psixologiyaning mavzu baxsiga kiradi. Bolaning tugilishidan voyaga etguncha har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lguncha ulgayishi va shaxsning tarkib topishi muammolarini, bularning psixologik mexanizmlarini aniqlash va sharxlash yoshlar psixologiyasining muxim jihatidir.

Inson zotining turli jihatlarini o'rganish bilan bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi, oliv nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiena, pedagogika, etnografiya kabi fanlar shug'ullangani kabi, bolaning kamol topishidagi qonuniyatlarini, uning psixikasini, ongingin o'sishini belgilovchi ijtimoiy omillar hamda psixologik mexanizmlarni,

umuman, inson zotining tugilganidan voyaga etguncha psixik rivojlanishini psixologiya fanlari sistemasining aloxida soxasi - yosh davrlar psixologiyasi fani o'rgatadi va tadqiq qiladi.

Fanning vazifalari: - talabalarga voqelik va jamiyatdagi voqeal-hodisalarning, jamiyat hayotida umumiyligini hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsiyonal va irodaviy sifatlari, turli yosh davrlarida psixik taraqqiyot qonunlarini o'zlashtirib psixodiagnostik tadqiqotlar olib borishga, o'quvchilarga individual yondasha bilishga, pedagogik-psixologik holatlarni rejalashtira olib, ularni tahlil etishga o'rgatishdan iborat.

1.2. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari.

Ikkinci savol bayoni

Yosh davrlari psixologiyasining asosiy va markaziy muammosi bolaning psixik jihatdan o'sishi, unga xos xusussiyat va qonuniyatlarini yoritib berishdan iboratdir. Bu muammoni to'g'ri xal etish bolalar psixologiyasining fan sifatida yanada taraqqiy etishi uchun ham, o'sayotgan avlodni komil inson qilib tarbiyalash amaliyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Inson ruhiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu soxadagi ma'lumotlarni tuplash ham mazkur psixologiyaning mavzu baxsiga kiradi. Bolaning tugilishidan voyaga etguncha har tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lguncha ulgayishi va shaxsning tarkib topishi muammolarini, bularning psixologik mexanizmlarini aniqlash va sharxlash yoshlar psixologiyasining muxim jihatidir.

Xali psixologiya fani paydo bo'lmasdan avval bolani ruxiy taraqqiyoti haqidagi masalalarga katta e'tibor berilgan edi. Bolaning rivojlanishi haqidagi fikrlar juda sodda bo'lishiga qaramay, ular bola taraqqiyoti haqida muhim ahamiyat kasb etar edi. O'tgan ajdodlarimiz bolalar psixologiyasidagi muammolarni izchil va atroflicha o'rganmagan bo'lsalar ham, lekin ularning o'z asarlarida o'zining qimmatli fikrlarini bayon qilganlar.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari uzoq o'tmishtga, ko'p asrlik tarixga, boy madaniy merosga ega edilar. O'rta Osipyoni markazida joylashgan O'zbekiston Sharqning eng qadimiy, madaniy uchoqlaridan biri bo'lib, u jahon fani tarixiga munosib hissa qo'shgan. Xorazmlik olim al Xorazmiy nomi «algoritm» degan termin orqali, Evropada Alfrachanus nomi bilan mashhur bo'lgan olim Ahmad al Farg'oniy «Astronomiya asoslari» asari bilan bizgacha etib keldi. Abu Rayhon Beruniy ijodidida «Tana va Rux» ga oid hodisalar talqin qilindi. U odamlar o'z tabiatini jihatidan bir-biridan farq qilishini, bu farq uning mijozini, fe'l atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo'lishini ta'kidladi. U inson hayotini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi.

Uning zamondoshi Abu Nasr Farobi insonning ruhiy jarayonlari bilan fiziologik jarayonlari orasidagi bog'liqlik, dunyoni bilish haqidagi ta'limoti bilan shuhrat qozondi. U axloqiy sifatlari tug'ma bo'lmay, balki mashqlar, ko'nikma va malakalar, odatlar natijasi deb uqtiradi. Bu erda irodanining ahamiyati o'lkanligini, uning yordamida kishi o'zida hissiy va ma'naviy ehtiyojlarni ongli ravishda tanlash ko'nikmasiga ega bo'ladi deydi.

Farobiyning ta'limoti Ibn Sino qarshilarining shakllanishiga kuchli ta'sir qiladi. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi asab va asab yo'llari, fiziologik jarayonlar bilan bog'liq psixik jarayonlar haqida fikr yuritadi. U bola tarbiyasiga alohida e'tibor berdi va jismoniy tarbiya sog'lom va tetik insonni shakllantirishning muhim omili ekanini, bolaning tug'ilgandan boshlab, bolalikdan o'smirlikka o'tish davrida sog'lom turmush tarzini shakllantirishni tavsiya etdi. Ibn Sino atrof-muhit va organizm orasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olib, har bir a'zo uchun maxsus mashqlar majmuasini tuzdi.

Shuningdek, Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u bilik» asarida eng komil, jamiyatning talablariga javob beradigan insonni tarbiyalash, A.Jomiy asarlarida («Tuxfatul axror») ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rgatish, yoshlarda yaxshi hislatlarni, odoblilikni shakllantirish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Axmad Yassaviyning mehr-sahovatli bo'lish haqidagi qarashlari, Imom al-Buxoriy ijodidagi shaxslararo munosabatlar, Baxovuddin Naqshbandiy ijodida aql va dunyoqarashning shakllanishi, A.Navoiy faoliyatida ilmiy ta'lim – tarbiyaning asoslanishi kabilar boy meros sifatida ahamiyatlidir. Ular ijodida aynan bolalarda ruhiy jarayonlarning paydo bo'lishi yoki shakllanib borishi haqida batafsil fikr yuritilmagan bo'lsa ham ularning shaxs xalovati haqidagi fikrlari bolalarda ruhiy jarayon va xususiyatlarni shakllanishi uchun imkon yaratadi. Inson ruhiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash, shu soxadagi ma'lumotlarni toplash, ta'lim-tarbiyaning ta'siri oqibatida o'quvchilar psixikasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, o'quv materiallarining o'quvchilarning yosh davrlariga mos kelishini, turli ta'lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligini, darsliklar, o'quv qurollari, asbob-uskunalar va ta'lim-tarbiya ishlarining tartibiga nisbatan bo'lgan psixologik talablar kabilar kiradi.

Uchinchi savol bayoni

O'tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarining qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari bayon qilingan. Qadim zamonlardanoq Turon, Turkiston xalqi o'zining ko'hna tarixi, boy merosi, rang-barang va yuksak madaniyati, urf-odat va an'analari bilan ajralib turgan. Bu xalqning buyuk siymolari milliy va jahon ilm fani va madaniyatining barcha sohalari rivojiga salmoqli xissa qo'shib kelganlar.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobjiy xal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro o'zviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy hislatlari, harakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashki muhit, boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishning eng etuk maxsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining doxiysi Abu Ali ibn Sinoning inson ruhiyati, tana va kalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoklanishi holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri - komil insonni tarbiyalashdir. U o’z asarlarida eng komil, jamiyatning o’sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo’lsa, shu asosda u o’z tamoyillarini izchil bayon etadi.

Alisher Navoiyning «Xazoyin-ul-maoniq», «Maxbub-ul-qulub» va boshqa shu singari asarlarida etuk, barkamol insonning ahloqi, ma’naviyati, o’zgalarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to’g’risida qimmatli mulohazalar yuritilgan.

Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning karor topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Navoiy «Hamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, qat’iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg’ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan.

Yoshlar psixologiyasining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga kator omillar va holatlar sabab bo’lgan. Yosh davrlari psixologiyasi insonning (tugilganidan umrining oxirigacha) kamoloti uchun metodologik va nazariy ahamiyatga ega ekanligi tan olindi.

Yosh davrlari psixologiyasi fanini o’rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. U ham boshqa fanlar katorida rivojlanadi, bunda eksperimental biologiya va genetika, meditsina, sotsiologiya kabi fanlarning xizmati katta bo’ladi. Bolalarning yoshlik xususiyatlari ta’lim va tarbiya bilan shug’ullanuvchi kishilarni eng qadimdan beri qiziqtirib keldi.

Bu masalalarga Yan Amos Komenskiy (1592-1670), Frebel (1782-1852), I.G.Pestalotssi (1746-827) va boshqalar ham katta e’tibor bergenlar.

Ta’lim va tarbiya ishlari amaliyotida bolalarning diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq xususiyatlari haqida boy materiallar to’plagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida yosh (bolalar) psixologiyasi psixologiya fanining mustaqil sohasi sifatida shakllana boshlaydi. Bola psixikasining rivojlanishi haqida birinchi bo’lib nemis fiziologi V. Preer (1841-1891) o’zining «Bola qalbi* (1882) degan asarida sistemali ma’lumot berdi. XX asrning boshida bolalar psixologiyasidan katta tekshirish ishlari olib boriladi: V.Shtern (1872-1938) «ILk bolalikda xotirlash, guvohlik va yolg’on*; Ernest Meymak (918-62 1915) «Eksperimental pedagogikadan leksiyalar* uch tom, «Eksperimental pedagogikadan ocherklar*, Byuler Karl «Bolaning ruhiy rivojlanishi*, Piaje Jan (1896) «Bolaning nutqi va tafakkuri*.

Bolalarning yoshlik xususiyatlarini o’rganish sohasida K.D. Ushinskiy va P.F. Kapterev (1849-1922) lar tomonidan juda ko’p ishlar qilindi.

Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti sifatida* degan katta asari yosh psixologiyasi va bolalar psixologiyasi sohasidagi chuqur mazmundor asar sifatida hozirgacha o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Psixologiya taraqqiyotida P. Blonskiy (1884-1941) ning «Psixologik ocherklar* va L.S.Vigotskiyning (1896—1934) «Tanlangan psixologik asarları* kabi tekshirishlari **katta** o’rin egalladi.

Psixologlarning tadqiqotlari inson ongingin turli yoshda rivojlanishi uning hayot sharoitlariga bog’liq ekanligini ko’rsatdi. Bu rivojlanishning hal qiluvchi omillari ta’lim va tarbiya, shuningdek, rivojlanayotgan odamning shaxsiy faoliyatidir. A.A. Smirnov, A.N. Leontev, N.D. .Levitov, N.A. Menchin-skaya, A.A. Lyublinskaya, D.B. Elkonin, L.I. Bojovich, M.V. Zaporojets va boshqalarning ishlari xuddi mana shu yo’nalishda bormoqda.

Yosh davrlarida J.Piaje nazariyasi

Kognitivistik yo'nalish namoyondalaridan birinchi bo'lgan J. Piaje aql - idrok nazariyasi va uning davrlari haqidagi ta'limotni yaratgan. Bu ta'limotda intellekt rivojlanish davrlari ko'rsatib beriladi.

Bu davrlar:

1. Sensomator intellekt (tug'ilgandan 2 yoshgacha).
2. Operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha).
3. Konkret operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha).

Formal operatsiyalar davri.

Yosh davrlarida Z.Freyd nazariyasi.

Oral bosqich tug'ulgandan 1 – 1.5 yoshgacha.

Bu davrda go'dak og'iz va lab oblastlarining stimulyatsiyasidan qoniqish va lazzat oladi.

1. Anal bosqich (1 – 1.5 yoshdan 3 yoshgacha) chiqaruv funktsiyasi orqali qoniqish oladi.
2. Faol bosqich (3 yoshdan 5 – 6 yoshgacha) erogen zona genitaliy sohasida joylashgan (Edipov kompleks yoki elektro kompleksi).
3. Latent bosqich (5 – 6 yoshdan 12 yoshgacha). Bunda seksual mayllar 2 – planga o'tib, o'zini namoyon qilmaydi.
4. Genital bosqich (12 yosh va undan yuqori) seksual mayllar pubertat va o'smirlik davrida yana 1 –planga o'tadi.

Yosh davrlarida E.Erikson nazariyasi.

Amerika psixologi E.Erikson inson umrini 8 ta davrga ajratadi va ular o'ziga xos, betakror xususiyatlarga ega deb hisoblaydi.

1 – davr. Ilk go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha). Bu davrda tashqi dunyoga "Ongsiz ishonch" tuyg'usi vujudga keladi. Buning asosiy sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rligi va jonkuyarligidir. Agar go'dakda bu ishonch paydo bo'lmay qolsa, ona bolaga yomon munosabatda bo'lsa, voyaga etganda umidsizlik vujudga keladi.

2 – davr. Kechki go'daklik (1 yoshdan 3 yoshgacha). Yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi. Bu esa o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratib, intizom, ma'suliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ulari tarkib topishiga zamin hosil qiladi. Anomal rivojlanish: ikkilanish, qobiliyatga shubhalanish, hayotga moslashmaganligini his qilish.

3 – davr. Ilk bolalik (3-5 yoshgacha). Anomal rivojlanish: insonlarga befarqlik, tashabustning sustligi, boshqa bolalarga hasad, beqarorlik. Tashabbus tuyg'usi, qandaydir bajarish mayli tarkibtopadi. guruhiy o'yinlar, tengqurlari bilan muloqatga kirishish muhim ahamiyatga ega.

4 – davr. (5-11 yoshgacha). Bu davr maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan xarakterlanadi. Salbiy tomonlari – ong hayotning barcha qirralarini qamrab ololmaydi, muammolarni hal qilishda aql zakovat darajasining pastligi, bilimlarni o'zlashtirishdagi qoloqlik. Anomal rivojlanish: shaxsiy kamchiliklarni his qilish, konformlik, passiv mehnat vazifalaridan qochish.

5 – davr. (11-20 yoshgacha). O'smirlik va o'spirinlik, xissiy etuklik. Betakror, o'ziga xos yosh davri. Salbiy tomoni qat'iyatsizlik.

6 –davr. (20-45 yoshgacha). Ilk (erta) etuklik. Boshqa jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga keladi. bundan tashqari yolg'izlikka moyillikva odamovilik kabi yoqimsiz xususiyatlar bilan farqlanadi.

7 – davr. O’rta etuklik davri (40-60 yoshgacha). Hayotiy faoliyatning barcha sohalarida (mehnat ijodiyot, g’amxo’rlik, pusht qoldirish, tajriba uzatish) mahsuldorlik tuyg’usi hamrox bo’ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki bo’ladi. Anomal rivojlanish: xudbinlik, o’z-o’ziga e’tiborini qaratish, ishida besaramjonlik, erta invalidlik, o’zi haqida qayg’urishni yo’qolishi.

8 – davr. Kechki etuklik (60 va undan yuqori). Hayotdan qanoatlanish tuyg’usi bilan xarakterlanadi. O’tgan umri haqida o’ylash, o’limga tik qarash va undan qo’rqmaslik. Salbiy tomoni – hayot faoliyatidan noumidlik, ko’ngil sovish tuyg’ulari. Umrni bekorga o’tkazganidan qayg’urish. Vaqtini tez o’tayotganidan, o’zidan, boshqalardan qoniqmaslik, umrini boshqatdan yashashga xohish, hayotdagi betartiblikdan ranjish, o’limdan qo’rqish.

Yosh davrlarida D.B.Elkonin nazariyasi.

D.B. Elkonin bo'yicha yoshni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. Go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha.
2. Ilk bolalik davri – 1-3 yosh.
3. Bog'cha esh davri – 3-7 yosh.
- 3a. Kichik va o'rta bog'cha yosh davri – 3 dan 4-5 yoshgacha.
- 3b. Katta bog'cha yosh davri 4-5 dan 6-7 yoshgacha.
4. Kichik mакtab yoshi 7 – yosh, 11yoshgacha.
5. O'smirlilik yosh davri 15 yosh.
6. Ilk o'spirinlik davri 15-17 yosh.

D.B. Elkoninning tasnifi etakchi faoliyat nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror turi ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi.

E.G'. G'oziev bo'yicha:

1. Chaqaloqlik va go'daklik davri – tug'ulgandan 1 yoshgacha.
2. Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
3. Maktabgacha yosh davri – 3-6 yoshgacha.
4. Kichik maktab yosh davri – 6-10 yoshgacha.
5. O'smirlilik davri – 10-11yoshdan 14-15 yoshgacha.
6. Ilk o'spirinlik davri – 15-18 yoshgacha.
7. O'spirinlik davri – 17-22 yoshgacha (talabalik).
8. Yoshlik davri – 23-28 yoshgacha.
9. Etuklik davri 1-bosqichi – 28-35 yoshgacha.
10. Etuklik davri 2-bosqichi – 36-55 (60) yoshgacha.
11. Keksayish davri – 61 (56)- 74 yoshgacha.
12. Keksalik – 75-90 yoshgacha.
13. Uzoq umr ko'rvuchilar – 90 dan yuqori.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari

B.G.Ananev psixikani o’rganish metodlarini to’rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni ayta ishlash yoki statistik, natijalarni sharxlash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o’zining maqsad va vazifasi buyicha yana bir nechta toifa hamda turlarga bo’linadi.

Tashkiliy guruh. o'z ichiga qiyoslash, langityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi.

Yosh psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir davrda **longityud**

(uzluksiz) **metodi** ham qo'llaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, xatto o'n yillab tekshirilishidir. Longityud metodidan psixologlardan nemis V.Shtern, frantsuz R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytis, V.S.Muxina va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmokdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Xasan-Xusan, Fotima-Zuxra) yoki aralash jinsli (Xasan-Zuxra, Fotima-Xusan) egizaklar kuzatilgan. Shuning uchun kator tadqiqotlar "ona kundaligi" deb nomlangan.

Longityud metodi yordamida sub'ektiv omillarning o'ziga xosligini, ob'ektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'sirini o'rganiladi. Chunonchi egizaklarning o'xshashligi, va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'usining o'zgarishi, kishilar o'rtaсидаги individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliv nerv faoliyati sistemasi va x.k) bo'yicha ma'lumotlar olish longityud metodi bilan amalga oshadi.

Rus psixologi B.G. Ananev bo'yicha tadqiqot metodlari 4 guruhga bo'linadi:

I. **Tashkiliy metodlar:** taqqoslash, longityud va kompleks metodlari kiradi.

Taqqoslash-umumiy psixologiya, jamiyat psixologiyasi, pata psixologiya va defektologiyada keng qo'llaniladi. Yosh va pedagogik psixologiyada o'rganilayotgan psixik jarayonlarning dinamikasini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Longityud – (uzluksiz) uzoq vaqt davomida ayni bir xil kishilar o'rganiladi. aniqlanadi).

Kompleks – psixologik tadqiqotlar boshqa fanlar ishtirokida o'tkaziladi. (shaxsning jismoniy, fiziologik, psixik va ijtimoy taraqqiyoti aniqlanadi).

II. **Emperik metodlar:** kuzatish va o'z-o'zini kuzatish; eksperimental psixodiagnostika metodlari (test, anketa, suhbat, sotsiometriya, intervju); faoliyat natijalarini tahlil qilish; biografiya metodlari.

III. **Ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari:** miqdoriy (statistika) va psixologik yoki sifatiy tahlil turlariga bo'linadi.

IV. **Interpretatsiya yoki tavsiyalash metodlari:** Genetik va strukturaviy ("donalash") metodlar. **Genetik metoda** taraqqiyotdagি bosqich, pog'onalar, inqiroz holatlari ajratib ko'rsatiladi (vertikal aloqa).

Strukturaviy metodda esa shaxsning barcha xarakteristikalari o'rta Sidney "gorizontal" aloqalar aniqlanadi.

B.G.Ananev psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik, natijalarni sharxlash metodlari deb nomlagan. Bu guruuhlar o'zining maqsad va vazifasi buyicha yana bir nechta toifa hamda turlarga bo'linadi.

Tadqiqot metodlarining birinchi - tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, langityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash), meditsina psixologiyasi (soglom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash), sport psixologiyasi (sportchilarning holati, ishchanligini o'zaro taqqoslash) kabi fanlarda unumli foydalanadi.

Yosh psixologiyasida esa **kiyoslash metodi** turli yoshidagigi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, saloxiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligi kabilarni o'rganishda qo'llaniladi. Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blokskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananev, D.B. Elkonin, P.Ya. Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlarida shu metoddan foydalanganlar.

Yosh psixologiyasida qiyoslash metodi bilan bir davrda **longityud (uzluksiz) metodi** ham qo'llaniladi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, xatto o'n yillab tekshirilishidir. Longityud metodidan psixologlardan nemis V.Shtern, frantsuz R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytis, V.S.Muxina va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmokdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Xasan-Xusan, Fotima-Zuxra) yoki aralash jinsli (Xasan-Zuxra, Fotima-Xusan) egizaklar kuzatilgan. Shuning uchun kator tadqiqotlar "ona kundaligi" deb nomlangan.

Longityud metodi yordamida sub'ektiv omillarning o'ziga xosligini, ob'ektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'sirini o'rganiladi. Chunonchi egizaklarning o'xshashligi, va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'usining o'zgarishi, kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliv nerv faoliyati sistemasi va xk) buyicha ma'lumotlar olish longityud metodi bilan amalga oshadi.

Kompleks metodi yordamida o'rganilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlar turli nuqtai nazardan taxlil qilinadi yoki ularga har xil yondoshiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondoshish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga molik bo'lib, insonshunoslik muammolarini xal qilishda katta yordam beradi.

Ilmiy-tadqiqot metodlarining ikkinchi guruhi empirik metodlardan iborat bo'lib, bu guruhgaga kuzatish _o'zini o'zi kuzatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test, anketa, surov, sotsiometriya, suxbat, intervyu, faoliyat jarayonini va uning maxsulini taxlil qilish, tarjimai xol (shaxsiy guvoxnama, xujjat, turmush faoliyati vokealarini taxlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz va prognoz vazifalarini bajaradi. Insonda tugilgandan umrining oxirigacha sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlarni chuqurrok va ob'ektivrok tadqiq etish uchun empirik metodlardan navbatma-navbat foydalanish yaxshi natija beradi.

Ilmiy-tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) taxlil turlariga bo'linadi. Statistik metodlar tajribalarda olingan kiymatlarning ishonchlilik darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Ilmiy-tadqiqot metodlarining to'rtinchi-sharxlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir. Genetik metod bilan tadqiqot davomida tuplangan ma'lumotlar yaxlit holda maqsadga muvofik yo'sinda sharxlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi - sinaluvchida vujudga kelayotgan yangi shaxs fazilatlarining rivojlanishi va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif hamda tavsif berishdir.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligining ildizi aniqlanadi. Tanlash metodi bilan tadqiqot tadqiqot ob'ektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlar o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uygunlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson nutkini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda birgalikda katnashishi bunga yorqin misoldir.

To'rtinchı bosqich - sharxlashda har bir fakt, alomat, ko'rsatkich, xossa psixologik jihatdan so'z mantiq orqali taxlil qilinadi. Barcha ilmiy-amaliy muloxazalar isbotlanadi, xech bir shubxaga, e'tirozlarga o'rinn qolmaydi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi.

3. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tamoyillari.

Yosh davrlari psixologiyasi quyidagi tamoyillarga rioya qiladi:

1) Dialektik materializm ta'limotiga binoan psixika yuksak darajada tashkil topgan materianing xususiyati va yoki miyaning maxsulidir. Odatda psixika tashqi dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, nutq, xayol kabi bilish jarayonlarida, shuningdek, shaxsning xususiyatlari va holatlarida, diqqati, his-tuyg'ulari va xarakter hislatlarida, kizikishi va ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi.

2) Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashki dunyodan kirib keladigan qo'zg'atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaktsiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvakkat nerv bog'lanishlari psixik hodisalarni fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta'sirning natijasida xosil bo'ladi. Bosh miya pustlogida vujudga keladigan muvakkat nerv bog'lanishlari I.P.Pavlovning nerv jarayonlarining irradiatsiyasi, kontsentratsiyasi hamda o'zaro induktsiyasi qonunlari zamirida ro'y beradi.

3) Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini - uning ham nazariy, ham amaliy xayot faoliyatini o'rganishdir. Odam zotining ongliligi uning turli-tuman faoliyatida (o'yin,mehnat,o'kishda), xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson shaxsi har xil shakl va mazmunga ega bo'lgan nazariy hamda amaliy faoliylarda tarkib topa boradi. Bunda muhit, irsiy belgilari, tarbiya asosiy omillar hisoblanadi.

4) Inson bilish faoliyati rivojlanishi unga o'zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to'g'rirok, to'laroq va aniqrok aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl mohiyatini turli yo'sindagi o'zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlar va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelaetgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlargacha, kishilarga va o'ziga munosabati vujudga keladi.

5) Inson ongingin rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo'ladi. Tarixiy materializm ta'limotiga, insonning moddiy turmushi, u xayot kechirayotgan tuzumning moddiy asosigina emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzları, umuminsoniy qiyofalari, e'tikodlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy vokelikka munosabatlari, intilishlari, faoliyatlar, ijod maxsullari va xatti-harakatlarining majmuasidir.

6) Insonning borlikni (vokelikni) aks ettirishi - faol jarayondir. Ma'lumki, inson zotining rivojlanishi ob'ektiv borlikka (vokelikka) va o'ziga faol ta'sir ko'rsatishda sodir bo'ladi. Bolaning katta yoshidagigi kishilar tashkil qiladigan amaliy faoliyati, masalan, o'yini, kuzatishi, mehnati, o'qishi, adabiy asarni mutolaa qilishi hamda

qiziqishining barqarorlashuvi, iktidorning takomillashishi va boshqalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Rivojlanish inson shaxsining tarkib topishi jarayonidir. Hozirgi davrda insonning rivojini yanada jadallashtiruvchi vositalar mavjud va uning aqliy usish darajasini testlar bilan aniqlash mumkin. Yosh davri psixologiyasi predmeti ta'lim rivojlanishni o'z ketidan ergashtirib boradi, degan qoidaga amal qiladi. Yuqoridaq tamoyillar asosida turli yosh va jinsdagi odamlarda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida metodologik va metodik xatolarga kamroq yo'l quyiladi. Shunday ishlarda inson tugilganidan umrining oxirigacha qanday o'zgarib borishi to'g'risida ma'lumot tulplash mumkin

Asosiy savollar.

1. Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy muammolari.
3. Yosh va pedagogik psixologiya faniga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi.
4. Yosh va pedagogik psixologiya ilmiy matablar.
5. Yosh va pedagogik psixologiya fanining o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova **Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.** «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
- 4.G`oziyev E.G` . Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

2-mavzu. ONTOGENEZNING ILK BOSQICHLARIDA INSONNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA XOS XUSUSIYATLAR

Asosiy savollar

- 2.1.Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiyl tushuncha.
- 2.2.Tuqilish davri inqirozi.
- 2.3.Go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emostional muloqotning ahamiyati.
- 2.4.Bir yosh inqirozi haqida.
- 2.5.Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
- 2.6. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

Darsning maqsadi:

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tuqilish davri inqirozi.

Go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emostional muloqotning ahamiyati. Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi kabi muomolarni ochish.

Kalit so'zlar:

Yosh davrlari psixogiyasi, psixik jarayonlar, yosh psixologiyasi fanining predmeti, tamoyillari, asosiy vazifalar, metodlari, tashkiliy, empirik, statistik, sharx.

1.Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha.

Brinch savolning bayoni

2.1. Bolaning ona qornidagi o'sish davri onaning organizmiga uzviy bog'liq xolda kechadi. Chaqaloqning tug'ilishi sifat o'zgarishi ijtimoiy rivojlanishning yangi ko'rinishi boshlanadigan nuqta ekanligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli tug'ilish tabiatning chaqaloq organizmini kuchli larzaga keltiruvchi mo'jisidasidir. Bunda ona qornidagi barqaror muhitda yashagan jonzot favqulotda yangi sharoitga, son-sanoqsiz xossa va xususiyatlarga ega bo'lgan qo'zg' ovchilar doirasiga tushadi.

Chaqaloqlik davrida ana shunday yangi muhitga moslashish jarayoni amalga oshadi.

Go'dakning hayotiy faoliyati va tarixi uni qurshagan, parvarishlaydigan katta yoshdagilarga bevosita bog'liq bo'lib, uning barcha extiyoji va talablari faqat kattalar tomonidan qondiriladi. Kattalar go'dak uchun yaratgan ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar uning o'sishini belgilovchi muhim turtki vazifasini o'taydi. Atrof-muhitning xususiyat va xossalari kattalar go'dakning psixik dunyosiga singdiradilar. Shiqildoqlarning shakli, rangi, xar-xil o'yinchoqlar va xokozolarni bolaning diqqatiga xavola qilish, unda jismlar to'g'risida tasavvur obrazlarni yaratadi, go'dakning xissiy bilish organlari esa ularni aks ettiradi. O'zaro muloqot jarayonida jismlarni ushlashga o'rgatish mashqlari natijasida go'dak «Tanish» jismlarga talpinadigan ularga qo'l uzatadigan bo'la boshlaydi, unda rang va shaklni farqlash imkoniyati tug'ilashga boshlaydi.

Tasavvur o'tkazishning murakkab bosqichida bola kattalar yordamida o'tirish, tik turish, ovqatlanish, qurollardan to'g'ri foydalanish, uzliksiz va mazmunli xarakatlarni amalga oshirishni o'rganadi. Shuning uchun aks ettirish qaysi bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar, bevosita yo'l bilan amalga oshadi. Umuman go'daklik davrining dastlabki bosqichida olamdagи barcha ashyolar, jismlar to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'ladi. Mazkur davrning aksariyat boskichlarida go'dakda bilim va tajribalarni, ko'nikma va malakalarni mustakil egallash imkoniyati bo'lmaydi.

Go'daklik davrining hususiyatlarini o'rgangan L.S.Vo'gotskiy «Go'daklik davri» asarida bolaning voqeylekka munosabati dastlab ijtimoiy munosabatdek tuyilishi, ana shu jihatdan jonzot deyish mumkinligini uqtiradi. Go'dak tabiiy, biologik jixatdan onadan ajragan bo'lsa ham, aslida u bilan ijtimoiy bog'liqligicha qoladi.

2.2. Go'dakning bir yoshgacha davridagi psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L. Figurin, M.P. Denisova, M.Yu.Kistyakovskaya, A.Vallon, D.B.Elkonin, e.A.Arkin, S.Fayans, Sh.Byuler, F.I. Fradkinalarning asarlari alohida ahamiyatga molikdir.

S. Fayans tajribasida go'dakka chiroyli va jozibador uyinchoklar 9 sm masofadan ko'rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan keyinchalik oralik 60 sm bo'lganda bolaning intilishi, qo'l cho'zishi sustlashgan, va nihoyat ular 100 sm dan ko'rsatilganda bolada intilish, cho'zilishi, ixtiyorsiz xarakati mutlaqo so'ngan. U o'yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi tajriba materillari asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: go'dak qatnashayotgan faoliyatni jonlantiradilar. Go'dakni qurshab to'rgan jismlar borgan sari uning nigohini o'ziga tortib, maftun qilib, qo'zg'atuvchi vazifasini bajarib, bolaning qidirish, mo'ljalga olish, chamalash faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.V.Yarmolenko yarim yoshlik go'daklarda jozibali narsalarning o'zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma'lumotlarga qaraganda go'dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. Shu bilan birga harakatsiz ko'rav qo'zg'atuvchisiga diqqatni to'plash 26 sekunddan 37 sekundgacha harakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha, xarakatdagi ko'rav qo'zg'atuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e'tibor berishi 49 sekunddan 88 sekundgacha ortgan.

Tajribada go'dakning xarakatlanayotgan odamga diqqatini to'plab turishi 4 marotaba ortgani aniqlangan.

Go'dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqaror qaratishi uning kattalarga munosabati o'zgarganidan emas balki ular bilan aloqaga kirishganda sust retseptor o'mini faolrog'i egallaganidandir. Go'dakda fazoviy tassavvurning boyishida jumlalarning idrok qilishidagi farqlashning takomillashuvi muhim vosita xisoblanadi. Hayot tajribasi ortib borishi mashqlar natijasida jismlarning alomatlari va belgilarni o'quvi paydo bo'ladi.

Olimaning fikricha 3- oydan 6 oylikkacha bolada katta yoshdagagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo'lishi vujudga keladi. Uch oylik go'dak begonalar orasidagi tuqqan onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini ham farqlay boshlaydi. M.Yu.Kistayakovskaya ma'lumotiga ko'ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o'giradi, xatto, qo'rqib yig'lab yuboradi. Bolada o'zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga bog'lanib qolishi sodir bo'ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko'rsa qiyqirib qarshilaydi, unga talpinadi, qo'l-oyog'ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to'lganda atrofdagi yaqin kishilar, qarindosh-urug'lariga, xatto qo'ni -qo'shilarga ham bog'lanib (o'rganib) ko'nikib qoladi. Ta'minan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o'zin faoliyatini boshlaydi.

O'zin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik, tuyg'ulari avval faqat kattalar ishtirokida namayon bo'ladi, vaqt o'tishi bilan uyinining o'zi bolaga quvonch bag'ishlaydi. Go'dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning xatti-xarakatlarini izchil kuzatishdan tashqari unda asta-sekin ularning ko'mak berish ishtiyoji tug'iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o'ta boshlaydi. Ma'lum, hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko'lagini kengaytirishga yordam beradi.

Shunday qilib, go'daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish extiyoji tug'iladi va bu aloqa nutq davrigacha muloqotning o'ziga xos yangi shakli sifatida bolaning

o'sishida muhim rol o'ynaydi. Bir yoshgacha davrda paydo bo'lган extiyojning tobora chuqurlashuvi bilan nutq davrigacha ma'lumot cheklanganligining nomutanosibligi bir yoshdag'i inqirozni keltirib chiqaradi. Vujudga kelgan qarama-qarshilik o'z echimini nutq orqali muloqot davrida topadi. Va bola o'tishning birinchi bosqichida o'tayotganini ifodalaydi. Go'dakning nutq faoliyati takomillashgan sayin muloqotning mazmuni boyib, ko'lami kengayib boradi. Natijada xaqiqiy ma'nodagi shaxslararo munosabat vujudga keladi, go'dakning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashuviga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur davrda go'dakning o'sishini ta'minlovchi ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar yaratilishi bolaning faolligi ortishi uchun psixologik negiz bo'ladi.

Xarakatning psixologik xususiyatlari va mexanizmlarini qator tajribalar asosida o'rgangan olimlardan D.B.Elkoninning ishonch bilan ta'kidlashicha 2-3 xafthalik go'dakda ko'z konvergensiysi vujudga kelsa ham, o'z nigoxini turli jismlarga qaratib turish jarayoni juda qiyin kechadi, hayotining keyingi 3-5 haftalarida esa uning nigoxi oz fursat bo'lsada, muayyan ob'ektga to'plana boshlaydi. 4-5 haftalik go'dakda 1-1,5 metr naridagi jismlarni kuzatish ko'nikmasi xosil bo'ladi. Ikki oylik bola 2-4 metr uzoqlikdagi narsani kuzatishni o'rganadi, u 3 oyligida 4-7 metr oralig'idagi jismlarni ham payqay oladi, nixoyat 6-10 xafthalik go'dak xatto aylanayotgan predmetlarning xaraktni idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinchalik xissiy organlarning ko'z bilan turli funksional aloqalar o'rnatishi qaror topadi. Go'dak 4 oyligida uning jismga tikilishi va uni tomosha qilishi nisbatan barqaror bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay mazkur yoshdag'i bolalarda qo'l xarakati beixtiyor xususiyatga ega bo'lib, jismlarni maqsadga muvofiq xarakatlantirishdan ancha uzoqdir. Go'dak 4 oyligidan boshlab narsaga qo'lini yo'naltiradi, asta-sekin unda paypaslash uquvi namayon bo'la boshlaydi. 5-6 oyligida predmetni va uni o'ziga tortib olish ko'nikmalari shakllanadi. Xarakat va teri tuyush organlari sifatidagi qo'l vazifasini o'tovchi ko'rish qobiliyati bir maromda rivojlanishdan bir mucha kechikadi. Bola 6 oyligida unda turish, o'tirish, emaklash, yurish, gapirish ko'nikmalari shakllanadi.

Yuqoridagi xollarning moddiy asosini o'rgangan N.M.Shechelovanov 2 oylik bolada bosh miya yarim sharlari po'stlog'i o'z funksiyasini boshlashini, bu xol barcha idrok qilish organlarida, jumladan, eshituv, ko'rvu, apparatlarida reflekslar paydo bo'lganidan dalolat berishini uqtiradi. Olimning fikricha eshitish, ko'rishning yuksak analizatorlari xattoki, ularning kortikal bo'limlari rivojlanganidan keyin bolada xarakat va xarakatni idrokqilish xodisasi rivojlanadi.

2.3 Go'dak bir necha marta natijasiz harakat oqibatida kaft va barmoqlarini yaqinlashtiradi, shunday qulay xolat yaratadiki qo'lining uchi jismga tegishi bilanoq uni ushlab oladi. Qo'l ushslash xarakatining vujudga kelishi ham go'daklik davrining muhim rivojlanish pallasi xisoblanadi. Chunki, qo'l bilan ushslash xarakati birinchidan, ko'rish, xarakatini muvofiqlashtirsa, ikkinchidan, mazkur psixologik xolat birinchi yo'naltirilgan xarakatni ifodalaydi, uchinchidan, jismlarni ushslashga intilishining o'zi predmet bilan turli xarakatlarni bajarish (manipulyasiya) ning eng qulay shartidir.

R.Ya.Abramovich-Lextman go'dakning bir yoshgacha davrida predmetlar bilan xarakat qilishni o'rganib, ularning 6 ta rivojlanish bosqichidan iborat ekanligini aytadi. Bo'lar:
a) faol sergaklik (tetiklik) 2 xafthalikdan 4-5 xaftalikkacha; b) sensor faollik 1,5 oylikdan- 2,5-3 oylikkacha; v) xarakat oldi 2,5-3 oylikdan 4-4,5 oylikkacha; g) sodda «sermaxsul» xarakat 4 oylikdan 7 oylikkacha; d) o'zaro bog'langan (uyg'un)

xarakat-7-10 oylikkacha; e) funksional xarakat 10-11 oylikdan 12-13 oylikgacha davom etadi.

Predmetning xususiyatiga qarab bola xarakatidagi o'zgarishlarni M.Yu. Kistyakovskaya, D.B. Elkoni, e.A. Arkin, V.S. Muxina, N.A. Menchinskaya va boshqalar, repseptor faoliyati mexanizmlarini I.P. Pavlov va uning shogirdlari F.R. Dunaevskiy va boshqalar o'rganishgan. Ularning talqiniga emaklash-go'dakning fazoda mustaqil xolda o'rinni almashadirishi, xarakat qilishining dastlabki ko'rinishidir. Mustaqil yurish-go'dakning insonlarga xos yo'sinda fazoda siljishi, joyidan qo'zg'alishni amalga oshirish uchun muayyan darajada tayyorgarlikni taqazo qiluvchi xarakatlarning yangi ko'rinishidir.

Shunday qilib go'dakning jismlar bilan bevosita amaliy aloqaga kirishuvchi va ular yordamida xarakatlanishi narsalarning yangi xossa va xususiyatlarini bilib borishi, ular bilan munosabatini yanada kengaytirish uchun imkon yaratadi.

Hayotning ikkinchi yarmida bolaning predmetlar bilan xar-xil xarakatlarni amalga oshirishdagi ildamligi, orientirlashtirish faoliyatining murakkablashuvi, fazoda o'rinni almashirishning yangi shakllari vujudga kelishi uni katta yoshdagi odamlarga bevosita bog'lab qo'yadi.

Go'dak o'sishining murakkabligi uning xilma-xil faoliyati bilan o'zaro bog'langandir. Shuning uchun katta yoshdagi odamlar bu davrda go'dakning extiyojlarini to'la qondirishga xarakat qilishlari kerak. Shundagina ularning bola psixikasiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etishi bola bosh miya katta yarim sharlari po'stining faoliyatini takomillashtiradi.

Go'dak hayotining dastlabki oylaridan boshlaboq o'yin faoliyati uning hayotida muhim o'rinni egallaydi, ko'rib va eshitib idrok qilish uquvini o'stiradi. Jismlarning rangi, shakli katta-kichikligini ajrata olish qobiliyatini rivojlantiradi. O'yin faoliyati go'dakning borliqni bilishda va uni aks ettirishda muhim rolg' o'ynaydi.

Katta yoshli kishilar tovushiga taqlid qilish, go'dakning qurshab to'rgan odamlar nutqini idrok qilish tom ma'nodagi nutq faoliyatini tarkib toptiradi. Muloqotning so'nggi turlari go'dak hayotining 2- yarim oyligida ko'zga tashlanadi. Uning o'zini parvarishlayotgan, odamlarga iliq tabassum, quvonch va shodlik tuyg'usi bilan boqishi faqat xush kechinmalaridan emas balki ichki mexanizmlarini ifodalovchi, muayyan darajada tashkil topgan ijobjiy ta'sirlanishni aks ettiruvchi muloqotdan ham iboratdir. Katta yoshli odamlardan ta'sirlanish xis-tuyg'usi go'dakning hayot faoliyatida bir necha yo'nilishda qaror topib beradi. Ulardan bittasi quvonch yoki tabassum tuyg'usida: butun vujudi bilan talpinishi tikilib turishi, xarakatlarni ko'zg'atuvchi kelgan tomonga burishi, o'ziga xos tovushlar chiqarishi yoki g'ug'ulashida yaqqol ko'rindi. Ta'sirlanish xis-tuyg'usi «jonlanish majmuasi» bilangina emas, uning aloxida tarkibiy qismlarini (tovush, chexra va xakazolar) ta'sirida ham vujudga keladi. Ta'sirlanish tuyg'usi keyinchalik tanlovchanlik xususiyatini kasb etib, faqat ayrim (yaqin tushgan) kishilarga nisbatangina xosil bo'ladi.

Ta'kidlanganidek ta'sirlanish tuyg'usi avval umumiyligida xususiyatga ega bo'ladi. Keyinchalik 4-5 oylik paytlarida kishilarni tanish va begonaga ajratish bilan yakunlanadi. Ya'ni tanishlar go'dakda chuqur ijobjiy kechinmalar xosil qilsa, begonalar quvonch va tabassum xislarini butunlay to'xtatishga ham olib keladi. Tanish kishi psixik jarayon sifatida bolaning psixikasiga aloxida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan katta yoshdagi odamlar go'dak uchun dastlabki tanish jarayonining ob'ektiga

aylanadilar va muloqot davomida ijobiy ta'sirlanish tuyg'usini paydo qiluvchi qo'zg'atuvchi vazifasini o'taydilar.

2.4. Bola hayotining 2 yarim yilligida kattalar nutqini idrok qilish va uni tushunish jadal sur'at bilan o'saveradi. Chunki, ona yoki tarbiyachi parvarish qilish va tarbiyalash jarayonida xar bir xarakatni tushunchalar, so'z birikmali, atamalar bilan birga amalga oshiradi, xarakat bilan predmetning uzviy bog'liqligini yoritishga kirishadi. Ma'lumki, xar qaysi predmet va voqeа o'z nomi bilan ifodalanadi, natijada bola uchun onaning yoki tabiyachining nutqini tushunish va ilg'ab olish birmuncha engillashadi. Ularning barchasi bola bilan katta yoshdagi odamlar o'rtasida uzluksiz hamkorlik vujudga kelishini taqazo qiladi. Bolaning hamkorlikdagi (ota-ona, enaga, murabbiya yoki tug'ushganlari ishtirokidagi) o'yin faoliyati ham, xis-tuyg'uga berilishi ham nutq va nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

D.B.Elkonin xulosasiga ko'ra, nutqni tushunish vujudga kelishining asosiy shartlari quyidagilardan iborat: a) umumiyl xolatdan predmetni ajrata olish; b) predmetga diqqat-e'tiborni to'plash; v) favqulotda xolatiga qarab, anglanadigan xis-tuyg'uning mavjudligi va boshqalar.

O'zgalar nutqini tushunish ko'rav idroking zamirida vujudga keladi. Boladagi o'zgarishlar nutqini tushunishga o'rgatishda katta odam biror o'yinchoqdan ta'sirlanishni xosil qiladigan qo'zg'atuvchini uyg'otadi. Bunda jism va rasmlarga bolaning diqqatini jalb etadi, yoki uning qo'lidagi yoxud stol ustidagi ob'ektlarni ko'rsatib «Surnay qani?», «Katta ayiqcha qani?» kabi savolar bilan murojaat qiladi.

Kattalarning bola bilan mashg'ulotlarni bir necha marta takrorlashi natijasida tallaffuz qilinayotgan so'z bilan predmet uzviy bog'lanadi va bu bog'lanish bir necha bosqichlarda namayon bo'ladi. Dastavval kattalarning savoli bolada xech qanday ta'sirlanish tuyg'usi ko'zga ko'rinxmaydi, xatto go'dak o'sha predmetga qiyo ham boqmaydi. Ikkinch bosqichda bolada savolga nisbatan sust xarakatlanish xosil bo'ladi va u predmet turgan tomonga diqqatini yo'naltiradi. Nutqni idrok qilishning uchinchi bosqichida go'dak uchun jismning moxiyati va mazmuni muhim ahamiyat kasb etmaydi, balki berilayotgan savolning intonatsiyasi, ritmi, tempi, mantiqiy urg'usi bosh mezon, asosiy turtki vazifasini bajaradi. O'zgalar nutqini tushunishning oxirgi bosqichida go'dak predmetni anglatuvchi so'z bilan predmetni o'zaro bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada boshqa joylardan ham shu predmetni topish uchun ijodiy izlanishga xarakat qiladi. Nutqni idrok qilish va tushunishning oxirgi bosqichi go'dakning 9-10 oyligidan boshlanadi va uni o'zgalar nutqini tushunishning ilk shakli va ko'rinishi deb aytildi.

Tadqiqotchi F.I. Fradkina kattalarning go'dakka qaratilgan nutqida quyidagi ta'sirlanish xolatlarini ko'rish mumkinligini aniqlangan. Birdan bajarishga intilish (7-8oylikda), 3) Kattalarning nutq orqali ko'rsatmasi bo'yicha oddiy topshiriqlarni bajarish (9-1% oylikda), 4) Nutq orqali ko'rsatma bo'yicha zarur predmetni tanlab olish (10-11 oylikda), 5) «Mumkin emas» degan takidlovchi so'z ta'sirida xarakatni to'xtatish (12 oylikda va xakozo).

D.B.Elkonin fikricha, bir yoshgacha bola psixikasi o'sishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Kattalar nutqini tushunish hamda dastlabki so'zlarni mustaqil talaffuz qilish;
2. Predmetlar bilan xilma-xil xarakatlarni uyg'unlashtirib, ish-xarakatini bajarish;
3. Yurishga o'rinishning ro'y berishi;

4. Xatti-xarakatni so'z bilan boshqara olish:

5. So'z bilan go'dakning idrok qilish faoliyatini boshqara olish va xakazo.

Shunday qilib, bir yoshgacha go'dak egallagan eng qimmatli xususiyat paydo bo'ladi va u boladagi ijtimoiy extiyojning vujudga kelishida va uning shu extiyoj orqali katta yoshdagi odamlar bilan bevosita muloqotga kirishida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun jismlar bilan maqsadga muvofiq xatti-xarakatlarni birgalikda amalga oshirishda, bilish jarayonlari va shakllari zamirida muloqotga extiyoj tug'iladi. Go'dakning o'sishi kattalar bilan muloqotga kirishish natijasida ro'y beradi.

Demak, 3 oylik go'dak gapiRAYOTGAN odamni o'z ko'zlari bilan topish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki, unda shu paytgacha tovush manbaini izlash uquvi shakllanadi. Shunga ko'ra bola tovush kelgan tomonga qarab so'zlovchiga munosabatini xis-tuyg'uga o'rav ifodalay oladi. Go'dakning borgan sari diqqat bilan atrof-muhit manzaralarini va xar-xil ovozlarni eshitish hamda ko'rish imkoniyati uning umumiyligi o'sishida aloxida ahamiyat kasb etadi. Tajribalar taxlilidan ko'rinishicha, ko'rish, eshitish analizatorlari go'dakning voqeylek va borliq bilan, kattalr bilan o'zaro muloqotga kirishi natijasida takomillashadi. Go'dakning o'z ko'zlari orqali inson va jismlar to'g'risida muayyan ma'lumot olishi turmush tajribasi ortib borishi bilan vujudga keladi. Eshitish analizatorlari yordamida tovushlarni idrok qilish ovozlarni farqlashdan iborat, shartli reflekslarning tabiatiga ko'proq bog'liqdir. Shu sababli, go'dak inson bilan musiqanining tovushini ajrata biladi, ularning kuchsiz va kuchliligini, yoqimli va shovqinligini sezadi. Uning eshitib tushunishi va nutqini idrok qilishni ko'pgina shartli bog'lanishlarning sifati bilan o'lchanadi.

Inson zotining bir yoshgacha davrini nutqgacha davr deb atash odat bo'lib qolgan. Bu davr mobaynida go'dak bosh miya yarim sharlari ikkinchi signallari sistemasi faoliyati bilan bog'liq anchagina ishlarni amalga oshiradi. Nutqni tushunib idrok qilish esa kun sayin o'sib, takomillashib boradi.

Go'dak ikki oylik bo'lguniga qadar g'udurlashni o'rganadi. G'udurlanish ijobiy xis-tuyg'u, barqaror kayfiyatning maxsuli sifatida boshlanadi. U asta-sekin artikulg'yar apparatning takomillashuvi natijasida tovushlarni o'zaro farqlay boshlaydi. Yuqorida aytilganlarning barchasi, bola amalga oshirayotgan nutq faoliyatining nishonasi tug'ilayotganini ko'rsatadi.

Go'dak hayotining analizatorlari rivojlanib, orienterlash reaksiyasi aniqroq ifodalana boshlaydi. Shartli reflekslar ko'lami tobora kengayishi natijasida voqelikka hissiy munosabat takomillashadi. Go'dak hayotining ikkinchi yarmida esa u kattalarning imo-ishoralarini tushunib idrok qila boshlaydi. Faol alomatlarning vujudga kelishi bilan go'daklik davri tugaydi va ilk bolalik yosh dari boshlanadi.

Inson ontogenezida uning 1 yoshdan 3 yoshgacha o'sish davri aloxida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda inson zotiga xos eng muhim sifatlar, xarakter xislatlari, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabat, xulq-atvor, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakllanadi. Bo'larning barchasi qarama-qarshiliklar kurashi ostida tarkib topadi.

Bolaning yurishga o'rinishi, turli narsalar bilan ovunishi va mashg'ul bo'lish imkoniyatlari kengayishi, uning kattalarga bevosita tobeligi, ularga bog'liqligi nisbatan kamayishiga olib keladi.

2.5. ILK BOLALIK DAVRI

Go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi davri ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola xayotidagi eng ahamiyatli, uning kelgusi psixologik rivojini belgilab beruvchi davr xisoblanadi. Bu rivojlanish asosini bolaning to'g'ri yurishini, muloqotga kirishini va predmetli faoliyatni egallagani tashkil etadi. Tikka va to'g'ri tik yura olish imkonibolani doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallahsga olib keladi. Bu yoshdagi bola o'z xatti-xarakatlari jixatdan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishish uchun intiluvchan bo'ladi. 1-3 yosh bola shakllanishda psixik rivojlanishning nixoyatda ahamiyati kattaligini inobatga olgan xolda ayrim psixologlar (m-n R.Zazzo) inson tug'ilganidan to etuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojining taxminan o'rtalari 3 yoshga to'g'ri keladi degan muloxazani beradilar. Bu yoshdan boshlab bolalar predmetlarni o'rganish olamiga kadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo'la oladi va elementar axloq qoidalariga amal qila oladi. Kattalar bilan bo'ladigan muloqot orqali bola atrof xayot xaqida boshqa yo'naliishlarga qaraganda 10 xissa ko'proq ma'lumot oladi. Nutq bu yoshda nafaqat muloqot balki tafakkurning rivojlanishi va o'z-o'zini shuningdek, bilish jarayonlarni boshqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ilk davridagi bolalrning etakchi faoliyati predmetlarni o'rganish xisoblanadi. Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan ilk bolalik davridagi bolalar narsalarga ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar go'dak bola qo'liga ushlagan narsani oddiy xarakatlantirib ko'rsa, 2-3yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina o'z amaliy faoliyatida ishlatadi. Bolani avvalo shu predmetning ishlatish vazifasi qiziqtiradi va u o'z savoliga javob olish uchun ko'pincha kattalarga «Bu nima?» degan savolni beradi. 3 yosh arafasida predmetlarning vazifalarini to'la o'zlashtirgan bolalar o'z o'yinlarida nafaqat shu predmetlardan foydalananadilar, balki ularni o'z vazifalariga ko'ra ishlatadilar ham. Predmetli faoliyatga kirishishi bolaning turli layoqatlari va qo'l xarakatlarini rivojlantiradi. Bolaning nutqi u to 1,5 eshga etgungacha ancha sekin rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 so'zdan to 100 tagacha so'zni bila oladi, lekin ularni juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa uning nutqi jadal rivojlanadi. Endi u nafaqat predmetlarning nomini aytishlarini so'rabgina qolmay bu so'zlarni talaffuz etishga ham xarakat qiladi. Nutqning rivojlanish darajasi juda jadallashadi. 2 yoshning oxirlariga borib bola 300 tagacha, 3 yoshning oxirlagiga borib esa 500 dan to 1500 tagacha so'zni ishlata oladi. Shuningdek so'zlarni ham aniq talaffuz etib, jumlalarni to'g'ri tuza oladilar.

Shuni aloxida ko'rsatish joizki 1,6-3 yosh bu nutq rivojlanishi uchun senzetiv davr xisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanish asosini idrok va tafakkur xarakatlarining yangi ko'rinishlari tashkil etadi. 1 yoshli bola xali predmetlarni ketma-ket, sistemali ravishda ko'rib chиqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok xarakatlarini egallanishi bolaning predmetli xarakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab xarakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 eshli bola kattalarning bergen namunasi rangin shakli va kattaligiga ko'ra aynan shunday predmetlarni chamalab idrok etgan xolda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ogra kattaligiga va shundan so'ngina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jaraenda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar borligini tushuna boshlaydi. Lekin

bola rasm chizishni boshlaganida predmetlarni rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishiga 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, qovoq sariq, sariq yashil, ko'k, siexrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning ishlatalishi jixatidan turli xil narsalarda turlicha bo'lishi sababli bu eshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari noto'g'ri bo'lib, buning uchun mos davr bu 4-5 esh xisoblanadi. Bu eshdagi bolalar so'zlardagi barcha tovushlarni idrok eta oladilar.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va xarakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning funksiyasini anglatib bu predmet yoki xarakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatalishini funksiyalariga bog'lagan xolda tez o'zlashtiradi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni biz biron bir predmetni olishga xarakat qila olganidan so'ng esa uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari asosan ko'rgazmali xarakatli bo'lib, u atrof olamdagи turli bog'liklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola endi mustakil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni kaltak erdamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rinni tutadi. Umumlashtirishda nutq asos xisoblanadi. Masalan, soat deyilishi bola qo'l soati, osma soat, shuningdek budilnikni ham tushunishi kerak. Lekin ular turlicha bo'lgani sabab ularda umumiyligini topish bola uchun birmuncha qiyinroq xisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi. 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb xisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'mida, yog'ochdan krovat yoki mashina o'rniga foydalanishi mumkin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini bilish bola atrof olamni bilishi, o'rganishidagi ahamiyatli burilish xisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarni yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqeа, hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qaxramonlarini kimgadir o'xshatishga xarakat qiladi, u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy funksiya xisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirot etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bolaning xayotiy tajribalarni o'zlashtirishida avvalo xarakatli, emotsiyonal va obrazli xotira ishtirot etadi. Bu borada xarakatli va emotsiyonal xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular uzun ertak va she'r xikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiyligi rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv sistemasining umumiyligi egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof xayot xaqidagi voqeа va xodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni xali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Bu davrdagi bolalar asosan o'z xatti xarakatlarini o'ylab o'tirmaydilar. Bu xatti-xarakatlar ularning xoxish va xissiyotlari asosida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning

xatti-xarakatlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan: bolaning yiglashi ham, yig'idan to'xtashi ham juda oson. Ilk bolalik davrda bolada o'z yaqinlariga onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muxabbat shakllanadi. Ilk bolalik davrida bu muxabbat boshqa shaklga o'tadi. Endi bola o'z yaqinlaridan maqtov, erkalash olishga xarakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-xarakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobjiy emotsiyonal baxolari ularda o'ziga nisbatan o'z layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchni shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy extiyojlarini qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq xarakat qiladilar va atrof muxitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini ximoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala munosabati uni o'zini aloxida shaxs sifatida anglashining boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab o'z «Men»ini anglay boshlashi vaqtliroq yoki bir muncha kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o'zini o'z xoxish va extiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va bu uning «Menga bering», «Ko'taring», «Men ham boraman» kabi talablarida ko'rindi. Uch yoshli bolalar o'zlarini o'zgalar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o'z-o'zini baxolash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo'lish extiyoji yuzaga keladi va bu ularning «o'zim qilaman» qabilidagi so'zlarida nomoyon bo'ladi.

3 yosh inqirozi: 3 yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (xuquqi bo'lgan), shuningdek ular bajara oladigan xarakatlarni qilishi xoxlaydi. «Men katta bo'lsam mashina xaydayman», «Men sizga katta tort olib kelaman», «Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi» kabi xoxishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham barcha xoxishlarini bugunoq amalga oshirishga xarakat qiladi. Bu ko'pincha qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan kattalarga qaratilgan salbiy xatti-xarakat bo'ladi. Bola o'zini mustaqil xarakat qila olishini anglagan vaqtidan boshlab unda «O'zim qilaman» boshlanadi va bu yana qaysarlik va o'jarlik bilan ko'rindi. 3 yosh inqirozi bola shaxsining ma'lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-xarakatlarni qila olmayotganini bilishi natijasi xisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan xususiyatlar iroda, layoqatlar va boshqalar uni shaxs bo'lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Uch yoshgacha bolalar psixik rivojlanishidagi asosiy yangilanishlar

Yosh	Bilish	Xarakat	Muloqot
3yosh	Nutq shakllanishi.Obrazli tafakkurning birinchi belgilari.Atrof muxitdan o'zini ajratish.Qat'iylikni anglash	Qo'l,predmetli xarakatlarning rivojlanganligi.O'z xatti-xarakatlarini irodaviy boshqarish ko'rinishlari	O'z-o'zini angalshni yuzaga kelishi normalari.Birinchi axloqiy qoidalarni egallashi
2yosh	Faol nutqni tushunishi va o'zida yuzaga kelishi	Qo'l va oyoq funksiyalarining aniq belgilanishi	Xarakteri asoslarini shakllanishi

1yosh	Nutqni tushunishni birinchi birinchi belgilari	Mustaqil xolda tik turish va yurish	Nutqni qo'llashning birinchi belgilari
10oylik			Bog'liqlik reaktsiyasini yuzaga kelishi begona muxit va begonalar orasida xavotirlik
8 oylik	Sensomotor intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurish	Jest,mimika va pantomimika,yordamida noverbal muloqot
7oylik		Yordam bilan turish	
5 oylik		Yordam bilan o'tirish	
3 oylik	Ko'rish qobiliyatining shakllanishi	Yon tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarish
2 xafka	Onaning tovushini boshqa tovushlardan farqlash		
1 xafka	Xarakatlarni kuzatish		

2.6. Maktabgacha tarbiya davri shaxsning xaqiqiy tarkib topishi (voyaga etish) davri bo'lganligi uchun ham shunday muhim bir davrdir. Hayotning birinchi yili mobaynida bolaning tevarak -atrofdagi muhitga munosabati jiddiy ravishda o'zgaradi. Bola katalar bilan aloqada bo'lishi natijasida uning o'rgatishga qarab o'z ixtiyorlarini qondiradigan narsa bilan mustaqil xarakat qila boshlaydi. Dastlab u kattalar bilan birgalikda, so'ngra ularning raxbarligida xarakat qiladi, undan keyin ovqat eyish bilan bog'liq bo'lgan xarakatlarni va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid ishlarni mustaqil bajara oladi. Hayotning 2 yilida kattalar bilan munosabatlarda o'zgarish ro'y beradi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola katta odamni o'z xulqi-atvori uchun o'rnak deb xisoblaydi. Bola 1-yoshdan 3- yoshgacha narsalar, bilan xarakatlar qilishni egallaydi o'yin bolaning xarakatlarini rivojlantirish va takoimllashtirishga yordam qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola faoliyatining xilma-xil turlari o'yin, mexnat rejimini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat rivojlanana boradi. 2 yoshdan boshlab bolalar o'ynaydigan bo'lishadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning (4 yoshdan boshlab) etakchi faoliyatlarga bo'lib o'ynaladigan, ijodiy o'yindir. O'yin jarayonida bola muayyan rollarni bajarishni o'z zimmasiga olishadi hamda o'yin sharoitida odamlar faoliyati va munosabatini esga keltirishadi. 3-4 yashar bolalarda birgalikda o'ynaladigan o'yinlar xali bo'lmaydi. Dastlab buyum, o'yinchoq rolini go'yo esga solganday bo'ladi, sungra bola o'yinda ixtiyoriy suratda o'z zimmasiga ma'lum rolni oladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning kattalar tomonidan uyushtirilib, muayyan maqsadga qaratilgan ijodiy faoliyati uning taraqqiyotga qancha ta'sir ko'rsatadi. 2-yoshda bola rasm sola boshlaydi va jon dil bilan rasm soladi. Rasm solish jarayonida uning idrok etishi aniqlashda u buyumning rangi va shaklini yaxshiroq ajrata boshlaydi, kuzatuvchanligi rivojlanadi. Bola tasavvurlayotgan narsani o'xshatish maqsadida rasmda aks ettirish zarur bo'lgan narsalarning belgilarini ataylab ajratib ko'rsatadi.

Bola rasm solar ekan, rasmni so'zlar bilan to'ldirib, faollik bilan xarakat qiladi, u o'z tessavvurlari asosida keyinchalik katta yosh odamlarning so'ziga binoan rasmlar yaratmog'i mumkin-unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish

bilan loy va plastiklardan shakllar yasaydi, natijada, bola analizatorlarining rivojlantirishda hamda moslashgan va differensiyallashgan xarakatning tarkib topiishidan tashqari uning narsa shaklini, xajmini, bir o'lchovda bo'lishi va munosabatligini idrok etish takomillasha boradi. 3-4 yashar bola narsalar o'rtasidagi bog'lanishni farqlab oladi va o'z faoliyatini planlashtiradi, bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning analizatorli idrok etish jarayoni ham yanada takomillasha boradi. Bola hayotining 3- yoshida beixtiyor idrok maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolada ma'lum bir maqsadga qaratilgan, tanlangan idrokka aylanadi. Kuzatuvchanlik tarkib topadi. Idrok etishda so'zning roli osha boradi bola narsalarning belgilab qo'ygan sifatlari va xususiyatlarini aytib ko'rsatadi. Idrok jarayoni bolaning tafakko'rini o'stiradi. Idrok jarayoni o'z faoliyati davomida va tafakkur jarayonida tobora takomillashadi. O'yin jarayonida 3-yashar bolada dastlabki umumlashtirish yuzaga keladiki, bu narsa bolaning oddiy masalalarni echishda imkon beradi. Shu tariqa tafakkurning eng sodda formasi bolaning narsa buyumlaridan foydalanish faoliyati bilan bog'langan vositani amaliy tafakkurni paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tasavvurlari doirasi kengayishi va bilimning oshishi uning aqliy faoliyatini xarakterini o'zgartiradi. Nutqning o'sish faoliyatining kengayishi yangi tafakkur formalari uchun sharoit ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi 5-6 yashar bola tassavvurlaydi keyin esa muxokama qiladi, umumlashtiradi. Shu yoshdagi bolaning tafakkuri konkret obrazli emotsiyonal va yaqqol tafakkur bo'ladi. Muxokama bevosita narsa buyum bilan bog'langan. Bola umumlashtirilgan tushunchalarni o'zlashtiradi fikr yuritish operatsiyalari faqat idrok etishgina emas xayolga ham asoslandi.

Dastlabki (garchi mukammal bo'lmasa ham) xukumlar, xulosa chiqarish va yakun yasash paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolaning katta yoshli qilish va ularga taqlid qilib mustaqil ravishda xulosalar chiqarishda va umumlashtirida. Bolaning nutqi kattalar bilan aloqa qilish va o'zaro munosabatlarini darajasining kengayishi natijasida rivojiana beradi. 7-yoshga kirganida og'zaki nutqning grammatik ko'rlishini imlo qoidalarini egallahda bu xollardan og'zaki nutqda foydalaniladi. Bola 6 yoshga kirganida tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishadi ular til xissi tarkib topadi ularning nutqi tobora rivojiana boradi. Bola faol nutqining o'sishi bolalik davrining muhim tomonidir. Bola dastlab (1 yosh u 6 oygacha) katalarning nutqini tushuna boradi. Undan keyin esa shu tushunish asosida bolaning faol nutqi tobora o'sadi. Hayotning 2- yilida bola kattalarning narsa nomlari bilan bog'liq bo'lган hamma so'zlarni tushunadi. Bolaning nutqi tobora tusha borishi uning xulq atvoriga so'z yordamida raxbarlik qilishiga imkon beradi.

3 yashar bolada xulq atvorining asosiy qoidalari faqat taxlid yo'li bilangina emas balki kattalarning og'zaki ko'satmalari yordami bilan ham vujudga keladi.

Dastlab bola bir bo'g'inli gaplarda so'ngra esa 2-3 bo'g'inli gaplardan foydalanadi. Bola hayotining 3-yoshli oxiriga kelib uning so'zlashuv leksikasida bog'cha so'z turumlariga tarkibiga kiradigan bu so'z uchraydi. Bolalar kattalarning gapini eshitishni yaxshi ko'radi, kichik-kichik she'r, xikoyalarni esda saqlashadi, bu uning nutqini o'stirishda yordam qiladi. O'sib borayotgan nutq barcha psixik jarayonlarga - xotira, taffakkur, xayol va shunga o'xshashlarga katta ta'sir ko'rsatadi. 3-yoshdagi bolalar kattalar bilan birgalikda suratlar ko'rib chiqishni va suratlar asosida aytildigan xikoyalarni eshitishni sevadi. Maktabgacha yoshdagi kichik bolaga (1-

yoshdan 5-yoshgacha bo'llgan bolada) xos beixtiyor (ixtiyorsiz) esda qoldirish xususiyati maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolada tobora ixtiyoriy (ataylab) esda qoldirishga aylana beradi. Bolaning tiklovchi xayoli o'sadi, so'ngra ijldiy xayol paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning xayoli etarli darajada kuchli taraqqiy etganligi sabali ko'pgina xayoldagi narsa bilan xaqiqiy narsani aralshtirib yuborishadi. Bolalar idrokning faol ravishda rivojlanishining, tevarak atrofdagi muhitga qiziqishining olib borishi tufayli uning ixtiyoriy diqqati jadallik bilan tarkib topadi. Kattalarning ta'siri va uning tarkiblari bilan faoliyat jarayonida maktabgacha tarbiya yoshdagi 5-6 yashar katta bolalar endi shaxsga xos ba'zi bir barqaror sifatli xulq-atvorning ba'zi tarkib topgan formalarini ko'rindi. Bo' yoshdagi katta bolalarda dastlabki aqliy tassavvur ham o'sa boradi. Maktabgacha tarbiya darida bolaning ijtimoiy, aqliy va axloqiy kamol toptirish uchun maktabda o'qishga tayyorlaydi. Bolalarni sistemali TA'LIM olishga psixologik jixatdan tayyorlash, ularda o'qishga xavas bilim olishga intilish bolalar muassasalarida ham oilada ham maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolalarda o'quvchi bo'lish, o'qiy boshlash va o'zi uchun yangi hayotga o'quvchi bola hayotiga qo'shilish istagi namayon bo'ladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Chaqaloqlik davrining asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. L.S.Vigotskiy «Go'daklik davri» asarida bolalarning qanday xususiyatlari xaqida yozgan?
3. Go'daklik davrida bolalar qanday psixik xususiyatlarni egallaydi?
4. Go'daklik davrida bolalar nutqida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
5. Go'daklik davrida bolalarning idrokida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
6. Go'daklik davrida bolalar tafakkuridagi o'zgarishlarning sabablari nimalardan iborat?
1. Ilk bolalik davrida bolaning psixik o'sishi nimalardan iborat?
2. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyotni xarakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat?
3. Ilk bolalik davrida sodir bo'ladigan o'zgarishlar?
4. Ilk bolalik davrida shaxslararo munosabat xususiyatlari?
5. Ilk bolalik davrida bilish jarayonlarida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

Foydalilanildigan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.:O'zbekiston nashriyoti, 2011y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2008y.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
- 2.Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
- 3.Rubinshteyn S.L. Osnovo' obhey psixologii. SPb: Piter, 2007.
- 4.G'oziev e.G'. "Ontogenet psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010.
- 5.Dusmuxamedova Sh.A.,Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh. K., Alimbaeva Sh.T. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2013 .

6. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. “Psixologik xizmat”.T. “Fan va texnologiyalar” nashriyoti 2014 y.

Elektron ta’lim resurslari

- 1.www.childpsy.ru
- 2.www.edu.uz
- 3.www.flogiston.ru
- 4.www.pedagog.uz
- 5.www.psychology.uz

3-mavzu. MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Asosiy savollar

- 3.1. .Maktabgacha yosh davrda psixofiziologik taraqqiyotning umumiyl tavsifi.
- 3.2. O’yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida.
- 3.3. Maktabgacha yosh davrda bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar.
- 3.4. Maktabgacha yosh davrda ijtimoiy emostiyalarning shakllanishi.
- 3.5. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi.

Darsning maqsadi:

Maktabgacha yosh davrda psixofiziologik taraqqiyotning umumiyl tavsifi. O’yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida. Maktabgacha yosh davrda bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. Maktabgacha yosh davrda ijtimoiy emostiyalarning shakllanishi. Maktabga psixologik tayyorlik muammolarini ochish.

Kalit so’zlar

Maktabgacha davri, shaxs, irodaviy sifatlar, syujetli - rolli o’yinlar, psixik jarayon, umumiyl taraqqiyot.

1.Maktabgacha yosh davrda psixofiziologik taraqqiyotning umumiyl tavsifi. Brinchi savolning bayoni

3.1. 3-7 yoshgacha bo’lgan davr maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o’zgarishlari bo’lishini inobatga olgan xolda 3 davrga (3-4yosh) kichik maktabgacha davri, (4-5yosh) kichik bog’cha yoshi, o’rta maktabgacha davr(o’rta bog’cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog’cha yoshlilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o’tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi .Bola insoniyat ko’lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o’zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o’sib borishi, katta yoshli

kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi hususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatinining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzlusiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so'zlardan bog'cha yoshidagi bola tabiatining asosiy qonuni bo'lmish serharakatliligini ortiqcha cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko'rinish turibdi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola ahloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning harakati muvofiklashtirilgan xolda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojiana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustaxkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos hususiyatdir.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, uynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bu davrda bolalarda hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olish Maktabgacha yoshdagagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'lik bo'lgan murakkab psixik xodisa desa bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning etakchi faoliyati bu o'yindir. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning o'zin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmokda. Maktabgacha yoshdagagi bolalar o'zlarining o'zin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdagagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterlik bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan o'zining kuchi ham etmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning xozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rindi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (yahni analogik tarzda) har xil hayoliy narsalarni uylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'zin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini talab qilayotgan narsalarni ham aks ettiradilar.

3.2. Bolalarning o'zin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning

ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy, yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib hususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylit harakteriga ega bo'ladi. Bunda bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolgiz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlarini doirasi juda cheklangan kichik yoshdagি bolalar (bahzan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, oyisini, adasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). O'rta, katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylit harakteriga ega bo'la boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharok qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, yahni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagи bolalar odatda o'zları yolgiz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorlik o'yinlar orqali bu yoshdagи bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli, rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zları har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti -harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoaviy harakterni ola boshlaydi.

Bolalarning individual hususiyatlarini, xususan ularning jamoaviy o'yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o'yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko'proq o'zaro munosabatlarini aks ettiradilar. Shuningdek, jamoaviy o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar.

Katta maktabgacha yoshda syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, lekin endi bu o'yinlar o'z mazusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda liderlik yuzaga kela boshlaydi, shuningdek tashqilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagи bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy sanhatning ham ahamiyati juda katta. Bolaning tasavvur etish xarakteriga qarab uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur hususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy xolatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Bog'cha yoshdagи bolalar rasm chizishga ham nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagи bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvafaqqiyatga erishish shakllanadi va mustaxkamlanadi.

Katta maktabgacha yoshda konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O'yinda bola elementar mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning Maktabgacha yoshdagи bolalarning o'yin faoliyatları xaqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchoqlari masalasiga ham to'xtab o'tish

kerak. Bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh hususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko'prok nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, 1-3 yosh bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirganlar. Ular hali hattoki narsalarning rangini, hajmini va boshqa jihatlarini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga ko'g'irchok bilan birga har xil rangli qiyqim, laxtak matolar ham berish kerak. Ayniksa, qiz bolalar o'z kug'irchoqlarini har xil rangli matolarga o'rav, ro'mol qilib o'ratib mashq qiladilar. O'g'il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig'adigan quticha o'yinchoqlarni berish foydalidir.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan tahlim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo etarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola o'yin faoliyati orqali erishadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, hayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni xali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o'yinchoqlar berish lozim. Bu yoshdagagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ko'zga yaxshi tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qilmaydilar.

Diqqat har kanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati ham benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyda to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga qo'yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatları uchun kandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar koldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib koladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o'sishi o'ziga xos hususiyatga ega. Tafakkur bolaning Bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojiana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Odatda har kanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Juda ko'p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar ham bolalar ortiqrok savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding», deb jerkib tashlaydilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ammo ayrim passiv va tortinchoq bolalar xech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har kanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayoxatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar va analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar.

Maktabgacha yoshdagি bolalar nutqi va uning o'sishi jadal kechadi. Agar 2 yashar bolaning so'z zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z zapasi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning so'z zapasi 4000 taga etadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham mikdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqini o'sishi oilaning madaniy saviyasiga bog'liq. Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalar bahzi xollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham xali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng birinchi shartlaridan biri bola bilan tula va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo'lib ularning ta'lim –tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga harakat hususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.

Maktabgacha yoshdagи davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu – bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lган motivlardir. Bu motivlarga asta –sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egalash bilan bog'liq bo'lган o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini ko'rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi

Kichik va o'rtalik maktabgacha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan bolalarning kattalar harakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab bolada ahamiyatli hisoblangan –iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy hususiyatlar rivojiana boshlaydi. Katta maktabgacha yoshda bola atrofdagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o'rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagи bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota –onalari xaqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning hayoli, asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Birok, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda hayol qilish qobiliyati bo'limganda edi, ularning hayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarning hayollari turli xil mashgulotlarda ham o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalar hayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi

omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar xayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabat yuzaga keladi

3.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuygular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuygulari ular organik ehtiyojlarining kondirilishi va kondirilmasligi bilan bog'likdir. Bu ehtiyojlarining kondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yokimsiz), norozilik, iztiroblanish tuygularini qo'zg'aydi. Katta maktabgacha yoshidagi bolalarda burch hissi – nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashlari bilan ahloqiy tasavvurlari o'rtasida bog'liklik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mammunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yanlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Bolaning maktabda muvaffakiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'lik. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning ogirligi oyiga 150- 200 gm dan buyi esa 0,5 sm dan ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda yura oladilar, tez va engil yugura oladilar. Ular yugurib kelib sakrash, kong'kida yugurish, changida uchish, so'zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa buyicha mashgulotlarda ham bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashklarni ham anik, tez, engil va chakkon bajara oladilar.

Bolaning maktabda muvaffakiyatli o'qishi nafaqat uning akliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyogarligiga ham bog'lik. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatları va xuquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish soxalari so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlashin obrazlilikdan to simvollilikgacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deganda bolalarning turli obrazlarni yaratish, ularni o'zgartirish va ularni erkin harakatga solish, simvollilik deganda esa belgilar sistemasi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqoti asosan bolalarning konstrukturlik o'yinlarda, texnik va badiiy ijodlarida namayon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarning birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez persentiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va xolatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushurishning ichki va tashqi to'zilmasini bog'lay olishda ko'rindi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiylar jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol nomoyon bo'ladi. Shuning asosida insoniy intelekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat hisoblanadi. Bilish jarayonlarning sintezi bolaning o'z ona tilisini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar axloqiy norma va qoidalar egalaniladi. Bu norma va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

3.4. Bola va atrofidagi kishilar orasida xil munosabatlar yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bo'larning hammasi bolaning individualligini tashqil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intelekti balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojining cho'qqisi bo'lib, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'z-o'zini anglash hissining yuzaga kelgani hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

- 1.Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti
- 2.Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinining psixologik hususiyatlari
- 3.Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi
- 4.Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi
- 5.Maktabga psixologik tayyorgarlik

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.:O'zbekiston nashriyoti, 2011y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2008y.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
- 2.Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
- 3.Rubinshteyn S.L. Osnovo' obhey psixologii. SPb: Piter, 2007.
- 4.G'oziev e.G'. "Ontogenet psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010.
- 5.Dusmuxamedova Sh.A.,Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh. K., Alimbaeva Sh.T. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2013 .
6. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. "Psixologik xizmat".T. "Fan va texnologiyalar" nashriyoti 2014 y.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.childpsy.ru
- 2.www.edu.uz
- 3.www.flogiston.ru
- 4.www.pedagog.uz
- 5.www.psychology.uz
- 6.www.psychology.net.ru

4-mavzu. KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Asosiy savollar

- 4.1..Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi.
- 4.2.Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashish muammosi.

- 4.3.Kichik mакtab yoshi davrida kognitiv-affektiv sohalaridagi rivojlanish xususiyatlari.
- 4.4.Kichik mакtab yoshi davrida motivastion sohalardagi rivojlanish xususiyatlari.
- 4.5.Kichik mакtab yoshidagi bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari.

Darsning maqsadi:

Kichik mакtab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiyo tavsifi. Kichik mакtab yoshidagi bolaning mакtabga moslashish muammosi. Kichik mакtab yoshi davrida kognitiv-affektiv sohalaridagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik mакtab yoshi davrida motivastion sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik mакtab yoshidagi bola shaxsining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish

Kalit so'zlar:

Idrok, Diqqat, Bolalar xotirasi, O'yin faoliyati, O'qish faoliyati

1.Kichik mакtab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiyo tavsifi.

Brinch savolning bayoni

4.1. Bolalarning kichik mакtab yoshidagi davri 7 yoshidan 11 yoshgacha boshlang'ich sinflarda o'qishi yillariga to'g'ri keladi. Bog'cha yoshidagi bolalik davri tugadi. Mакtabga kelish oldidin bola quyidagiga ko'ra o'z hayotini eng muhim davriga ya'ni mакtab davriga tomonida qo'yiladigan turli tuman talablarni bajarishga boshqacha qilib aytganda ta'lim olishga xali jismoniy ham psixologik jihatidan tayyor bo'ladi. Bola rasm chizish mashg'ulotlarida melg' yoki plastinkadan narsa yasash ishlarida va eng oddiy ko'rish yasash mashg'ulotlarida yaqqol namayon bo'ladi. Bola o'z diqqatini boshqarishda o'z diqqatini mustaqil tashkil qilishida bir muncha tajriba xosil qilgan bo'ladi. 7 yosh bolaning so'z xonasi ham etarli darajada boy va mavhum tushunchalar miqdori ancha yuksak bo'ladi. Bola eshitganlarini etarli darajda keng tushunadi. Mutaxxassislarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha yaxshi tashkil qilingan ta'lim 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantiradi. Ular sodda mashqlar va masalalarni tuza oladigan hamda echa oladigan bo'ladi. Ularda burch hissi va javobgarlik hissi endigina namayon bo'la boshlaydi. 7 yoshli bola o'z hissiyotlarini boshqarish tajribasini ega bo'larningt hammasi mакtab ta'limiga tayyorgarligi muhim shartlaridan biri yuqorida aytganlarining hammasi bolaning mакtab psixologiyasi jihatidan tayyor ekanligi obhektiv tamoyillarga maquldir. Boshlang'ich sinflarda pedagog ishlarni tashqil qilishda kichik mакtab yoshidagi bolalarning anatomik fiziologik hususiyatlarini ijtimoiy taraqqiyot darajasini ham hisobga olish lozim.

D.N. Levitov to'g'ri qayd qilib o'tganidek xech bir mакtab yoshida salomatlik xolatiga va ijtimoy taraqqiyotiga kichik mакtab yoshidagi maxkam bog'liq bo'lmaydi. Bola 7 yoshdan 11 yoshgacha jismoniy jihatdan nisbatan osoyishta va bir tekisda rivojlanadi. Bo'yi va og'irligi organizmning tiniqligi o'pkasining hayotiy xajmi ancha tekis va propalg'sional rivojlanadi

Psixolog L.S.Slavinaning ko'rsatishicha boshlangich sinfda bilish faolligi etarli darajada bo'lмаган bolalar uchrashi mumkin.

Bunday bolalar intiluvchan jihatidan normal rivojlangan bo'ladi. Bu rivojlanish ularning o'yin va amaliy faoliyatlarida namayon bo'ladi. Faol fikr qilish ular uchun

harakterlidir. Bunday o'quvchilariga o'qituvchida aloxida diqqat bilan qarashi kerak. Ularning fikr qilishi faoliyatiga odatlantirib ularni yutuqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi dastlabki paytlarda o'quv vazifalarini bajarishni o'yin va amaliy faoliyatni bilan bog'lab olib borish kerak.

Muammoli savol: Kichik maktab yoshidagi bolalarning faoliyati etakchi faoliyati nimadan iborat?:

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qaxtiy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir. Birinchidan, o'quvchilar o'qish, yozish, va hisoblash malakasini egallashlarini, arifmetika, ona-tili, tarix, geografiya va tabiyatshunoslikdan geometriyaning elementar asoslaridan ancha katta xajmda bilimni ortirishlari kerak. Ikkinchidan, bolaningsh bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi hamda rivojlanadi. Uchinchidan bilim jarayonlarininng taraqqiyoti, aqliy rivojlanish yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topadi va nixoyat o'qishga bo'lgan yo'nalish o'qishga nisbatan maxsuliyatli munosabat o'qishni yuksak omillarini topishi kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlarini va ularning faoliyatida taraqqiy etishini harakterlab beramiz.

***Idrok.** Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomoshabin tariqasida berilganlik bilan farq qiladi.*

***Diqqat.** Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Kichik maktab yoshida diqqatni ioda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.*

Xotira. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ta'limining ta'siri bilan ikki yo'nalishda rivojlanadi. So'z mantiq xotirasining va mahnosiga tushunib esda olib qolishning rolg'g'i va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasining faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qaraganda konkret ma'lumotlarni, voqeliklarni, qiyofalarni narsalarni va faktlarni yaxshi tez esda olib qoladigan va xotiralarida mustahkam saqlaydilar.

Hayol. Hayol muhim psixik bilish jarayonlaridan biridir. Hayolning faoliyasiz o'qituvchi gapirayotgan va darslarda yozilgan narsalarning tassavvur qilishni hamda ko'rgazmali obrazlar bilan ishslashni bilmay turib, xech qanday o'quv predmetni chinakkam o'zlashtirishi mumkin emas.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining hayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan bir qatorda bevosita taxsurotlar (mo'zey, vistavkalarning borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borishh, maktab er uchastkasida ishslash va boshqalar) ham hayolni rivojlantiradi.

Muammoli savol; Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsining rivojlanishi nimalarga bog'liq bo'ladi?

4.2. Garchi kichik maktab yoshidagi davr shaxsning taraqqiyotida xal qiluvchi siljishlar davri bo'lmasa ham bizning fikrimizcha bunday davr o'smirlik davridir, shunga qaramay, bu davrda shaxsning tarkib topishi etarli darajada sezilarli yuz beradi.

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, maktabga kirish bolaning hayotida burilish momenti hisoblanadi. Kattalar (o'qituvchilar) va tengdoshlari (sinfdoshlari) bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bolaga butun bir jamoaviylar sistemasiga (umum mактаб, sinf) qo'shiladi. O'qituvchi o'z oldiga bir qator jiddiy talablarni qo'ygan o'qishga yangi faoliyat turiga qo'shilish o'quvchining o'z hayotini qatxiy tarzda tashqil qilishga, qoida va rejimga bo'ysunishga majbur qiladi. Bo'larning barchasi tevarak-atrofdagi voqeylekka, boshqa kishilarga, jamoaviyga ta'limga va uning bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarga nisbatan yangi munosabatlar sistemasining tarkib toptirishga va mustahkamlashga qatxiy ravishda ta'sir qiladi harakterni irodani tarkib toptiradi. qiziqishlar doirasini kengaytiradi, qobiliyatlar taraqqiyotini belgilaydi.

Axloqiy normalar va xatti-haraktlar qoidalarini o'zlashtirish kichik mактаб yoshidagi davrda axloqiy xatti-harakat poydevori qo'yiladi, axloqiy normalar va xatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi. Shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Kichik mактаб yoshidagi o'quvchilarinng axloqiy ongлari 1-sinfdan 4-sinfgacha bo'lgan davr mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy bilimlar tasavvurlar va muloxazalari sezilarli darajada boyiydi, ancha anglangan bo'ladi, turli tushunchalarga ega bo'ladi, umumlashadi- 1 va 2 sinf o'quvchilarining axloqiy muloxazalari o'z xatti-harakatlari tajribasida va o'qituvchilar hamda ota-onalarning konkret ko'rsatmalri va tushuntirishlariga asoslanadi. 3-4 sinf o'quvchilari esa axloqiy muloxazalarida o'z xatti-harakatlari tajribasiga va kattalarning ko'rsatmalariga asoslanish bilan boshqa kishilarning tajribalarini ham analiz qilishga intiladilar bunday adabiyotlarni o'qishda bolalar uchun chiqarilgan kinofilg'mlarni ko'rish ancha katta ahamiyat kasb etadi. Axloqiy xatti-harakatlар ham xuddi shunday tarkib topadi. 7-8 yoshdagi bolalar to'g'ridan-to'g'ri kattalarni jumladan, o'qituvchining ko'rsatmalari bilan ijobjiy bo'ladigan ko'rsatmani kutib o'tirmay, bunday ijobjiy axloqiy ishlarining boshidan qanchasini tashabbuslari bilan amalga oshiradilar.

4.3. Harakter. Kichik mактаб yoshidagi bolalarda namayon bo'lgan harakterolg'g'ogik xatti-harakatlarni hamma vaqt ham munosabatlar amalga oshiriladigan barqaror va mustahkam xatti-harakat formalari deb bo'lavermaydi. Kichik mактаб yoshidagi bolalarda harakter jiddiygina tarkib topa boshlaydi. Kichik mактаб yoshidagi bolalar harakteri, xatti-harakatlari o'zining beqarorligi va qarama-qarshiligi bilan farq qilishi mumkin. Shu munosabat bilan ba'zan ulardagи o'tkinchi psixik xolatlarni xato rivishda hislatiga qo'shib yuborish mumkin. N.D.Letovitov bu xatoga shunday bir misol keltiradi. 1-sinf o'qituvchisi o'z o'quvchi qizlaridan birini har qanday ishni oxirigacha etkaza oladigan, qiyinchiliklarni enga oladigan matonatli qiz deb hisoblar edi. Biroq tajribali psixolog tomonidan o'tkazilgan kuzatishdan bu hususiyat ma'lum sharoitdagina maydonga keladigan vaqtinchalik, ya'ni o'tkinchi psixik xolat ekanligi ma'lum bo'ldi. O'quvchi qizdagi xatti-harakatni ko'rganda va dugonasining faoliyati muvaffaqiyatli bo'lganda namayon bo'lgan muvaffaqiyatsizlik qizchani izdan chiqarib qo'ygan.

Qiziqishlar. Mактаб ta'limining dastlabki yillarida qiziqishlar, xususan bilishga bo'lgan qiziqish, tevarak-atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq bilimga bo'lgan tashnalik va intellektual qiziquivchanlik juda sezilarli ravishda rivojlanadi. Psixologlarning tahkidlalariga qaraganda dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olingan yolg'iz xodisalarga nisbatan qiziqishlar bo'ladi. Undan keyin esa sabablarini, qonuniyatlarini, xodisalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqliklarni bilib

olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar 1-2 sinf o'quvchilarini «bu nima?» degen savol qiziqtirsa birmuncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun «nima sababdan», «qanday qilib?» degan savollar tashqil bo'lib qoladit. O'qish malakasini rivojlanishi bilan kitob o'qishga, qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o'qishga, bundan ham so'ngroq qiyin bo'lмаган ilmiy fantastik va sargo'zashtlar xaqidagi kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi. Texnikaga ayniqla, xozirgi zamon texnikasiga, raketalarga, oy stansiyalariga, lunaxodlarga, eng yangi tipdagi avtomobil va samolyotlarga bo'lgan qiziqish tez tarkib topadi. Qishloq mакtablarining 3- 4- sinf o'quvchilari qishloq xo'jaligiga nisbatan sezilarli darajada o'z qiziqishlarini namayon qila boshlaydilar. Shuning uchun o'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga nisbatan munosabatlarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutish zarurdir. Yuqorida aytib o'tilgandek xususan o'qituvchining tegishli baxosi bilan aniqlanadigan bolaning o'qishidagi o'z muvaffaqiyatlarini, qo'lga kiritgan yutuqlarini ichdan his qilish katta hususiyatga egadir.

Badiiy-estetik rivojlanish. Kichik maktab yoshidagi davrda bolalar badiiy-estetik rivojlanishda katta imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bolalar odatda rasm chizishga, loy yoki plastilindan narsa yasash ishlariga, ashula aytish va mo'zikaga juda qiziqadilar. Bunday faoliyatni to'g'ri tadqiq qilish bir tomondan bolalarga estetik hislarning rivojlanishiga yordam beradi, ikkinchi tomondan tegishli qobiliyat komponentlarining rivojlanishiga uchun shart-sharoit yaratadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Biroq shuni takidlab o'tish lozimki, har qanday mehnat ham shaxsda ijtimoiy jihatdan qimmatli hislatlarini tarbiyalayvermaydi. Mehnat o'z shaxsiy manfaati uchun bajonudil va ko'p mehnat qilishga bo'lgan xudbinni ham tarbiyalaydi.

Bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga xususan zo'r ehtibor berish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lgan ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir.

4.4. O'quv faoliyati kichik maktab eshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jaraenlarining yukori darajada rivojlanishi .balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki etakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashkari boshka faoliyatlar-uyin, muloqot va mehnat faoliyatit ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir kursatiadi. Shuningdek bu faoliyatlar asosida muvafakkiyatga erishish motivlari bilan boglik bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuklarga erishish extiyojini kondirishga ,shuningdek tengdoshlari orasida uz urniga ega bulishiga imkoniyat ham yaratadi.Aynan ana shu urin yoki mavkega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun xarakat kilishi mumkin.Bu yoshdangi bolalar doimiy ravishda uzlari erishgan muvafakkiyatini boshka tengdoshlari muvafakkiyati bilan solishtiradilar.Ular uchun doimo birinchi bulish nixoyatda muxim .Kichik maktab davrida bolalardagi musobakaga kirishish motivi tabiiy psixologik extiyoj hisblanib bu motiv ularga kuchli emotsiyonal zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yakkol kuzga tashlanadi.Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u xakidaga fikr va baxolariga karab uzlari baxo beradilar.O'quvchining uziga uzi

beradigan baxosi asosan tugridan tugri o'qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffakiyatlariga boglik. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda uz uziga beradigan baxolari turlicha –yukori , adekvat,past bulishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lган ishonuvchanlik, ochiklik, tashki ta'sirlarga beriluvchanlik,itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffakkiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffakkiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir katorda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik asosan o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada uz kilayotgan mehnati unga zavk bergen takdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xusuiyatining shakllanishi asosan kattalarga boglik. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochik xususiyatlari bulsa unda asta sekinlik bilan buysinuvchanlik mustaqil bo'la olmaslik xususiyati mustahkamlana boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikga undash unda qulqosizlik yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va hayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taklid qilgan xolda uzlashtiradi Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki,unda bolaga biron bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lidi deb his qilsin Ana shu his bolada mustaqil bulishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

7-11 yoshli davrda bolalar o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Bolani uz-uzini anglashi ham jadal rivojlnana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniksa qizlar o'zlarining yuz-tuzilishlariga alovida e'tibor bera boshlaydilar. Kichik maktab yoshdagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'zidagi xulq-atvorni va faoliyatni o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli rivishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtrishiga, hamda bilim olish jarayoniga bo'lган qiziqishining qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulk-atvorining motivlashtirishi ham o'zgaradi. Bunda o'rtoqlar va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his-tuygular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi.

5-6 yoshli davrida bolalarning ko'zga tashlangan xususiyatlari 4 yil davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi hamda o'smirlik davrining boshlariga kelib juda ko'p shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilish jarayonida ham ko'rindi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ko'pchilib boalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yosh davrida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lган muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi.

Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lif berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishishi mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o'rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta'lif-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz xolda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi. Bu narsa ana shuning uchun muhimdirki, birinchi sinf o'quvchilarining mehnat faoliyatida shaxsiy motivlar aniq namayon bo'ladi. Birinchi sinf o'quvchisi o'zi uchun zarur bo'lgan narsani katta qunt bilan berilib tayyorlaydi. Boshqalar uchun ishslashga esa, unda xali tajriba yo'q.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Kichik maktab yoshidagi bolaning etakchi faoliyati qaysi?
2. Kichik maktab davri qaysi yoshlarga to'g'ri keladi?
3. Kichik maktab yoshida bilish jarayonlarida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
4. Kichik maktab yoshidagi bolaning harakteri nimalar ta'sirida shakllanadi?
5. Kichik maktab yoshidagi bolaning qiziqishlari qanday harakter kasb etadi?

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova
Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
- 4.G`oziyev E.G. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

Elektron TA'LIM resurslari

- 1.www.childpsy.ru
- 2.www.edu.uz
- 3.www.flogiston.ru
- 4.www.pedagog.uz
- 5.www.psychology.uz
- 6.www.psychology.net.ru
- 7.www.psycatalog.ru

5-mavzu: O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Asosiy savollar:

- 5.1. O'smir organizmining qayta qurilishi.
- 5.2. O'smirlik yoshidagi inqiroz muammosiga nazariy yondashish.
- 5.3. O'smirlikda yuzaga keluvchi “kattalik hissi” asosiy psixologik o'zgarish sifatida.
- 5.4. O'smir va kattalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning asosiy sabablarini o'rganish

Darsning maqsadi:

O'smir organizmining qayta qurilishi. .O'smirlik yoshidagi inqiroz muammosiga nazariy yondashish. .O'smirlikda yuzaga keluvchi “kattalik hissi” asosiy psixologik o'zgarish sifatida. O'smir va kattalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning asosiy sabablarini o'rganish

Kalit so'zlar:

o'smirlik davri, etaklovchi faoliyat, aktseliratsiya, o'smirlik davrida jinsiy etilish, ichki sekretsiya bezlari, o'smirlik davridagi kechinmalar. O'smir shaxsning xususiyalari, tarbiyasi qiyin bolalar.

1. O'smir organizmining qayta qurilishi.

Birinchi savolning bayoni:

- 5.1. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tishi, asosan, 5- sinflardan boshlanadi. “Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas” bu ta'rif o'smirlik davriniig muhim harakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy etilishniig boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarning mukammal rivojlanishi va o'sishi, xujayra va organizm tuzilmalarning qaytadan shakllana boshlashidir.

Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funktsiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o'sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri o'zining taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakillanmagani,

hissiyotga beriluvchanligi, mardligi, tantiliyi bilan farqlanadi. Bu o'smirlarga xos xususiyatdir. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il- qizlarga alohida e'tibor berish talab qilinadi.

O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy xususiyatida ham burilishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va uslublari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qonikmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi hakidagi mayjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiy lashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin.

Ana shunga o'xshash o'zgarishlar ko'pincha o'smir ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U tajangroq, ba'zida huda-behudaga injiqlik qiladigan, serzarda, gap ko'tarmas bo'lib qoladi.

O'smirlilik davrida etakchi faoliyat- bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlilik davri muloqotining asosiy vazifasi bu – do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar qoidalarni aniqlash va egallashdir.

O'smirda psixik jarayonlarning keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarda, o'quvchi bilan o'qituvchi muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo'ladi, bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi, yangi axborotlar, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi.

Butun a'zolarida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Unda o'pka, yurak, jigar, taloq, buyrak hajmlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishi ham o'zgaradi.

Kattalarning o'smir yoshidagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit bu- mehnat bilan shug'ullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rinaliga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Endi o'smirlar o'yin faoliyatiga kamroq vaqtlarini ajratgan xolda ko'prok jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularning bilish jarayonlari jadal rivojlna boshlaydi.

O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qaramaqarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib topdirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin.

O'smir o'quvchi ruhiy dunyosida paydo bo'ladigan bunday holatlar balog'at davri o'tishi bilan bir me'yorga kelib qoladi. Lekin farzand o'stirayotgan har bir ota-onan bolaning o'sishi to'g'risida, uning o'ziga xos xususiyati haqida zarur tushunchaga ega bo'lsalar foydadan holi bo'lmaidi, albatta.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, bu yoshdagagi o'smirlar o'ta ta'sirchan, ayniqsa tashqi ta'sirga, tashqi voqealarga beriluvchan bo'ladilar. Ishqiy kitoblar o'qish, shunga o'xshash kinofilmarni tomosha qilishga juda qiziqadilar. O'zlarining tashqi qiyofalariga ko'prok e'tibor bera boshlaydilar. O'g'il bolalarda soch qo'yish, durustroq kiyinish ishtiyoqi tug'iladi, qizlar esa oynaga ko'prok qaraydigan bo'lib qoladilar. Ular

o'zlariga oro berishni, malikalarday go'zal ko'rinishni istaydilar, orasta ko'rinishga urinadilar. Bu tabiiy holdir.

Yuqori sinf o'quvchilari o'zlarining ma'naviy xususiyatlari bilan boshqa yoshdag'i bolalardan keskin farq qiladilar. Ular ham jinsiy, ham jismoniy, ham aqliy jihatdan etilgan bo'ladi. Shu tufayli ular vazmin tabiatli, mulohazali, kattalarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar.

Ota-onalar farzandlar bilan muomala qilishda ularning shaxsiy xususiyatlari, yosh davrlari hislatlarini hisobga olgan holda ish tutsalar, oilada O'zaro tushunish, totuvlik, hamjihatlik, umuman yaxshi ma'naviy vaziyat vujudga keladi. Otaning onaga yoki onaning otaga qilgan munosabatlari ham shu vaziyat shart-sharoitlariga mos tushishi kerak. Chunki ota-onaning o'zaro totuv hayot kechirishlari, inoq va barqaror, mustahkam oilaning bosh omilidir. O'smir organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar bola rivojlanishining ayni shu davrida biologik, fiziologik etukligi borasida amalga oshadi. Fiziologik rivojlanish va jinsiy balog'atga etishishi jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik yoshida qizlar va ug'il bolalarning jismoniy qiyofasida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrning boshlanishida qizlar o'g'il bolarga nisbatan tezroq rivojlanadilar. Bu narsa qiz bolalarning ertaroq jinsiy balog'atga etishishiga bog'liqdir. VII-VIII sinflarda o'g'il bolalar tez o'sib, qiz bolalar bilan tenglashib oladilar. 9-10 sinfga o'tganlarida bu bosqich o'g'il bolalarda yuqorilab ketadi. Qizlar 14 yoshda, o'g'il bolalar 15 yoshda balog'atga etadilar. O'smirlik davrida o'g'il bolalarning bo'yi 25-30 sm, qiz balalarniki 18-20 sm o'sadi.

O'smirlik yoshining 2- davrida yuz suyaklari, ayniqsa uning o'rta qismi (burun, yuqori jag', yonoq) juda tez shakillana boshlaydi. Og'iz bo'shlig'i va xalqum o'zgaradi, bo'g'izda ham o'zgarish ro'y beradi: Ovoz paylari uzayadi va ko'payadi. Natijada o'smirlearning ayniqsa, o'g'il bolalarning ovozi yo'g'on va past bo'lib qoladi. «Ovozning buzili-

shi » yosh bolalarga xos o'tkir, jaranglagan ovozning nisbatan past kattalarga xos ovoz bilan almashinishidir. Qiz bolalarning ovozi o'g'il bolalarnikidek keskin o'zgarmaydi, shunday bo'lsa ham qizchalarga xos o'tkir, jaranglagan ovoz asta - sekin, tekis va nozik salgina pasaygan ovoziga o'z o'mini beradi.

O'smirlik yoshida muskul tizimining o'sishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Muskullar tez o'sib, mustahkamlanib borsada, lekin oyoq va qo'l suyaklarining o'sishidan orqada qoladi. Natijada o'smir gavdasi nomutanosisib, harakatlari, yurishi notejis, beso'naqay bo'ladi, oyoqlar uzun, muskullar nozik bo'lganidan o'smir yurishidagi beso'naqaylik ko'zga tashlanib turadi.

Qo'l-oyoq o'sib, xatto ota-onaning ko'ziga beso'naqay ko'rindi. Shunday paytlarda ayrim ota-onalar boladagi bu o'zgarishni kuzatib, uning yurish-turishiga razm solish, so'ng to'g'ri muomala qilish o'rniga gohida, « Ey muncha qo'pol, beo'xshov bo'lib ketayapsan, xech narsaga qovushmaysan » deb uni ranjitib qo'yadilar.

Ko'krak qafasi tananing bo'yga o'sishiga nisbatan sekinroq o'sadi. Natijada o'smir ko'kragi tor bo'ladi. Bu esa o'z navbatida muayyan darajada kislrorodga ko'prok ehtiyoj sezdiradi. Kislrorodga ehtiyoj o'smirning psixik faoliyatiga ta'sir etib, miya muskul sistemasidan farqli ravishda kislrorodni bir necha marta ko'p is'temol qiladi.

Yurak va qon aylanish tizimining o'sishiga nisbatan o'ziga xos xarakterga ega. O'smirlik yoshining ,birinchi davridayoq yurak o'sib borishining hamma tsikllari

asosan tugallangan bo'ladi. Qon aylanish sistemasi yurak o'sishidan birmuncha orqada qoladi. Natijada u o'smirlarda, ayniqsa qizlarda yurak urish tartibi buziladi.

Miya va asab tizimining o'sishi 13-18 yoshlarda takomillashadi. O'smirlik yoshining ikkinchi yarmida miyaning eng murakkab psixik jarayonlar sodir bo'ladigan peshona qismida asab tolalari mielinizatsiyalashib bo'ladi.

Bu yoshda xujayralar ichidagi murakkab o'zgarishlar natijasida bosh miya ilon izi chiziqlari asosan shakillanib bo'ladi. Bosh miya pustlog'ining ayrim qismlarini va miya yarim sharlarini birlashtirib turuvchi assotsativ o'zgarishlar o'smirning tez ulg'ayishi va ularning butun psixik hayotining murakkablashuviga asos bo'ladi.

O'smirlik davrida ko'zg'alish jarayoni tormozlanishga nisbatan kuchliroq bo'ladi. O'smirlarning o'zini idora qila olmasligi, muddatliligi, ta'sirlanuvchanligi, qiziqish va havaslarining beqarorligi, faol faoliyatdan birdaniga passivlikka tushishining boyisi ham ko'p jihatdan ana shunda.

O'smirning jismoniy jihatdan o'sishida jinsiy balog'atga etish katta rol o'ynaydi, jinsiy balog'atga etish o'smir organizmi faoliyatida jiddiy o'zgarishlar yasaydi. Jinsiy balog'at natijasida o'smirlarda o'ziga xos psixik holat vujudga keladi. Shuning uchun bu davrda maktab va oilada ta'lim- tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, o'smirning yosh fiziologik xususiyatlari xisobga olinmasa, uning xulq atvorigagi salbiy sifatlar ortib borib, bola xarakterining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va keyingi hayoti davomida ham o'zgartirish qiyin bo'lgan chuqur iz qoldirishi mumkin.

5.2. O'smirlik yoshidagi inqiroz muammosiga nazariy yondashish.

Ikkinchi savolning bayoni:

O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnnini topa olmagan holatda bo'ladi. (o'smirlik davri «*o'tish davri*», «*Krizis davri*» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan harakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladigan davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni «*psixik rivojlanishdagi krizis*» deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy etilishniig boshlanishi bilai izohlab bo'lmaydi.

Jinsiy etilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmasliq, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos. O'qituvchilar, tarbiyachilar, sind rahbarlari dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy etilish organizmning jismoniy taraqqiyotga ta'sir qilishdan tashqari o'smirning psixik taraqqiyotiga ham albatta ta'sir qiladi. O'smirlarda jinsiy etilish munosabati bilan shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan va qandaydir ma'noda ular uchun kutilmagan jinsiy moyillik va tegishli fikrlar, xislardan, kechinmalar, qarama-

qarshi jinsga spetsifik qiziqish, ma'lum mazmundagi kitoblarga, kinofilmlarga, kattalarning gaplariga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi mutlaqo zarur, tabiiy va me'yoriy holdir.

Jinsiy tarbiyaning muhim vositalaridan biri o'smirlar diqqatini odamlar o'rtasidagi intilish munosabatlar doirasidan boshqa ob'ektlarga ko'chirishdir. Bu o'smirlar diqqatining jinsiy kechinmalar ustida to'rejaishini ozaytiradi.

5.3. O'smirlikda yuzaga keluvchi "kattalik hissi" asosiy psixologik o'zgarish sifatida

O'smirning faoliyati asosan o'qish faoliyatidan iborat bo'lib, u maktab doirasi bilan cheklanadi. Ijtimoiy faoliyati ham odatda maktab ichida ro'y beradi. Katta maktab yoshidagigi o'quvchi esa boshqacharoq bo'ladi. Uning ijtimoiy faoliyati ko'pincha maktab doirasidan tashqariga chiqadi, yukorida aytib o'tilganidek, u odatda maktabda tashkilotchilik, raxbarlik va tarbiyaviy funktsiyalarini bajaradi. Uning jamiyatdagi mavqeい keskin ravishda o'zgaradi va shaxsning shakllanishiga ta'sir etadi. Shu ta'sirlar ostida shaxsning g'oyaviy shakllanishidan iborat chuqr jarayon, uning o'z taqdirini o'zi belgilaydi. Bu davrda shaxsning taraqqiyotiga kattalarning raxbarlik qilishi kerak,bular uchun raxbarlik juda zarur bo'ladi. Lekin raxbarlik moxirona, juda ustalik bilan olib borilishi kerak.

O'smir bilan, katta maktab yoshidagi o'quvchining o'z-o'zini anglashi bir-biridan farq qiladi. O'smirda o'z-o'zini anglashning rivojlanishiga boshqa kishilarning fikrlari ta'sir etadi. Tabiiyki, uning o'z-o'ziga baxo berishi ham ancha ob'ektiv bo'ladi, chunki u tevarak-atrofdagilarning ob'ektiv baxosini takrorlaydi. Bunday xol katta maktab yoshidagi o'quvchida boshqacharoq bo'ladi. Yoshning o'sishi bilan unda o'z shaxsini, o'z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil taxlil qilish va baxo berish tendentsiyasi kuchayadi. O'z-o'ziga baxo berish esa tashqaridan berilgan baxoni anglashdan ko'ra qiyinroqdir.

Shuning uchun yigit va kizlar ko'pincha o'z shaxslariga ortiqcha baxo beradilar, g'ayri-tabiiy manmanlik, kekkayish, takabburlik, kibrilanish xollariga yo'l qo'yadilar, tevarak-atrofdagi kishilarga mensimasdan munosabatda bo'ladilar; boshqalar esa o'zlariga g'ayri tabiiy ravishda etarli baxo bermaydilar, o'zlarini "o'rtamiena", "arzimas", "oddiy va ko'zga tashlanmaydigan" odam deb hisoblaydilar.

O'smir o'zining hozirgi ahvoliga muvofik ravishda o'ziga baxo beradi, katta maktab yoshidagi o'quvchi o'zining klajagiga muvofik ravishda o'ziga baxo beradi.O'smir o'ziga :"Men maktab uyushmasining a'zosi sifatida qandayman?" degan savol beradi. O'smir o'zining shaxsiga ayrim ishlar, xatti-harakatlar yoki eng yaxshi damidagi xususiyatlar va belgilarga qarab baxo beradi va bu baxoni umuman shaxsga tadbiq qiladi.

5.4. O'smir va kattalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning asosiy sabablari.

Kattalarga nisbatan yovuz munosabatning paydo bo'lishi, nohush hulq-atvor alomatlari jinsiy etilish tufayli paydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqeい tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan harakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. O'smirlar nihoyatda taklidchan bo'lib, ularda xali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va xissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar.

Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat xollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga karamay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar.

Katta odam, shuningdek chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini qulay his qiladi. Bunday holatlarga o'smir juda tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sish, shuningdek, psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeい o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi.

Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik xolati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu xolat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi deyiladi.

O'smirlik davrida etakchi faoliyat – bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik o'rtokdikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga buysunadi.

O'smirning hayot kechirish tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta'siri.

Kichik yoshdagи o'quvchilardan farqli ravishda o'rta yoshdagи o'quvchilarning hayot kechirish tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Oilada, maktabda va o'quvchilar jamoasida o'smirning mavqeい sezilarli darajada o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. O'smirlarning oila a'zolari bilan ham yangicha munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi.

O'smir shaxsining takomillashuvi va shakillanishiga turtki bo'lган omillardan biri o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishlardir. O'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobjiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'quv motivlari ustuvor bo'lib boradi, lekin o'quv faoliyati motivlari orasida bilish, yangi bilimlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga og'rinib kelib, salbiy xis tuyg'ular va xavotirlik xislarini boshdan kechiradi. Kattalar tomonidan o'smirning yurish turishi, xulqiga javob berish talab qilinadi. O'smirga uning ilgari qondirilib kelinayotgan ehtiyoj va xohishlari endi qondirilmasligi, ularning ko'pidan voz kechish lozimligi uqtiriladi. O'smir qiyinchilik bilan bo'lsada, o'zining yangi mavqeini tushuna boshlaydi, o'z xulqini o'zgartirib unga moslasha boradi.

Maktabda o'smirning mavqeい yanada keskin o'zgaradi. Uni endi bir necha o'qituvchi o'qitadi. O'smir oldida har bir o'qituvchining o'ziga xos metod va usullariga moslashish, ularning talablarini anglab, bilib olish kabi murakkab vazifa turadi. Endi o'smir ko'pgina yangi o'quv fanlarini o'rganib olishi kerak bo'ladi.

O'smirning bolalar jamoasiga bo'lgan munosabati ham murakkablashadi. O'smirga o'zining o'qishi, mehnati va xatti-harakatlariga mas'uliyat bilan qarash jamoat topshiriqlarini aniq bajarish, bilim va ko'nikmalarni egallashda reja bo'yicha sistemali ravishda ko'tarila borish kabi avvalgidan ko'ra jiddiyroq talab quyiladi.

O'smirning oiladagi mavqeining o'zgarishi, maktabda o'qishning yangi sharoiti, bolalarning ijtimoiy hayotida murakkab munosabat-lar o'rta yoshdagi o'quvchilar oldiga ko'pgina yangi talablar qo'yadi va ularning butun psixik hayotida yangi qiyinchiliklar tug'diradi. Avval mustahkam o'mashib qolgan ko'nikma va malakalar yangi hayot kechirish tarziga ko'p jihatdan mos kelavermaydi. Shuning uchun o'smirlarning psixik jihatdan normal hayot kechirishi va o'sishini ta'minlash uchun o'smirlik yoshining o'ziga xos psixologik xususiyatlari e'tiborga olingan ta'lim-tarbiyaviy tadbirilar qo'llanilishi zarur.

O'smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar «krizislar» «tanazzullar» davri ham deb ataydilar. Sababi o'smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro'y beradiki, u bu inqirozni bir tomonidan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomon-dan, o'zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli etmaydi.

Psixologik jihatdan o'sishida uning ruhiyatida keskin burilishlar yuz beradi. Bu ko'rinishlarni biz ularning harakter xususiyatidagi «og'ish» liklarda ko'rishimiz mumkin va bu og'ishliklar ularning xatti-harakatlaridagi «portlash» va aggressiyaga (tajovuzkorlikka) moyil bo'lgan affektiv qo'zg'aluvchanlikdir. Bu holat ko'pincha ijtimoiy adaptatsiyaning (moslashishning) buzilishini, jumladan qonunbuzarlikning sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki affektiv qo'zgaluvchanlik ko'p jihatidan o'mirlik davriga to'g'ri keladi. Bu holat me'yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ endokren sistemaning qayta qurilishi bo'lsa psixologik o'zgarish portlash va aggressiyaga (tajovuzkorlik) moyil bo'lgan affektiv qo'zg'aluvchanlikdir. Bu holat ko'pincha ijtimoiy adaptatsiyaning (moslashishning) buzilishini, jumladan qonunbuzarlikning sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ammo psixik sog'lom atrof muhitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o'smirlarda affektiv qo'zgaluvchanlik adaptatsiyang buzilishiga olib kelmaydi.

O'smir shaxsi xarakteridagi og'ishlarning shakllanishi ularning tiplarini aniqlash, tibbiy psixologik va tibbiy pedagogik ishlarni aktiv olib borish uchun zarurdir.

Hulq - atvori og'ir o'smirlarning shaxsi shakllanishiga ko'pchilik hollarda oilaviy shart-sharoitlar, ota-onaning yoki qarindoshlar-ning ichkilikbozligi, ularning axloqqa zid hulk-atvorlari salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyasi og'ir o'smirlar uchun odatda o'qishga, umum e'tirof etgan qoidalarga nisbatan zid munosabat bo'lib, oxir- oqibatda bu uni sinfiga, maktabga, bilim yurti jamoasiga, qarama- qarshi qilib qo'yadi. Aksariyat hollarda tarbiyasi qiyin o'smirlar- ichki salbiy munosabatlar natijasida maktab jamoasida o'z o'rmini topa olmagan o'quvchilar bo'lib chiqadi. O'smirlik yoshida katta yoshdagilar, ota-onalar va o'qituvchilar bilan kelishmovchiliklar ro'yobga chiqadiki, bu faqat tabiiy o'sish jarayoni bilangina emas, balki, o'smirni katta yoshdagilar va tengdoshlararo munosabatlari o'zgarishi bilan izohlanadi . Tengdoshlar bilan doimiy muloqotga ehtiyojning kuchayishi, o'zligini tasdiqlashga intilish,tengdoshlarining o'zi haqidagi fikr mulohazalariga ta'sirchanlik o'smirlik davriga xos xususiyatlardir.

Psixolog tadqiqotchilar tarbiyasi qiyin o'smirlarning vujudga kelishiga ijtimoiy muhitdan tashqari, pedagogik, psixologik sabablar ham borligini ko'rsatadi. Nazariy mulohazalar analizi, o'smirlarning xatti-harakatlari motivini sistemali o'rganish jarayoni tarbiyada me'yordan chetga og'ish sabablari, xilma-xil ekanligini ko'rsatadi.

Balog'at davrida o'qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o'smirni nazoratsiz qoldirishi, bo'sh vaqtini to'g'ri uyushtirmasligi, o'qishga nisbatan salbiy munosabat, sinf jamoasi bilan aloqani yomonlashuvi, spirtli ichimlikka o'rganish, tajovuzkor, serzardalik tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni o'rganishda ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik sabablar mavjudligini hisobga olish, qonunbuzarlikni kelib chiqish sabablarini diagnostika yordamida aniqlash, tarbiyasi qiyin o'quvchilar shaxsini aniqlash ularning psixologik munosabatlarini inobatga olgan holda tipologiyasini tuzish tipologik xususiyatlarga binoan individual ish olib borish, qonunbuzarlikni oldini olib va tarbiyasi qiyin bolalarni qayta tarbiyalash metodlarini amalga tadbiq qilish, bu muammoni echilishiga yordam beradi.

O'smirlarda o'z- o'zini tarbiyalashga intilish.

Shaxsning ahloqiy jihatdan tarkib topishi, ahloqiy ongning tarkib topishi, xatti - harakatlarining axloqiy - etik tushunchalarini o'zlashtirishi o'smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikasidir.

O'smirlik yoshida faqat jismoniy taraqqiyot yuzaga kelmay, balki bolaning shaxsi ham sezilarli rivojlanadi. Bola shaxsining rivojlanishi tevarak-atrofdagi voqelikning ta'siri ostida maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining ta'sirida jamoa va tarbiyachilarning g'oyaviy rahbarligi ostida amalga oshadi. Ota-onsa va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi anashu yoshda ahloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. O'smirning qanday ahloqiy tajriba orttirishiga, qanday ahloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi.

Lekin xuddi mana shu o'smirlik yoshi ahloqiy jihatdan tez rivojlanish yoshi bo'lganligi tufayli shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'pincha o'smir ongida, tarbiyachi o'quvchi ongiga singdirmoqchi bo'lgan xislatlarga qarama—qarshi unda ahloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin.

O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-harakatlarini anglashdan boshlanadi, undan so'ng o'zlarining ahloqiy sifatlarini, xarakterlarini va o'z qobiliyatlarini anglashdan boshlanadi.

Dastavval ta'lif faoliyatini bajarish bilan bog'liq bo'lgan sifatlar (mehnatsevarlik, matonat, diqqatlilik, tirishqoqlik) angvana boshlanadi. Undan so'ng boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (o'rtoqlik xissi, mehribonlik, vazminlik, qaysarlik xissi) anglanadi. Undan ham keyin o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (kamtarlik, o'z-o'zini tanqid qilish, maqtanchoqlik, takabburlik) anglanadi. Nihoyat, shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarni ifodalovchi murakkab sifatlar (burch xissi, qadr-qimmat va vijdon xissi, maqsadga intilish xissi) anglanadi.

O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psi-xologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va boshqalarning mazmun mohiyati o'zgaradi. O'smir hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik hamda ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. Bu davr-ga kelib bola endi « bola » emas va shu bilan birga hali « katta » ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini baholashi, qadriyatlar tizimi o'zgaradi. Uning uchun o'z «men» i va shu « men »ning ahamiti ortadi. O'smir endi « yosh bola» emas, endi u « katta odam », katta odam esa mustaqil bo'lishi, o'z muammolarini o'zi hal qilishi kerakligini tushunadi. Bu davrda kattalar yordamiga murojat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi va buni o'smirning o'zi ham hohlamaydi. Bu davrda o'smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko'rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o'zlarini erkalab, silab- siypalashlarini «arzimagan narsalar» uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni yoqtirmaydilar. Endi ular atrofdagi-larni hissiy qo'llab-quvvatlashlaridan holiroq bo'lishga o'z muammolarini o'zlar shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko'chada, bog'chada, maktabda yuz bergen voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib, ota-onasidan yordam so'ragan bo'lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak eb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildarmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning « ishlariga» aralashmasliklarini hox-laydilar. Bularning barchasi o'smirlarda kuzatiladigan « kattalik hissi» ning ta'siridir. O'smir tengdoshlari bilan tenglik asosida qilingan muammolar munosabat asosida alohida bir ijtimoiy munosabatlar mifiktabini o'taydi. O'zaro qiziqishlar, atrof dunyonи, bir-birlarini anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatli-dir. O'smir o'z ishlarini, sirlarini endi ota-onalariga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi. U o'z tengdoshlari bilan muloqat va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan to'la namoyon eta oladi. Shaxsiy erkinlikni u katta bo'lish huquqi deb anglaydi. O'smirlar o'zini xurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

Balog'at davrida o'g'il qizlar o'zlarini kattalardek xis etish bilan birga boshqalar ham ularni aqilli, xushli, or-nomusli, katta odam deb hisoblashlarini xohlaydilar. Katta yohdag'i begona kishilarga taqlid qilish odati kuchayadi. Atrofdagilarning nima bilan shug'ullanayotganligi, nimaga e'tibor berayotganligi, o'zlarini qanday tutayotganligiga razm soladilar. Tabiiyki, o'smirda o'ziga yoqib qolgan, ko'ngliga ma'qul tushgan

shaxsday bo'lish havasi tug'iladi. Ammo afsuski, kattalar boladagi ana shunday o'zgarishlarni yo payqamay qolishadi, yoinkim sezishsa ham u narsalarga durust ahamiyat berishmaydi. Kattalar tomonidan o'rinsiz tanbeh berish, kesatish, do'q-po'pisa qilishlar o'smir hissiyotida noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. Mazkur davrda u o'ta ta'sirchan, hamma narsani ko'ngliga yaqin oladigan bo'lib qoladi. Turmush jarayonida ta'lim va tarbiyada buni hisobga olib darkor. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zini kattalardek xis qilayotgan o'smirga biror yumush buyurganda uddalay olishiga ishonch bildirgan yo'sinda « sen endi katta bolasan, bu ish qo'lingdan keladi » kabi so'zlar bilan murojaat qilish uning quvonchiga quvonch qo'shadi.

O'zimiz sezmaganimiz holda o'smir tarbiyasida katta va qo'pol xatoga yo'l qo'yamiz. Bu beparvolik oqibatida zavq-shavqqa to'lib, voyaga etib kelayotgan o'smir noto'g'ri yo'lga kirib ketishi ham mumkin. Negaki, xuddi shu yoshda yaxshidan ko'ra yomon odatlarga berilish mayli unda kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun o'smir bola shaxsiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak.

Shunday qilib, o'smirlik yoshida bolada kattalik hissini tarkib topishida o'z-o'zini anglashning ahamiyati va roli kuchaya boradi. Demak, mana shu davrda bola muhit o'rtasidagi munosabatning yangi tipini belgilovchi taraqqiyotning ichki faktorlari borgan sari ko'proq ahamiyat qozona boshlaydi. O'smir o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini o'stirish orqali mustaqil o'sish qobilyatiga ega bo'lib qoladi.

O'smirlarning bilish jarayonlarini shakllanishi.

O'smirlik davrida asosan bilish jarayoni yuqori darajada rivojlanadi. O'smirning idroki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar idrokidan sifat jihatidan farq qiladi. O'smir voqelikdagi bilish jarayonlarini tashqi tomonlarinigina idrok qilish emas, balki narsa va hodisalarни ancha murakkab tahlil va sintez qilish qobilyatiga ham ega bo'lib qoladi. Ko'rgazmali materialni idrok qilishda o'smirlarda fikrlash jarayoni katta o'rin ola boshlaydi.

Mantiqiy idrok qilish kichik maktab o'quvchilarini idrokidan farq qiladi. O'smirning o'qish jarayonida kuzatish ma'lum maqsadga qaratilgan tashkiliy idrok sifatida katta o'rin egallay boshlaydi, ammo o'smirlik yoshidagi o'quvchilarni mustaqil kuzatish ham hali unga etilmagan va agar o'smir oldindan belgilangan maqsadga tayanmasa, uning kuzatishi ko'pincha atayin chetdan uyushtirilgan xarakterga ega bo'lib qoladi, atayin uyushtirilgan kuzatish ko'pincha atayin o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi va u o'smir faoliyatiga qo'shiladi va bu orqali o'smir borliqni faol ravishda bila boshlaydi. O'smirlar narsa va hodisalarни tahlil qilishga, ularning o'zaro taqqoslashga harakat qiladilar. Muhim o'xshash tomonlarini, farqlarini aniqlashga harakat qiladilar. O'smirlarni narsalarni aniq kuzata bilishga o'rgata borish zarur, bu bilan ularda kuzatuvchanlik sifatlarini tarbiyalash mumkin.

O'smirlik davrida xotira diqqatda muhim o'zgarishlar yuz beradi. O'z psixik funktsiyalarini uyushtirish analiz qila olish, ularni idora qila bilish o'sib boradi. Bu ikkinchi signallar sistemasini boshqarishning o'ziga xos ko'rinishidir. Xotira va diqqat asta- sekin uyushgan, idora qilinadigan va boshqariladigan jarayonlar xarakterini kasb etadi.

Garchi o'smirlik yoshida so'z va mavhum materialni esda olib qolish ancha taraqqiy etganligi sezilib tursada, o'smir xotirasi kichik maktab yoshidagi bolaning xotirasiga qaraganda "umuman" yaxshi taraqqiy etgan deb bo'lmaydi. Biroq o'smirlar biror materialni esda olib qolish yuzasidan fikrlash ishini uyushtira olish, esda olib qolish

vositalarini egallahash, kichik maktab yoshidagi bolalardagiga qaraganda ancha taraqqiy etgan bo'ladi. Esda olib qolish tezligi va xotirada saqlanadigan material hajmi ortadi. Mexaniq esda olib qolish borgan sari mantiqiy tushunib esda olib qolishga o'z o'rnini bo'shatib boradi, xotiraning mahsuldorligi ortadi. Agar o'quvchilar ilgari odatda materialni so'zma-so'z esda olib qolishga intilgan bo'lsalar endilikda o'smir o'qituvchining yodlab olishdan iborat

(ta'rifni, qonunni) talabiga qarshi ko'pincha e'tiroz bildirib, materialni "o'z so'zlari bilan" aytib berishga moyil bo'ladir.

O'smirlilik yoshida xotira xususiyatlari sezilarli darajada o'zgaradi. Ularda ko'proq mantiqiy xotira asosiy o'rinni tutadi. Mavzularni o'zlashtirish va tartibga solish, narsa va hodisalarning mohiyatini bilish natijasida, o'smir mantiqiy esda olib qolish va mantiqiy esga tushurishning afzalligini tushunib oladi. Esda qoldirish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. O'smirlilik yoshida, xususan, maktabda o'qish ta'sirida ixtiyoriy esda qoldirish rivojlanadi. Yorqin, notanish va yangi narsani esda olib qolaveradigan yoshdagi bolalar (maktabgacha tarbiya va kichik yoshdagi bolalar) dan farqli ravishda o'smirlarda esda qoldirish va yodlab olish tobora ongli va tushungan holda bo'ladi. Ularning o'zlarini matinni esda qoldirish va yodlab olish uchun qator usullarni ishlata dilar.

O'smirlarda esga tushirish ustidan o'tkazilgan tajribalar esga tushirilgan material hajmi kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan kichik o'smirlarda ikki marta, katta o'smirlarda esa to'rt marta ortiqligini ko'rsatadi. O'smirlarda xotiraning sifati ham o'zgaradi ya'ni ular kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'quv materialini ko'proq esga tushiradilar. Bu ulardagi tafakkur taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi.

O'quvchilar tassavvurini boyitish uchun darsni ko'rsatmali va ta'-sirchan qilib olib borish lozim. To'g'ri, kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'smirlar bilan darslarni kamroq ko'rsatmali qilib olib borish mumkin. Chunki o'smirlar ko'p umumiyligi va aniq tassavvurlarga tayanmay turib, murakkab ilmiy fikrlarni tushina olmaydilar. O'smirlar esa etarli darajada tasavvur va tushunchalar zahirasiga ega. Shuning uchun hamma ilmiy fikrlar ko'rsatmalilik talab qilavermaydi. O'qituvchining hali o'smir zarur tassavvurlarga ega bo'limgan sohada murakkab materialni bayon qilishi lozim bo'lib qolgan hollarda ko'rsatmalilik kerak bo'ladi.

O'smirlarda boshqa bilish jarayonlariga bog'liq holda xayol ham rivojlanadi. Ularda xayol ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Tassavvur xayoli va ijobjiy xayol. Tassavvur xayoli o'smirlarda ancha rivojlangan va ta'lim bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. O'smirlarda tasavvur xayoli bilan birga, ijodiy xayol tez rivojlanadi. Bu xayol turi o'smirlardagi qiziqishlarda namoyon bo'ladi.

O'smirlarda o'quv va mehnat faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan ularning diqqatini to'g'ri yo'lga solib borishga bog'liq. Diqqatini yo'lga solishga odatlanadigan o'smir o'qishda ham, mehnatda ham yaxshi natijalarga erishadi, ulgurmeydigan bolalar ko'pincha parishonxotir bo'ladir. O'smirlilik yoshida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining alohida nisbati qo'zg'alish jarayoni tormozlanishga nisbatan ancha kuchli. Ularning diqqatidagi alohida xususiyatlarni tug'diruvchi sabablardandir.

Diqqatning taraqqiy etishi ma'lum ziddiyatlari bilan: bir tomondan, o'smirlilik yoshida barqaror, ixtiyoriy diqqatning tarkib topishi bilan, boshqa tomondan, o'smirdagi taassurotlar, kechinmalar, jo'shqin faollikkha impulsivlik ko'pincha beqaror

diqqatga olib borishi bilan, uning tez chalg'ishi bilan ajralib turadi. Diqqatning tanlovchanlik qobiliyati, ya'ni turlicha xarakteristikasi o'sha narsaga bo'lган kiziqish ko'lami darajasiga bog'liq bo'lishi o'smirda juda yaqqol ifodalangan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlilik yoshida diqqatning ko'lami, shuningdek diqqatni bir operatsiyadan boshqa operatsyaga qaratish, faoliyatning bir turidan boshqa turiga jalb etish qoblyati sezilarli darajada ortadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan farqli o'laroq, o'smir uchun odatda o'z faoliyatini o'zgartirishga qandaydir alohida psixologik tayyorgarlik ko'rish talab etilmaydi.

Bolalar boshlang'ich sinflardanoq o'qituvchining muntazam talabi ta'sirida «diqqatli bo'lib ko'rinishga» o'rganadalar. Lekin bu ko'rinish o'smirlarda hamma vaqt ham chinakam diqqat mavjudligidan darak bermaydi. Ko'p hollarda o'smir diqqat qilib turgan kishidek o'tiradi, lekin darsni tushunmaydi, chunki uning fikri boshqa yoqda sayr qilib yuradi. O'smirlarning ta'sirchanligi, harakatchanligi va qiziqarli ajoyib narsalarga intilishi ular diqqatining chalg'ishiga sabab bo'ladi. Natijada diqqat darsga yoki bajarilayotgan uy ishiga taalluqli bo'lмаган boshqa obektlarga ko'chadi.

O'smirlar ulg'aygan sari ularda mas'uliyat hissi ortib boradi, diqqatning barqarorligi o'sadi. O'smirlar irodasining mustahkamlana borishi ular diqqatining kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatidan farqli ravishda 40 min davomida barqaror bo'lib turishiga imkon beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar diqqati 15-20 minut davomida barqaror bo'ladi, bu narsa ish shaklini dars davomida 2-3 marta o'zgartirib turishni talab qiladi. Diqqatni ko'chirish, ya'ni bir ishdan boshqasiga ongli ravishda o'tishi muhim ahamiyatga ega, jozibador, qiziqarli va jonli ishdan keyin, murakkab ishga o'tishda diqqatni ko'chirish qiyin bo'ladi. Bunday hollarda o'smirlar ancha vaqtgacha « yangi tartibga» tusha olmaydilar. Dars jadvallarini tuzishda diqqatni ko'chirishning qiyinligini nazarda tutish muhim rol o'ynaydi.

Diqqatni tashkil etishning eng yaxshi usuli o'qituvchining qandaydir alohida usullarni qo'llanishga emas, balki o'qish faoliyatini o'smirda diqqatni uzoq vaqt mobaynida biror narsaga chalg'itish uchun na vaqt, na istak va na imkoniyat qolmaydigan qilib uyuştira olishga bog'liqdir. Qiziqarli ish, qiziqarli dars o'smirni shunchalik qamrab olishga qodirki u juda uzoq vaqt davomida zo'r ishtiyoy bilan ishlaydi.

O'smirlilik yoshida fikrlash faoliyatida muhim siljishlar yuz beradi. Kichik mактаб yoshida erishilgan tafakkur taraqqiyotining darjasи o'smirga fan asoslarini muvaffaqiyatli va sistemali o'rganish imkonini beradi. O'rganiladigan fanlarning mazmuni va o'quv kurslari tuzilishining mantiqiy bilimlarini o'zlashtirishning yangi xarakterini mustaqil tafakkurga tayanishni talab etadi. Mavhumlashtirish va umumlashtirish, taqqoslash, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish, isbotlash qobiliyati zarur bo'ladi.

O'smirlarning tafakkuri umumlashgan chuqur va ancha mavhum bo'ladi. Ular ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib , deyarli umumiyluk hukmlardan foydalanadi. Umumlashtirilgan va muhokamali tafakkurni taraqqiy ettirish uchun matematika o'qitish juda muhimdir.

Maktab talimi va mustaqil bilim olish faoliyatini ta'siri ostida o'smirda analitik-sintetik faoliyat jadal suratlar bilan rivojlana boshlaydi. Shuning uchun unda sabab va natijani izoxlash o'quvi mustahkamlanib boradi. O'quvchi materiallarni muhim belgilarini ajratishga keng ma'noli umumlashtirishni amalga oshirishga harakat qiladi.

O'smirlik davrida o'quvchilarda analitik-sintetik faoliyat etarlicha rivojlanmaganligi ham uchrab turadi. Shuning uchun matematika, fizikadan masalani echish usullarini yoki isbotlash yo'li ko'rsatilmasa, qiyinchiliklar tug'iladi.

O'smir fikrlash faoliyatining asosiy xususiyati mavhum tafakkur qobiliyatining yildan –yilga o'sib borishidan , aniq obrazli va mavhum tafakkur o'rtasidagi nisbatning mavhum tafakkur foydasiga o'zgarishidan iborat.

O'smirning eng muhim xususiyatlardan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Maktab ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'zini anglash jarayoni rivojlnana boshlaydi. U o'zining fikriga mustaqil , qarashiga biror masala yuzasidan o'z mulohazasiga ega bo'lishi uchun harakat kiladi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onaning aytganlariga tanqidiy nuqtai nazar bilan qaraydi. Tafakkurning mustaqilligi inson uchun juda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtarda, har qanday og'ir shart-sharoitlarda ham turli usullar bilan bu xislatni qo'llab quvvatlashi lozim, aks holda o'smir aqlining ajoyib sifati barbod bo'ladi.

O'smirlarning aql-zakovatini kamol topdirish uchun ularga doimo mantiqiy tafakkur usullarini o'rgatib borish zarur. Ushbu yoshning eng muhim xususiyati faol mustaqil, ijodiy tafakkurning tarkib topishi hamdir. Psixologlar aytganidek, o'smirlik yoshi ana shunday tafakkurning taraqqiy etishi uchun senzitiv (qulay) yoshidir.

O'smirlarning iroda va hissiyotini o'sishi.

O'smirlarning o'sish yoshi davri irodaning o'sish davri bo'lib ham sanaladi. Iroda ma'lumki, belgilangan maqsadga erishishdagi qiyinchiliklarni engishda namoyon bo'ladi. O'smirning oldida juda ko'p vazifalar turadi, bunda o'smir qiyinchiliklari engishga qodir bo'lsagina ana shu vazifalarni to'la hal qila oladi. O'smirlarning chiniqishi ham voyaga etishi ham faoliyatni bajarish orqali namoyon bo'ladi. Demak vazifa faoliyatni to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. O'smir matabda o'qir ekan, uning oldida ko'pgina vazifalar turadi, u shu vazifalarni qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin bajarishi kerak. Shuning uchun o'smirlarda irodani tarkib topdirishga shunday rahbarlik qilish zarurki, o'smir har qanday maqsadga erishish mumkinligi to'g'risidagi ishonchni yo'qotmasin. Qiyinchiliklarni engishda o'smirga yordam berish zarurdir. Iroda sifatlarini tarkib topishi asosan qo'yilgan maqsadga erishish uchun kishining qanday harakatlar qilishi bilan bog'liqdir. Iroda sifatlarining tarkib topishida faol harakat qilish, harakatlarning uyushganligi va barqarorligi katta ahamiyatga egadir. Demak, harakatlarning faolligi dadillik mustaqillik va tashabbuskorlik kabi iroda sifatlarini hosil qiladi, harakatlarning uyushganligi esa o'smirda o'zining tuta bilish, matonat, o'z-o'zini nazorat qilish, intizomli-likni o'stiradi. Ularda chidamlilik va jasurlikni o'stirishga yordam beradi. O'smirlarda iroda shakillanishi bilan bir qatorda hissiyot

ham shakillanib boradi. O'smirning emotSIONAL hayotida yangi bosqich boshlanadi. O'smirning o'z emotSIONAL holati o'zgaradi. Bu umumiy emotSIONAL tonusga hamda kayfiyat va ruhiy holatning o'zgarishiga taalluqlidir. O'smirda yangi ijtimoiy bog'lanishlar, ijtimoiy hayot hodisalari va boshqa odamlarning xatti- harakatlariga nisbatan yangi munosabatlar vujudga keladi. Mana shu munosabatlar asosida o'zi uchun ahamiyatsiz bo'lgan narsalarga nisbatan unda emotSIONAL munosabatlar tug'iladi.

Agarda kichik mакtab yoshidagi o'quvchi qiz oldiga amalga oshirilishi, irodani talab qiladigan maqsad va vazifalarni hamisha ham mustaqil tarzda qo'ya olmasa,

o'smir bunday maqsadlarni ko'pincha o'zi qo'yadi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun faoliyatlarini o'zi rivojlantiradi.

Ammo o'smirlarda irodaning etishmasligi qisman ularning hamma faoliyat turlarida ham o'z irodalarini hamma vaqt namoyon qila olmasliklarida ko'rindi: faoliyatning bir turida matonat namoyon qilsalar (masalan; sport faoliyatida) boshqa turlarida iroda chidam namoyon qila olmaydilar (masalan, o'qish faoliyatida) matematikani o'zlashtirishda irodani ko'rsatsalar, chet tilini o'zlashtirishda uni ko'rsata olmaydilar va shuning kabilar.

Bunday munosabatlarga eng avvalo o'smirning kattalar bilan munosabati va ular bilan bog'lik bo'lgan kechinmalar, undan tashqari o'z tenqurlari bilan bog'liq bo'lgan kechinmalar kiradi. Ular o'zaro munosabatlarda yurak sirlarini izhor etish ehtiyojini sezadi, o'ziga eng yaqin do'st axtaradi, bunday do'st topolmasa, yurakdagagi gaplarini xotira daftariga yozib borishga odatlanadi. O'smirning kechinmalari ichida jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lgan kechinmalar katta o'rinni ola boshlaydi.

O'smirlarning xarakter xususiyatlarini shakllanishi.

Xarakter shaxsning xulq va harakatlarida namoyon bo'ladigan qaror sifatlari yig'indisidir. Bola ulg'ayishi bilan uning xarakteri tarkib topa boshlaydi. Xarakter xususiyatlarining shakllanishiga turmushning ijtimoiy- tarixiy, oilaviy tarbiya sharoitlari, ta'-lim-tarbiya ishlarining shakl va mazmuni ta'sir qiladi.

O'smirning xarakter sifatlarini bila olish va qanday sifatlar mustahkamlangan, qaysilari yo'qolib ketyapti va nihoyat qaysilari paydo bo'layotgani va mustahkamlanayotganini aniqlab olish pedagog-lar uchun juda muhimdir. Xarakter sifatlarini chuqur va aniq bi-lish uchun ularni guruhlarga ajratish lozim. Xarakter sifatlarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Intelektual irodaviy va emotsional sifatlar 1-guruymi tashkil qiladi. Xarakter sifatlarining 2 guruymi o'smirning moddiy dunyoga, jamiyat va kishilarga, faoliyatga va o'z-o'ziga munosabati xususiyatlari bilan bog'lik xolda shakllana-di. Takrorlanib turadigan, voqelikka biror munosabatni aks etti-ruvchi harakatlar asta-sekin xarakter sifatlariga aylanib boradi. Doimiy, odat tusiga kirib qolgan o'yinchoqlarga, kitoblarga, maktab buyumlariga, kiyimga, maktab mulkiga va boshqalarga munosabat, xarakterning saranjomlik, tejamlilik, rejallilik yoki e'tiborsizlilik, xasislik, beparvolilik kabi sifatlariga aylanadi.

O'smirlarni muvaffaqiyatli tarbiyalash ko'p jihatdan O'qituvchining bolalar jamoasida do'stlik aloqalarini mustaxkamlashiga bog'liqligini esda tutish lozim. Ba'zan o'smirlar o'rtoqlik va do'stlik xissini noto'g'ri tushunadilar. Bunday xollarda o'smirlar orasida « bir-birini himoya qilish » vujudga keladi. O'rtog'ining noto'g'ri xatti-harakatini kattalardan yashiradi, gunoxlarini turli yo'llar bilan berkitadi.

«Bir-birini himoya qilish» odatiga qarshi kurash o'qituvchidan xushmuomalalik va o'smirlar psixologiyasini tushuna olishini talab qiladi.

O'smirlarning ahloqiy siysiy xislarini yaxshi bilish va ulardan ta'lim-tarbiyada to'g'ri foydalanish o'smirlarni ahloqiy jihatdan tarbiyalashda yaxshi natijalar beradi.

A.S.Makarenko bolalarni tarbiyalashda bolalar jamoasining xal qiluvchi roliga katta e'tibor bergan. O'smirning jamoada yashashi va ishlashi unda mas'uliyat, burch xissi kabi eng qimmatbaho xissiyotlarni o'stiradi. O'smilar o'z yutuqlari, xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni, ota-onalari, maktab va Vatan oldidaga vazifa va burchlarini yaxshi tushunadilar. Shu bilan birga o'smirlarning mas'uliyat va burch haqidagi gaplari bilan xulqlarining bir xil bo'lmasligi kabi xollarini ham uchratish mumkin. O'smir biror ayb ish qilib qo'yib, bunday qilish yaramasligini yaxshi anglaydi, aybi uchun afsuslanadi. Bunday so'z bilan xulq atvor o'rtasidagi ziddiyat odatda tashqi ta'sirlarga tez beriluvchanligi va jo'shqinligini hisobga olmaslik, faqat og'zaki nasihatgo'ylik bilan cheklanish natijasidir.

Insonga, jamoaga, jamoat tashkilotlariga nisbatan doim takrorlanib turadigan munosabat mehribonlik, o'rtoqlilik, do'stona munosabat, insonparvarlik, dilkashlik yoki odamlardan uzoqlashish, sir-ni yashirish, odamlarga aralashmaslik kabi harakter sifatlarga aylanadi. Shuningdek, faoliyatga munosabatdagi doimiylik harakterning ijobjiy yoki salbiy sifatlariga aylanadi. Bunday sifatlarga tirishqoqlik, mustaqillik, ma'suliyatlik, tashabbuskorlik yoki shoshqaloq-lilik, xovliqmalik kabilar kiradi. Xarakterning bu sifatlari bolaning kichiklidan tarbiyalana boshlaydi. Keyinchalik o'z-o'ziga munosabatni aks ettiradigan xarakter sifatlari paydo bo'ladi.

O'smirlik davrida o'smirning shakillanishi.

O'smir shaxsining taraqqiyotida eng muhim ko'rinishlardan biri, unda o'zini anglashning tarkib topishidir, o'zini shaxs sifatida anglash ehtiyojining tarkib topishidan iboratdir. Kichik maktab yoshidagi davrda o'ziga baho berish istagi bo'lmaydi: Men qanday odamman?. Men qanday foyda keltirishim mumkin?. Mening qanday yaxshi va yomon tomonlarim bor? degan savol tug'ilmaydi. O'smirda bo'lsa, o'z-o'ziga nisbatan, o'zining ichki hayotiga, o'z shaxsining sifatlariga qi-ziqish yuzaga keladi. O'zini boshqa kishilar bilan taqqoslash, o'ziga baho berish ehtiyoji paydo bo'ladi. O'smir o'ziga nazar solib qaray boshlaydi, o'zi uchun qandaydir tarzda o'zining «men» ini ochadi (kashf etadi), o'z shaxsining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishga intiladi.

O'zini anglashning dastlabki tarkib topishi va bundan keyingi taraqqiyoti o'smirning butun psixik hayotiga o'qish faoliyatining xarakteriga, tevarak atrofga bo'lgan munosabatlarining tarkib topishiga, uning boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlariga tasir qilib, chuqur iz qoldiradi. O'zini anglashning voqelikdan uzilib, o'z ichki kechinmalari olamiga ketib qolish deb tushunish to'g'ri kelmaydi. O'zini anglash o'z-o'zini bilishga, befoyda va cheksiz ravishda o'z-o'zini analiz qilishga qaratilgan o'ziga xos intilishning namoyon bo'lishi deb tushunib bo'lmaydi. O'zini anglash ehtiyoji hayot ehtiyojlaridan va amaliy faoliyatlardan kelib chiqadi. O'zini anglash ehtiyoji kattalarning, jamoaning o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan belgilanadi.

O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-harakatlarini anglashdan boshlanadi (oldin ayrim qiliqlarini, undan so'ng barcha xatti-harakatlarini butunligicha anglashlaridan boshlanadi), undan so'ng o'zlarining sifatlarini, xarakterlarini va o'z qobiliyatlarini anglashdan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o'smirlarni o'zini anglashi asosida u haqida boshqa odamlarning kattalarning

(o'qituvchilar, ota-onalarining, jamoaning va o'rtoqlarining mulohazalari yotadi. Kichik yoshdagi o'smir o'ziga go'yo atrofdagi odamlarning ko'zi bilan qaraydi. Yosh ulg'ayishi bilan o'z shaxsini mustaqil tahlil qilish va baholash holatlari boshlanadi. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'smir shaxsining hamma sifatlarini ham bir vaqt ni o'zida anglay boshlamaydi. Dastavval ta'lim faoliyatini bajarish bilan bog'lik bo'lgan sifatlar

(mehnatsevarlik matonat, diqqatlilik, tirishqoqlik.) angvana bosh-lanadi. Undan so'ng boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlarni ifoda-lovchi sifatlar (o'rtoqlik hissi, mehribonlik, vazminlik, qaysarlik xissi) anglanadi. Undan ham keyin o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (kamtarlik, takabburlik) anglanadi. Nihoyat shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarini ifodalovchi murakkab sifatlar, burch hissi, qadr-qimmat va vijdon xissi, maqsadga intilish xissi anglanadi. O'smirlarda o'zini anglashning muhim xususiyatlaridan biri o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj bilan shaxsning namoyon bo'lishini etarli darajada to'g'ri tahlil qila olmasligi, o'zi xaqida etarli darajada bilimlarga ega emasligi o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Mana shu asosda ba'zan o'smirdagi tirishqoqlik darjasini bilan uning jamoadagi xaqiqiy mavqeい o'rtasida, uning o'z-o'ziga nisbatan, o'z shaxsining sifatlariga nisbatan bo'lgan munosabati bilan unga hamda uning shaxsining sifatlariga nisbatan kattalarning va tengdoshlarining muno-sabatlari o'rtasida ixtilof yuzaga keladi. A.G Kovolevadolatli ravishda ta'kidlaydiki, o'smirlarda 2ta bir-biriga qarama-qarshi ammo har ikkisi ham ayni bir vaqtida salbiy bo'lgan kechinmalarni, ya'ni boshqalardan ustunlik va boshqalardan kamlik hissini tug'dirmaslik uchun o'smir shaxsiga to'g'ri baho berish muhimdir. O'smirlarda o'zini anglashni rivojlanishinig yangi bosqichi o'ziga bir na'munani, o'ziga xos axloqiy etalonni ajratish bilan bog'liqidir. O'smir o'ziga na'muna bo'lgan etalon bilan o'zini solishtirib, o'z xatti-harakatlariga baho beradi. Mana shunday namuna bo'ladigan etalonlar o'smirning xatti-harakatlarini yo'lga sola boshlaydi. O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hisoblangan yangi xislatlarni tarkib topishi unda o'ziga xos kattalik xissining yuzaga kelishidir. O'smir bu hissiyotni o'z-o'ziga katta yoshli odam sifatida bo'lgan shaxsiy munosabatlarni kattalar jamoasida ular hayotining to'laqonli va to'la xuquqli a'zosi sifatida yashashga tayyor ekanligini sub'ektiv tarzda ichidan kechiradi. Kattalik xissi o'smirlarda mustaqillikka va ma'lum darajada erkinlikka intilishni yuzaga keltiradi. Mana shuning natijasida ular kattalarning baholariga g'ayri tabiiy holda javob beradilar va kattalarning ularning qadr-qimmatlarini kansitishlariga, ularning erkinliklarini inkor qilishlariga, ularning xuquqlariga etarli baho bermasliklariga juda o'tkir reaktsiya bilan javob beradilar.

Xuddi shu davrda o'smir shaxsining shakillanishida turli xil qiziqishlar yuzaga keladi. Bu qiziqishlar psixologiyaning alohida kategoriyasini tashkil etib, u bir tomonidan mayl, boshqa tomonidan ishtiyoq va havasni o'rtasida joylashadi.

O'smirlik yoshida maktab va maktabdan tashqari muassasalar ta'lim-tarbiya ishining ta'siri ostida, fan asoslarini o'rganish ta'siri ostida o'smirlarda faoliyatning u yoki bu turiga qobiliyatlar tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshida ham, hatto maktabgacha tarbiya yoshida ham qobiliyatlarning namoyon bo'lish hollari yuz beradi, albatta. Lekin bu qobiliyatlar(tegishli ko'nikma va malakalarini nisbatan tez hamda oson egallash, ob'ektiv tarzda yuqori natijalarga erishish nazarda tutiladi) ayniqsa o'smirlik yoshida chinakamiga rivojlana boshlaydi. Buning sababi shuki, ayniqsa o'smirlik

yoshida chuqur, ta'sirchan, barqaror qiziqishlar yuzaga keladi, tevarak atrofga ongli, aktiv munosabat tarkib topadi, mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiy etadi.

Birinchi navbatda musiqa, badiiy-tasviriy, adabiy-ijodiy qobiliyatlar yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Matematikani jiddiy va sistemali o'rgana boshlaganligi munosabati bilan matematika bo'lgan qobiliyatlar tarkib topadi. Matematika va fizikani o'rganish asosida o'smir o'g'il bolalarda konstrukturlik-texnik qobiliyatlar juda sezilarli darajada tarkib topadi.

O'smirlar turli bilimlar to'garaklarining va ijodiy to'garaklarning faol ishtirokchilaridir. Ularda uncha murakkab bo'lmanagan musiqa asarlari va qo'shiqlarni mustaqil ravishda ijod qilish, bo'yoqlar bilan rasmlar chizish, uncha katta bo'lmanagan hikoyalar va ayniqsa tilning ifodali vositalaridan foydalanib, she'rlar to'qish ehtiyoji yaqqol namoyon bo'ladi. O'smirlarning adabiy ijodi ularda tarkib topgan hayotga munosabat va dunyoni his etish qobiliyatlarida, ularning tabiatni hayron qolarli darajada yaqqol idrok qilishlarida ifodalanadi.

Bizningcha bu qiziqishlarni quyidigi tasnifini olishimiz mumkin.

1. Intellektual-estetik qiziqishlar predmetga (musiqa, tasviriy san'at, radiotexnika va adabiyot va xokazo)nisbatan chuqur qiziqish bilan ifodalanadi. Atrofdagilar uchun bunday qiziqishlar ahamiyatsiz, hatto g'alati tuyulishi mumkin. Lekin o'smir uchun ahamiyati beqiyosdir.
2. Jismoniy qiziqishlari o'z kuchi, chidamliligi, chaqqonligi va mohirligini oshirishga bo'lgan harakatlar kiradi. Bunga shuningdek turli jismoniy qiziqishlar avtomobil yoki mototsiklni boshqarishga qiziqishlar taalluqlidir.
3. Informatsion kommunikativ qiziqish yangi engil axborotlarga ega bo'lishga intilishda mavjud bo'ladi. Ushbu qiziqish tasodifan uchrab qolgan suhbatdosh bilan bo'lib o'tadigan ko'p soatlik

quruq gapga moslangan suhbatda namoyon bo'ladi. Shuningdek turli sarguzasht filmlarni ko'rish orqali ham ko'rish mumkin.

O'smirlik davri xususiyatlari haqida so'z borganda, albatta, ularning mehnat faoliyatiga ham alohida e'tibor berishimiz zarur. Chunki mehnat faoliyati o'smir shaxsini shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Odatda o'smirlar mehnat bilan zo'r hafsala bilan shug'ullanadilar. Birinchidan, bunda o'smirlarning faollik singari yaqqol yosh xususiyati ifodalanadi. Ikkinchidan, jiddiy mehnatda ular o'zlarida tarkib topadigan kattalikni his etish tuyg'usini amalgalash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bunday imkoniyatni esa o'smirlar juda qadrlaydilar. Uchinchidan, mehnat odatda jamoa ichida qilinadi, o'smir uchun esa jamoadagi turmush va faoliyatning ahamiyati, biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, nihoyatda kattadir. Shunday qilib, o'smirlarning mehnat faoliyati ularning yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga to'la javob beradigan faoliyatdir. Uchrab turadigan (ko'proq uchraydigan) yalqovlik, mehnatdan bo'yin tovlash, o'z mehnat majburiyatlarini nazarga ilmaslik, mehnat topshiriqlariga beparvolik bilan qarash hollari vaqt noto'g'ri tarbiyaning samarasidir.

O'smirlar mehnatini uyushtirishga alohida e'tibor berish lozim. Bu maktab ustaxonalarida mehnat qilishga ham, maktab huzuridagi o'quv-tajriba uchastkasida ishlashga ham, uyda qilinadigan mehnatga ham, ijtimoiy foydali mehnatga ham (uning turli hislari va formalarida) taalluqlidir. Afsuski, ko'pchilik maktablarda so'nggi yillarda bolalar mehnatini uyushtirishga e'tibor berilmay qoldi. Bu hol o'quvchilarga

ham ta'sir etmoqda: o'smirlar bir qancha maktablarda mehnatning uyushtirilishidan norozidirlar, ularda mehnatga bo'lgan qiziqish yo'qolib bormoqda, ular mehnatga befarq yoki hatto salbiy munosabatda bo'lmoqdalar. Bunga qisman sabab shuki, pedagoglar jamoalarining butun kuch va e'tibori yangi dasturlarni o'zlashtirib olishga qaratilgan, biroq ba'zan mehnatning tarbiyaviy ahamiyatiga etarlicha baho bermaslik ham ta'sir qilmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, maktablarimizni ixtisoslashtirishdan voz kechish bolalarni mehnatga oshno qilishdan voz kechishni anglatmaydi.

Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, mehnat o'smirlik yoshida tegishli tarzda uyushtirilgan, xususan u o'smir uchun ijtimoiy foydali, jamoa, ijodiy, qiziqarli va o'smirning qo'lidan keladigan qilib uyushtirilgan taqdirdagina tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Mavzu yuzasida savollar:

1. O'smir organizmining qayta qurilishi.
- 2.O'smirlik yoshidagi inqiroz muammosiga nazariy yondashish.
- 3.O'smirlikda yuzaga keluvchi "kattalik hissi" asosiy psixologik o'zgarish sifatida.
- 4.O'smir va kattalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning asosiy sabablari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova **Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.** «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G'. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
- 4.G`oziyev E.G`. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

6-mavzu: ILK O'SPIRINLIK YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Asosiy savollar:

- 6.1. O'spirinlarda o'z-o'zini anglashning o'sishi. O'spirin o'quv faoliyati.
- 6.2. O'spirinlarning kasbga tayyorgarligi muammosi.
- 6.3. O'spirinlardagi motivlar va qadriyatlar do'stlik va sevgi-muhabbat, jamoatchilik ishlaridagi faolligi va dunyoqarashning shakllanishi.
- 6.4. Ijtimoiy va ahloqiy me'yorlarning shakllanishi..

Darsning maqsadi:

O'spirinlarda o'z-o'zini anglashning o'sishi. O'spirin o'quv faoliyati. O'spirinlarning kasbga tayyorgarligi muammosi. O'spirinlardagi motivlar va qadriyatlar do'stlik va sevgi-muhabbat, jamoatchilik ishlaridagi faolligi va

dunyoqarashning shakllanishi. Ijtimoiy va ahloqiy me'yorlarning shakllanishini o'rganish

Kalit so'zlar:

Psixik rivojlanish, aqliy rivojlanish, faoliyat, o'smirlik yoshi, o'tish davri, intelektual rivojlanish, psixologik hislatlar, shaxs shakllanishi, o'spirinlik, kamolot busagasi, aqliy rivojlanish, psixik xususiyatlar, akseleratsiya.

1.O'spirinlarda o'z-o'zini anglashning o'sishi. O'spirin o'quv faoliyati Birinchi savolning bayoni:

Ilk o'spirinlik yosh davriga 15-18 yoshlardagi o'quvchilar kiradilar. Bu davrda o'quvchilar jismoniy jihatdan baquvvat, ma'naviy jihatdan etuklikka erishadilar. O'spirin 16 yoshda mamlakat fuqarosi va 18 yoshda esa saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi. Bularning barchasi o'spiringa fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga etishishi, hayotda o'z o'rnini topish, o'z taqdirini hal qilishi va etuk shaxs sifatida ma'naviy o'sishi uchun jamiki shart-sharoitlarni yaratadi.

O'spirinlikning mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavqeい, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir.

Ilk o'spirinning shaxsi ijtimoiy hayotda, ta'lim muassasasi jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan mutlaqo yangicha mavqeい ta'sirida, o'qish va turmush sharoitidagi o'zgarishlar ta'sirida tarkib topa boshlaydi.

Ilk o'spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan (o'rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirishi) harakterlanadi Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinning shaxsiga, uni o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iboratdir. Mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida o'spirinning aqliy va axloqiy jihatdan o'sishda o'ziga xos o'zgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon bo'ladi. Hayotda o'z o'rnini topishga intilish kasb-hunar egallah, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lismeni keltirib chiqaradi.

O'spirinlar (16-18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga etgan, kamolotta erishgan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi etuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Ular vazmin, muloxazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-extirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota-onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, o'qishga nisbatan qiziqish o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriqoq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligi, o'z-o'zini anglashi bilan motivlar bu davrda etakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari o'zgaradi, o'spirinning fanlarga hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabati o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'zi ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o'ringa ko'tariladi.

O'smirlar o'zlarining o'yinga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qishni o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar.

2.O'spirinlarning kasbga tayyorgarligi muammosi.

Ikkinci savolning bayoni:

O'spirinlarning qiziqishlari ularning o'zlari tanlagan kasbi va yo'nalishi shuningdek, hayotiy rejalariga asoslanadi. O'spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak pogonaga ko'tarila boshlaydi. O'spirinlar endi hayotda turli xil kasblar mavjudligini ko'rib o'zlarining qiziqishlariga qarab kasb tanlay boshlaydilar. Lekin har bir kasb shu qadar murakkabki, inson o'z hayotini, asosan, ana shu bir kasbga bag'ishlashi mumkin. Shu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi. Aslida kasb tanlash barcha davrdan boshlab, bolalarning rolli o'yinlarida ko'rindi. Demak, bola o'yin orqali to'la kasblar va shu faoliyat bilan tanisha boshlaydi. Masalan: «magazin» yoki «bozor» o'yini orqali, bola ham «sotuvchi» ham «xaridor» bo'la oladi, «pul» va «tovar» bilan muomala qilishni o'rganadi. Bu bosqichni kasb tanlashga tayyorgarlikni boshlanish bosqichi deb atash mumkin. Keyingi yosh davrlarda bu tayyorgarlik turli faoliyatlarda va turlicha ko'rinishlarda davom etadi. «Men kim bo'laman?» savoliga to'qnash keladi. Ma'lum bir kasbda faoliyat ko'rsatishni boshlayotgan o'spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda ahloqiy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. O'smirlik davrining oxirlari va o'spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko'nikma va malakalaridan ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Tajribalarning ko'rsatishicha, agar o'spirinlik davriga kelib unda kelgusida yaxshi kasbiy layoqatlarni yuzaga kelishiga umid boglash qiyin. Misol uchun bolalik paytlarida texnika bilan muomala kila olmagan, slesarlik asbob-uskunalaridan foydalana olmagan, o'z kuli bilan nimanidir bajara olmagan bola talantli injener-konstruktur bo'lib etishishi ancha mushkul, yoki litsey va kollejlarda matematik, lingvistiq, badiiy-ijodiy layoqatlarini ko'rsata olmagan bola katta bo'lganida hech qachon kuchli matematik, filolog yoki musavvir bo'lib etisha olmaydi.

Xar qanday kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sishi, avvalo, o'spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o'spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim.

Bu yoshdagi bolalarga muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham juda muhim, lekin u etakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo'nalishlari bo'yicha mashgul bulmagan o'spirinlargina ko'proq tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishiga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug'ullana oladilar. Ilk o'spirinlik davrini kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun senzitiv davr deb hisoblash mumkin. O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto'g'ri xal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va kiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xusan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-idoraviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

Yaxshi kasb-hunar egasi bo'lish insonning eng katta ziynatidir. U farog'atga, kamolotga va izzat ikromga o'z kasb-hunari tufayli ega bo'ladi. O'z farzandlarini ilmlli, hunarli qilib voyaga etkazish millatimizga xos xislat bo'lib, ota-bobolarimiz farzandlarining savodini chiqarish, hunarli qilish uchun eng yaxshi muallimlarga,

usta hunarmandlarga shogirdlikka benganlar, boshqa shahar va yurtlarga bilim olish uchun yuborganlar.

O'spirinlar kasb tanlashga qanday yondoshadilar? Bu mavzuda o'zbekistonlik psixologlar M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.Yu.Toshimov, I.M. Asadov, chet el psixologlari A.V.Alekseev, V.A. Krutetskiy, E.A.Klimov, L.Golovey va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarini olib bonganlar.

Psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, o'smirlik yoshining oxirlariga kelib, o'qituvchi va ota-onalarning sa'i-harakatlari tufayli (kasbga yo'naltirish, kasblar haqida ma'lumotlar berish, targ'ibot ishlari va x.k.) unda o'zining kelajakdagi kasbini belgilab olish intilishi paydo bo'ladi, kasbni o'ylab tanlaydilar, nima uchun shu kasbni tanlaganliklarini aoslab beradilar va o'z xohish- istaklariga ko'ra o'qishning 3 yillik ta'limga asoslangan akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarini tanlaydilar.

Ming-minglab kasblar bor, lekin muayyan mehnat turiga individual moyillik bilan unga bo'lgan qobiliyat va uning ijtimoiy ahamiyatiga yuqori baho berish (psixologlar buni kasbning sotsial mavqeい deb ataydilar) qo'yilgandagi kasb kishiga ma'naviy qoniqish berishini o'spirinlarning ko'pi anglab etadilar.

Inson tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy –iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday yoshlarimiz borki, umumiyo o'rtalim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'spirinlar uchun xarakterli xususiyat –kasblarga keskin tanlab munosabatda bo'lishdir. Ularning ko'plari ayrim kasblarni yuqori baholaydilar, o'quvchilarining ko'z o'ngida bu kasblarning ijtimoiy mavqeい juda ulug'dir, boshqa kasblarning ijtimoiy mavqeい nihoyatda past. Lekin muammo shundaki, ko'pgina kasblarning bunday mavqeligi jamiyat uchun, mamlakatimiz xalq xo'jaligi uchun real ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Professional niyatlarining barqarorligini o'rganish yuzasidan N.I.Krilov o'tkazgan tekshirish shuni ko'rsatadiki, hatto o'z niyatlarini amalga oshirib, oliy o'quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko'plari o'zlarining kim bo'lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab yoshlarni mazkur oliy o'quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ko'plari mazkur oliy o'quv yurtiga tasodifan kirgan bo'ladilar "otam ham vrach bo'lgani sababli kirdim", o'rtog'im kirayotgani sababli kirdim", "chunki bu erga kirish osonroq bo'ldi" va xokazo.

Axir o'zining professional taqdirini tasodifan hal qilish murakkab kechinmalarga, tanlagan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og'ir ichki ziddiyatlarga olib kelishi mumkin va olib keladi. Bu narsa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi.

O'spirin yoshlar oliy ma'lumot olishga, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishga bir tomonlama yondoshishlarini aytib o'tish kerak. Litsey va kollej o'quvchilarining 80% idan ko'prog'i oliy ma'lumot olishga intilamiz, deb qatiy qaror qilgan, faqat ozchilik qismigina o'qishdan keyin ishlab chiqarishga

bormoqchi ekanliklarini aytishgan (oliy o'quv yurtlariga bitta o'ringa 15-20 ta abiturient xujjat topshiradi). Biroq ularning ma'lum qismigina oliy o'quv yurtiga real kira olishiga umid qilishi mumkin. Qolganlari ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritishlari kerak. Yoshlarning oliy ma'lumot olishga intilishining yaxshi tomonlari bo'lishi bilan birga buning salbiy oqibatlari ham bor. Birinchidan o'quvchilar o'zлари tanlagan oliy o'quv yurtiga kirish uchun topshiradigan 3-4 fanni chuqur o'rganishni mo'ljallaydilar xolos. Boshqa fanlarni o'rganishga vaqt sarflash oqilona va samarali ish deb hisoblanmaydi. Ikkinchidan, tanlagan fanlarni o'rganish ham M.G.Davletshin to'g'ri ko'rsatib o'tganidek, test talabalariga mos keladigan pragmatik xarakterga ega bo'ladi, ya'ni asosiy e'tibor test savollariga to'g'ri javob topishga qaratiladi.

Oliy o'quv yurtiga kirishga bir tomonlama psixologik ustakovka o'z niyatlarini amalga oshira olmagan bitiruvchilarga salbiy ta'sir qiladi. Muvaffaqiyatsizlik ularga og'ir ta'sir ko'rsatadi, ko'pincha bu holni o'z umidlarining barbob bo'lishi deb qaraydilar. O'quvchilar: agar oliy o'quv yurtiga bu yil kira olmasam, bir ikki yil kutaman, tayyorgarlik ko'raman deb o'ylaydilar.

Bularning hammasiga bizning tarbiyaviy ishlarimizning bir muncha bo'sh olib borilayotganligi sabab bo'lmoqda, biz yigit va qizlarga oddiy ishlab chiqarish kasblariga muhabbatni singdirish, bu kasblarning ijtimoiy mavqeini oshirishga diqqat-e'tiborni kuchaytirishimiz zarur. Astoydil ish olib borish, bu kasblarni qat'iyat bilan mohirona targ'ib qilish, ularning yuksak ijtimoiy beradigan taraqqiyot istiqbollarini ko'rsatishimiz zarur. Mamlakatimizda bozor iqtisodi sharoitida xususiy tadbirkorlikning katta ahamiyatga ega ekanligi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berilganligi, unumli mehnat sohasida ishlayotgan kishilar qanchalik hurmat -ehtiromga sazavor ekanligini ishonarli tarzda ko'rsatib berish, hatto bunday kishilar bir muncha yuqori moddiy ta'minotga ega ekanliklarini ta'kidlash ham kerak. O'spirin yoshlar bu kasblarni jon deb tanlashlariga erishmoq zarur, agar yigit va qizlar ishlasalar ham, majburan, "yaxshi kasb topilmaganligidan", o'z xohlamasliklarini qiyinchiliklar bilan engib ishlar ekanlar, bu hol bizni qoniqtira olmaydi.

O'spirinlarda kasb tanlash nimaning ta'siri ostida ro'y beradi? Bunday tanlashning motivlari nima?

O'quvchilarning ko'pchilik qismi kasb tanlashga motiv qilib o'z qobiliyatlarini ko'rsatadilar. (qobiliyatlar haqida o'zlashtirishlari, materialni oson egallashlari, mактабдан ташқари mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli borishi va hokazolarga qarab fikr yuritadilar) Ko'п o'quvchilar oilaviy an'analar mavjudligini (sof tashqi sabab) moddiy - maishiy ta'minganlik sababini, do'stlari va o'rtoqlaridan namuna olganligini motiv qilib ko'rsatib o'tadilar. Ayrim hollarda ish joyi yoki oliy o'quv yurtining uyga yaqinligi, "bu erga kirishning osonligi" motiv bo'lgan. Psixologik tadqiqotlar bitiruvchilar kasb tanlash vaqtida yo'l qo'yadigan tipik xatolarni aniqlab berdi, bu xatolar: 1) biror kasbning "mavqeli ekanligiga" baho berishdagi bid'atlar (o'spirin yigitlar xaydovchilik, bog'bonlik, chorvadorlikni emas balki bankda kassir, AYoQSh da ishchi, mehmonxonalarda ofitsiant bo'lib ishlashni afzal ko'radilar) 2) Kasbga uzoq va noaniq tasavurga muvofiq baho berish, (ko'pincha kasbni o'quv fani bilan bir narsaga o'xshatadilar);

3) biror kasb egasi bo'lgan kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish; 4) kasbning oddiy kundalik tomonini nazar pisand qilmay, uning tashqi tomonga mahliyo bo'lish; 5) o'rtoqlarining ta'siri ostida "kompaniya" uchun kasb tanlash.

Ko'pdan ko'p tadqiqot natijalariga asoslanib o'spirin yoshlarning kasb tanlashga to'la to'kis tayyorligi to'g'risida gapirib bo'lmaydi, deb xulosa chiqarishga to'g'ri keladi, chunki birinchidan o'spirinlar ko'p kasblar to'g'risida aniq tasavurga ega bo'lmasanligi sababli ularni to'g'ri tanlab olmaydilar. Mazkur kasb odamning sifatlariga qanday talablar qo'yishni ham bilmaydilar. Ikkinchidan ular o'zlarining biror kasbga layoqatli ekanliklarini hamma vaqt ham ob'ektiv aniqlay olmaydilar. Reaktsiyaning tezligi va aniqligi, harakatlarning mofiqlashganligi, sezish xususiyatlari, nerv jarayonligining harakatchanligi va hokazo xarakteristikalar odatda notanish bo'ladi, chunki ko'pincha bular maxsus tadqiqotlarni talab qiladi.

Demak, o'qituvchilar, ayniqsa psixolog o'spirinlarda kasb tanlashdan iborat hayotiy muammo albatta paydo bo'lishini, davlatning, jamiyatning manfaatlarini va ehtiyojlarini shaxsiy moyillik va qobiliyatlarni hisobga olgan holda ularga kasbni ancha maqsadga muvofiq holda tanlashda yordam berishi zarur.

O'spirinlarni kasb tanlashga yo'llash muammosini maxsus o'quv yurtlari jamoat tashkilotlari, korxona va muassasalar, ishga joylashtirish organlari bilan birgalikda hal etishlari maqsadga muvofiqdir. Avvalo o'quvchilarga kasblarni yaxshi bilib olishda yordam berish, buning uchun kasblar haqida juda xilma-xil axborot manbalaridan foydalanish, ("kam mavqeli" kasblarni ham targ'ib qilish) turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, korxonalar va oliy o'quv yurtlariga ekskursiyalar, ochiq eshiklar kuni, kitob ko'rgazmalari, kutubxonalarda ma'lumotlar tizimi va hokazolar tashkil etish lozim.

O'spirinlar kasbni ongli ravishda tanlash vaqtida, birinchidan xalq xo'jaligining u yoki bu mehnat turiga bo'lgan ehtiyojini, va ikkinchidan, o'z moyilligi va qibiliyatlarini hisobga olish, o'z shaxsiy sifatlari u yoki bu kasbga qo'yadigan talablarga qanchalik muvofiq kelishini, bu jihatdan to'g'ri kelmaydigan xususiyatlar (xususan, o'z asab tizimi xususiyatlari, analizatorlar xarakteristikasi, ko'rish va eshitish analizatorlari, emotsional – irodaviy sohalar va hokazolar) bor yo'qligini hisobga olish zarurligini tushunishlari lozim.

Yurtimizni azaldan donolar yurti deb hamisha faxrlanib kelamiz: Imom Buxoriy, Ibn Sino, Farobi, Beruniy, Farg'oniy, Ulugbek, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz o'zlarini yorqin iste'dodlarini juda yoshlik chog'laridanoq namoyon qilganlar. Shuning uchun buyuklik, yuksak iste'dod egasi bo'lish qonimizda bo'lib hozirgi kunda ko'plab iqtidorli bolalarning etishib chiqayotganligi bejiz emas.

Farobi bir olim sifatida ma'rifatli jamiyat g'oyasini ilgari surdi va u g'oya qonimizda orzu bo'lib oqdi, kitoblarda orzu bo'lib muhrlandi. Bugungi ma'rifatli jamiyat, barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'naliishi deb e'lon qilindi. Uning amalga oshirilishi avvalo mamlakatimizdagagi ijtimoiy-siyosiy muhitni yanada yaxshilanishiga olib keladi, jamiyatimizda yangi shaxslar – komil insonlar vujudga keladi, yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topish jarayoni

tezlashadi. Zero, har bir inson voyaga etish arafasidanoq jamiyatda o'z o'rnini topa olishi va belgilay bilishi lozim.

Bunday yoshlarning, shaxslarning ko'payishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Har bir o'spirin yigit – qiz o'z aqli, o'z mehnati, o'z xulosasi bilan yashay boshlaydi, ularga hech qanday nopok kuch, buzuq g'oyalar ta'sir eta olmaydi, ularni o'z tanlagan yo'llaridan hech qanday kuch toydira olmaydi. O'zbekiston xalqi o'z oldiga xuquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo'ygan ekan, bu jamiyatni qurish o'spirin yoshlari zimmasidadir va yuqorida ko'rsatib o'tilgan imkoniyatlar va sharoitlar mamlakatimiz yoshlaring barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga, yangicha ongga, tafakkurga ega bo'lган shaxslarning ko'payishiga olib keladi. Negaki, dunyoning bugungi rivoji shunday mavqedaki, hal qiluvchi omil intellektual salohiyatda, fikrda, aqlida, ilg'or texnologiyadadir.

3.O'spirinlardagi motivlar va qadriyatlar do'stlik va sevgi-muhabbat, jamoatchilik ishlaridagi faolligi va dunyoqarashning shakllanishi.

Uchinchi savolning bayoni:

Rossiya psixologlari I.V.Straxov bilan A.L.Shnirmish tadqiqotlarining ko'rsatishicha, o'spirinlik yoshidagi do'stlik o'smirlik yoshidagi do'stlikdan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

1) O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chuqurroq bo'ladi, Bularda - oshkoraliq, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko'rsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga yordam berish, o'zaro hurmat, bir-birini tushunish va hokazo.

2) Do'stlik hislari, ancha sermazmun bo'lib, qiziqishlar faoliyatning keng doirasini qamrab oladi.

3) Do'stlik emotsional bo'lib, do'sti kechirayottan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha butun umr bo'yи davom etadi. O'rtoqlik munosabatlari jamoani jipslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. Yonidagi o'rtog'ining borligini his qilishning o'ziyoq qiyinchiliklarni engishiga yordam beradi. O'spirinlar do'stlik, samimiylilik, emotsional sofdillik kabi xislatlarni birinchi o'ringa qo'yishadi.

O'spirinlik yoshida alohida bir his- sevgi paydo bo'ladi. Bu maktab o'quvchisining emotsional hayotida yangi bir holat hisoblanadi. O'spirinlik sevgisi sof, pokiza, beg'ubor, xilma-xil kechinmalarga boy, muloyim, hayolga berilish va samimiyat belgilariga ega bo'ladi. Yigit va qizlarimiziing sevgini boshdan kechirishida bir-birlarini hurmat qilish, do'stlik, o'zaro yordam, bir-birini tushunish kabi xislatlar xarakterli bo'lib, ular bir-birlaridagi yuksak ma'naviy sifatlarni qadrlaydilar. Ikki jins o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'spirinlarda sevgi hissi bir qancha holatlarga boqliq. Birinchidan - jinsiy etilish; ikkinchidan - ishonadigan, suyanadigan va har qanday nozik masalalar bo'yicha gaplashish mumkin bo'lgan do'stga ehtiyoj; uchinchidan - bu tabiiy insoniy ehtiyayoj hisoblanib, inson ko'pincha o'zini yolg'iz his qilganida kuchli emotsional bog'liqlikka intiladi.

4.Ijtimoiy va ahloqiy me'yorlarning shakllanishi.

To'rtinchi savolning bayoni:

O'spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his-tuyg'ularning boyligi, xilma-xilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsiyal munosabatda bo'lishi bilan ajralib turadi.

Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy xislarning rivojlanishi ayniqsa harakterlidir. O'spirinlarda ahloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, ahloqiylik va ahloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Xozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarga xos bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yosolaridir.

O'spirinlar ongli ravishda egallangan ahloq normalari asosida o'z hatti-harakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirinning o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bolada tashqi olamdag'i predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilar o'z tanasi bilan farq kila boshlaganda vujudga keladi;
2. ikkinchidan, o'zining shaxsiy "Men" ligini aktiv faoliyati asosida anglashi;
3. uchinchidan, o'zining psixik xususiyati va hislatlarini anglashi;
4. to'rtinchidan, ijtimoiy, ahloqiy o'z-o'ziga baho berishning ma'lum sistemasini anglashi.

O'spirinlik davrida jismoniy rivojalanish xususiyatlari.

O'spirinlik davrida balog'atga etish nihoyasiga etadi.

Yigit va qizlar 18 yoshda jismonan etuklikka erishadi. Ularning jismoniy rivojlanishi kattalarnikidan deyarli farq qilmaydi. Endi organizmning gurkirab o'sishi va rivojlanishi asosan to'xtaydi. Jismoniy rivojlanishning "tinch" davri boshlanadi. Organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalarining takomillanishi nihoyasiga etadi. O'spirinlarning jismoniy baqquvat, mehnatga qobiliyatli bo'lishi ularda bir qator jismoniy va aqliy ishlarni mustaqil bajara olish xususiyatining tarkib topishiga ta'sir etadi.

17-18 yoshli qiz va yigitning bo'yiga o'sishi, og'irligining ortishiga qaramay sport bilan haddan tashqari ko'p shug'ullanishi yoki o'ta og'ir jismoniy mehnat qilishi uning organizmida, ayniqsa, suyaklarida yomon iz qoldiradi. O'spirinlarning o'z yoshi va kuchiga yarasha jismoniy mehnat, fizkultura bilan muntazam shug'ullanishi hayotiy ahamiyat kasb etadi. O'spirinlik davrida uning organizmi mustahkamlanishi kerak. Bu davrda o'spirinning jismoniy normal rivojlanishiga ahamiyat bermaslik yoki uni o'z yoshi va kuchiga mos kelmagan ish bilan band qilib qo'yish nihoyatda zararlidir. Organizmdagi bu o'zgarishlar faqat o'spirinning og'irligiga, bo'yiga mos bo'lmay, balki o'pka, yurak, qon tomirlariga ham, asab tizimining faoliyatiga ham ta'sir etadi. O'spirinlarda yurak charchashi-harsillash, yurakning to'xtab-to'xtab ishlashi kabi hollar asta-sekin yo'qolib boradi. Bunday hollar bo'lmasligi uchun o'spirinning asab tizimi sog'lom bo'lishi kerak.

Demak, yigit va qizlar uchun jismoniy mehnat, aqliy faoliyat va dam olishni to'g'ri yo'lga qo'yish juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda o'spirinning asab tizimida ham, faoliyatida ham o'zgarish bo'ladi. Bu o'zgarish miya hajmining kengayishi bilan bog'liq bo'lmay, balki miya xujayralari tuzilishining rivojlanishi bilan ham bog'liqidir.

O'spirinlikda bosh miya po'stlog'idagi xujayralarning tuzilishi katta kishilarning miya po'stlog'i xususiyatiga asta-sekin yaqinlashadi. Bosh miya po'stlog'ining atroflarida asab bog'lanishlarining soni ko'payadi. O'qish va mehnat qilish natijasida bosh miya yarim sharlarida analitik va sintetik faoliyatning rivojlanishiga imkoniyat tug'iladi. Bu holat, o'z navbatida tashqi ta'sirni aniq ajrata oladigan xususiyatni o'stira oladi, farq qilish xarakteridagi (differentsiallashgan) tormozlashni vujudga keltiradi. Ularda abstraktlash, atrofdagi voqeа va hodisalarни umumlashtirish qobiliyatining o'sib borishini, aqliy faoliyatida analitik va sintetik jarayonlarning murakkablashishini ko'rish mumkin. Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'spirinlarda bosh miya yarim sharida tashqi qo'zg'atuvchilarga nisbatan ta'sirlanishning haddan tashqari kuchayganligi aniqlanadi, bunda normal faoliyat buziladi. Bunga asosan o'qish rejimining buzilishi, kam uslash, charchash, chekish, qattiq ishslash, tartibsiz ovqatlanish va boshqa odatlar sabab bo'ladi.

O'spirinlarda bilish jarayonlarining o'sishi va sifat jihatdan o'zgarishi.

O'spirinlarning bilish jarayonlari ta'lim va unumli mehnatning hal qiluvchi ta'siri ostida taraqqiy etib boradi. Uning taraqqiysi bilan o'quv faoliyati bir-biriga chambarchas bog'langan: bir tomondan o'quv faoliyati bilish jarayonlarini taraqqiy ettirsa, ikkinchi tomondan, taraqqiy etib va murakkablashib boruvchi bilish jarayonlari o'quv faoliyatiga munosabatni o'zgartiradi.

O'spirinlik yoshida o'qishga munosabat keskin o'zgaradi. O'qish ko'proq ongli, ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lib qoladi, ko'pchilik yigit va qizlar ma'lum ixtisoslikni tanlab o'qiydilar, yangi bilim, atama va tushunchalarni zavq bilan o'zlashtiradilar, mas'uliyatni his qiladilar, xalqqa xizmat ko'rsatish ishtiyoqi o'qishning asosiy motivi bo'lib qoladi. Bu vatanparvarlik tuyg'usinining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, bu davrda o'spirinlarning o'qituvchi bahosiga munosabati o'zgaradi. Bahoni oshirib yoki kamaytirib qo'yish ularni xayajonlantiradi va hatto fanga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi.

Yoshlik davrida aqliy taraqqiyotda ham katta o'zgarish ro'y beradi. Tez takomil etayotgan ong barcha bilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatib, ularni mukamallashtiradi. Mushoxada qilish qobiliyati bolalarning qiziqish, idrok va xotira jarayoni bilan shakllanadi.

Takrorlashga asoslangan so'zma-so'z yodlab olish bu yoshda keng tarqalmaydi. So'zma-so'z yodlab olish qanday alohida hollarda zarurligini (ba'zi bir qat'iy ta'riflar, ifodalar va qoidalarni yodlash) o'quvchilar yaxshi tushunadilar. O'spirinlar esda saqlab qolish usullaridan reja matnlarini, jadvallarni, ma'ruzalarni tuzish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish va ostiga chizish, ilgari ma'lum bo'lgan fikrlarga taqqoslash, solishtirish usullaridan o'smirlarga qaraganda beqiyos darajada keng sur'atda foydalanadilar. Shu bilan bir qatorda, o'smirlar ba'zan ma'nosiga tushunib yodlash usullariga, masalan, o'quv matnining ayrim qismlarini qayta esga tushirish bilan almashinadigan takrorlash usuliga e'tiborsizlik bilan qaraydilar, bu usullar ularning fikricha, "kichik o'quvchilarga" xos. O'spirinlar esda olib qolishga odatda alohida-alohida yondoshadilar, nimani so'zma-so'z esda olib qolish, nimani esda olib qolmasdan faqat tushunib olish kifoya qilishini qayd qiladilar.

Yuqorida xotira to'g'risida aytilgan ko'p narsalarni o'spirinlarning diqqatiga oid tavsiflarga ham to'la asos bilan tadbiq qilish mumkin. Qiziqishlarning differentialsallashganligi diqqatning tanlovchanligini, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatning roli ancha ortishini belgilab beradi. Lekin ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat faqat epizodik tarzda vujudga kelishi bilan o'spirinlik yoshidan farqli o'laroq, o'smirlilik yoshida barqaror hayotiy qiziqishlar mavjud bo'lgan sharoitda bu diqqat doimiy bo'lishi mumkin. O'spirinlik yoshida ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat bilan bir qatorda ixtiyoriy diqqatning ahamiyati ham ortadiki, uni I.V.Straxov ko'rsatib o'tgan bo'lib, u o'quvchilar o'quv materiali bilan bevosita qiziqmasdan, o'rganilayotgan hodisalarning hayotiy ahamiyatini tushunib unga diqqatlarini qaratishlariga oid holatlarni tekshirgan.

Diqqatni ko'chirish va taqsimlash qobiliyati sezilarli ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Xususan, diqqatni taqsimlash bir vaqtning o'zida o'qituvchining tushuntirgan narsalarini ham tinglash, ham ma'ruza –suhbatni yozib borish, o'z javobining ham mazmunini, ham shaklini kuzatib borish mahoratining shakllanishida o'z aksini topadi. Letsey va kollej o'quvchilari o'quv ishlari jarayonida o'zlariga ta'sir qiladigan chalg'ituvchi narsalarga o'smirlardan ko'ra ko'proq qarshi turishga, bardosh berib engishga qodirdirlar.

Xulosa tariqasida diqqatning o'spirinlar uchun xarakterli bo'lgan yana bir xususiyatini, uning tanlovchanligini ham aytib o'tmoqchimiz. O'spirinlarning ayrimlarida diqqatni tanlovchanligi shu narsada ham ko'rindiki, ular o'quv materialini idrok qilar ekanlar, hamma vaqt uning ahamiyatiga baho berishga, uni amaliy jihatdan ahamiyatliligi nuqtai nazaridan idrok qilishga harakat qiladilar. O'quvchi mazkur bo'limning muhimligini aniqlab olgach, uni aktivlik bilan idrok qiladi. Agar unga material muhim bo'lib tuyulmasa, u o'z diqqatini susaytiradi. Shunisi qiziqki, diqqatning bu o'ziga xos harakati ko'pincha atayin ro'y bermaydi: O'spirin hamma vaqt ham o'z diqqatining ikkilanishlari haqida o'ziga hisob beravermaydi. Odatta o'spirinning diqqati shu sohadagi muayyan bilimlarni amalda tatbiq etish haqida gap borgan vaqtagina ixtiyorsiz ana shu predmetga qaratiladi.

O'spirin barcha faoliyat bosqichida mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir.

O'spirinlarga adabiy qahramon qiyofasini ifodalash, asar mohiyati, mazmuni va g'oyasi yuzasidan mustaqil holda hukm va xulosa chiqarish topshirilganda ular, birinchidan, asarni o'qishgan, biroq hech qanday xulosa chiqarishmagan, ikkinchidan, mavzuga ijodiy yodoshmasdan o'qituvchining har bir so'zini esda saqlab qolib, hech o'zgarishsiz qaytadan aytib berishga harakat qilishgan uchinchidan, o'zlari mактабдан va sinfdan tashqari faoliyatlarida eshitganlari, o'qiganlari bilan o'qituvchining axboroti, ma'lumoti, xabarni umumlashtirib javob berishgan, to'rtinchidan, o'z fikrlarini bayon etishga qiynalganlarida asardan ko'chirma keltirishgan O'spirinlarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to'garak va fakultativ mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'spirin o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishda fan o'qituvchilari, guruh rahbarlarining siymolari muhim rol o'ynaydi, ular o'spirinlarda o'rganilayotgan narsa va hodisalarning ob'ektivligi, haqqoniyligi, to'g'rililigiga ishonch xosil qilishlari, ulardan qanoatlantirishlari va ularni isbotlashga o'rgatib borishlari zarur.

Ikkinchidan fan o'qituvchilari ularni narsa va hodisalar to'g'risida original fikr yuritishga yo'llashlari kerak. Uchinchidan, o'quvchilarning mashg'ulotlarda qo'llanaverib, ma'naviy eskirgan, bir qolipdagi so'zlardan, iboralardan foydalanişlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. To'rtinchidan, fan o'qituvchilari o'spirin yigit va qizlarga bilimlarini amaliyotga tatbiq qilishni o'rgatishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga harakat qilishlari lozim.

O'spirin fan asoslarini o'qish va tushunish orqali mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozaraga o'rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ularda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidek keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojiana boshlaydi. Tafakkurning tanqidiyligini tarbiyalashda o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos tipologik xususiyatiga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, mulohaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtai nazariga, o'qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyati va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarini qanchalik bilishiga, mavjud o'qish ko'nikmasi va malakalariga alohida e'tibor berishi lozim.

O'spirin tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda o'spirin ongida tevarak –atrofdagi voqelik bo'yicha mulohazalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari o'zaro bog'lanishi va munosabatlari o'spirinning fikrlashida to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o'zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog'liq bo'ladi. O'spirin narsa va hodisalarning eng muhim alomat va xususiyatlarini mujassamlantirsa, o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi mulohazalarini bildira olsa, buni keng tafakkur deyiladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda, o'spirin tashabbuskorlik bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi va ularni hech kimning yordamisiz oqilonqa usullar bilan bajara olishi tushuniladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda o'spirinning o'z oldiga yangi g'oya, muammo va vazifalar qo'yishini, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni ham o'zi topishiga intilishini anglaymiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni bajarishda yangi usullarni tez izlab topish va qo'llay olishda, eskirgan vositalardan qutulishda namoyon bo'ladi. Agar u muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli yangi fikrlarni aytgan bo'lsa, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishda yordam bersa, buni samarador tafakkur deyiladi. Tafakkurning tezligi savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi.

O'spirin tafakkurining tezligi qator omillarga: birinchidan, fikrlash uchun zarur materialning xotirada mustahkam saqlanganligi, uni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishning tezligiga, turli his – tuyg'ularning mavjudligiga, o'quvchining diqqati va qiziqishiga: ikkinchidan, o'spirinning bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalariga bog'liqdir.

O'spirinlik davrida o'qish faoliyati o'smirlik davridagidan farq qiladi. O'spirin materialni tushunib va uni hayotga tadbiq eta bilishning zarurligini tushuna boradi, tajribasi ortadi va bilimning mustaqil hayotga nima keragi bor degan savolni qo'ya boshlaydi. Shuning uchun ham dars hayot bilan, tajriba bilan bog'lansagina o'quvchida qiziqish uyg'otadi.

Yana shu narsa xarakterlikni, bu davrga kelib o'spirinlar o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishni - ilmini oshirishi yoki kasb-hunar egallashni tanlagan bo'ladilar, o'quvchilarning qiziqishlari ularning ehtiyojlari, intilishlari asosida tarkib topadi. Bunday o'quvchilar ko'p hollarda boshqa fanlarni o'zlashtirishga etarli ahamiyat bermaydilar. Fan o'qituvchilari bu holning tezda oldini olishlari zarur. Buning uchun darsda o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga harakat qilish, savol-javoblar, munozaralarni, yangi pedagogik texnologiyani keng qo'llash kerak. Har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'ota olishi, mazkur fanning uspirinning kelajak hayotida muhim ahamiyat kasb etishini ular ongiga etkaza bilishi kerak. O'spirinlarning o'rganayotgan fanlarining faqat nazariy tomonlarini emas, ularni amaliyat bilan, hayot bilan bog'lashga o'rgatish kerak.

Bu davrda o'spirinlar ko'p narsaga qiziqib ochiq savollar bera boshlaydilar, ularning savollari javobsiz qolmasligi, ularni o'z ichki kechinmalarini yashirmaslikka o'rgatish kerak.

O'spirinlarda materialni chuqur, keng o'zlashtirishda xayol jarayoni muhim o'rinni tutadi. Ma'lumki, o'quv materialini o'zlashtirishda tasavvur xayoli katta rol o'ynaydi. Ko'pgina o'quvchilar tarixiy voqealar, geografik ma'lumotlar, adabiy obrazlar, hato, matematik bilimlarni yaqqol tasavvur eta olmasa, ularning ma'nosini chuqur tushuna olmaydi. Yigit va qizlarda tasavvur xayoli bilan birga ijodiy xayol ham muhimdir. Masalan, asbob v mashinalarning texnik konstruktsiyasini yasashda, dramatik to'garaklarda va boshqa qator faoliyatlarda bu xayollardan foydalilanildi. Orzu xayolning maxsus shaklidir. Yoshlik davridagi orzu shaxsiy sifatlarning shakllanishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'spirin shaxsining shakllanishi

O'spirin shaxsining har tomonlama kamol topishida aqliy faoliyatlaridagi o'ziga xos xususiyatlardan tashqari, ularning hissiyotlari, iroda va shaxslaridagi o'ziga xos individual xususiyatlarning roli ham nihoyatda kattadir.

O'spirindagi o'zini anglash turmush, o'qish, mehnat va sport faoliyatlarini taqozosi bilan namoyon bo'ladi. O'quv dargohidagi odatlanilmagan vaziyatning, shaxslararo munosabat va muloqot ko'lamining kengayishi o'zining aqliy, ahloqiy, irodaviy his-tuyg'ularining xususiyatlarini oqilona baholash, qo'yilayotgan talablarga javob tariqasida yondoshish o'zini anglashni tezlashtiradi. Ular avval, o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'z shaxsiy fazilatini, xulq-atvorini, aqliy va jismoniy mehnat faoliyatini taxlil qilish, qiyosiy baholash mayli kuchayadi. O'spirin o'smirga qaraganda o'z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to'laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrish illatiga duchor bo'ladi, o'rtoqlari va o'qituvchilariga g'ayritabiyy munosabatda bo'la boshlaydi, ayrim o'spirinlar esa, o'z xatti –harakatlari, aqliy imkoniyatlariga past baho beradilar.

O'spirinlik yoshida yana bir xususiyat – murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissi, o'z qadr –qimmatini e'zozlash, sezish va fahmlashga moyillikdir. Masalan, o'spirin yigit va qiz sezgirlik deganda nozik, nafis holatlarning farqiga borish, zaruratni tez anglash, xolisona yordam uyushtirishni shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi.

O'spirin o'zining ezgu niyatini baholashga jamoada o'z o'rnini belgilash nuqtai nazaridan yondoshadi, chunonchi, "O'zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?" "Jonajon respublikam, ota-onamga munosib farzand bo'la olamanmi?" "Jamiyatning taraqqiyotiga o'z ulushimni qo'sha olamanmi?" degan savollarga javob qidiradi. O'qituvchi unga juda ustalik, ziyraklik bilan yordam berishi, har bir muloxazasida pedagogik – psixologik nazokatga riosa qilishi kerak, shunda o'spirin yigit- qizlarda o'z kuchiga va imkoniyatiga ishonch hissi paydo bo'ladi.

O'spirin o'quvchida o'zini anglash negizida o'zini o'zi tarbiyalash istagi tug'iladi va bu ishning vositalarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin o'zlarining o'zini o'zi tarbiyalash psixologiyasidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni kattalarga xos ko'p qirrali umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'spirinlarda ideallar bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o'zlarida yuksak fazilatlarni (sifatlarni) gavdalantirishni orzu qiladilar. Biroq yigitlar bilan qizlar o'rtasida ideal obrazini tanlashda katta farq bo'ladi. Masalan, qizlar ko'pincha mehnatkash ayolning jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlangan qiyofalarni ideal darajaga ko'taradilar. Ammo ayrim o'quvchilar ideallashtirishga arzimagan salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslarga taqlid qiladilar –baquvvat yo'lto'sar, kishilarni laqqilatib ketadigan qallob, kinofilmagi "mafija boshlig'i" kabilar emasligini tushuntirish kerak.

O'spiringa o'z shaxsining xususiyatlarini, xarakter xislatlarini ob'ektiv ravishda taxlil qila bilishda, irodaviy sifatlarini tarbiyalashning aniq maqsadi va sabablarini anglab etishida, o'zining nuqsonlarini aniq his qilish va shunga qarab xarakterning qanday xususiyatlarini o'zida rivojlantirishi zarurligini, qaysi xususiyatlarga esa barham berishi kerakligini hal etishda yordam ko'rsatish zarur.

Shuni nazarda tutish kerakki, o'spirinlar ba'zan (garchi o'smirlarga qaraganda ancha ozroq bo'lsada) o'zlarida ayrim irodaviy sifatlarni noto'g'ri usullar bilan rivojlantirishga harakat qiladilar. Ular soxta qo'rmasliklari bilan o'zlarini botir qilib ko'rsatishga, beixtiyor xatarli xatti-harakatlarga moyil bo'ladilar. O'zlarida qo'rmaslikni, irodani tarbiyalamoqchi bo'lib, ba'zan elektr simining ochiq joylarini ushlaydilar, baland qirg'oqdan daryoga sakrab, hayotlarini xavf ostida qoldiradilar. Matbuotda xabar qilinishicha, o'ninchи sinf o'quvchilaridan biri peshonasini tirishtirmasdan olov tepasida qo'lini tutib turgan va o'z irodasini chiniqtirmoqchi bo'lgan. Yana bir safar ikkinchi qavatdan sakrab, o'rtoqlarini qoyil qoldirmoqchi bo'lgan, bir kuni ximiya darsida esa sog'liq uchun zararli bo'lgan bir necha tomchi aralashmani yutib yuborgan, natijada kasal bo'lib qolgan. Yana bir o'spirin yigit bo'ron turgan paytda daryo bo'ylab mutlaqo keraksiz va juda xatarli sayohat qilgan hamda muzdek suvda halok bo'lismiga oz qolgan.

O'spirinlarga bunday mashqlarning hech bir ijobiy natija bermasligini tushuntirish zarur. Irodali bo'lish, irodaviy sifatlarni chiniqtirish hayotda uchrab turadigan haqiqiy qiyinchiliklarni engish uchun zarurligini, sun'iy, soxta to'siqlarni

engishni mashq qilish yo'li bilan hech narsaga erisha olmasliklarini ular ongiga etkazish, shuningdek, ularni oqilona, maqsadga muvofiq, samarali usullardan foydalanish yo'llari bilan tanishtirish, haqiqiy chiniqish malakalari bilan qurollantirish –jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish, aqliy jihatdan o'zini chiniqtirish (o'quv topshiriqlarini o'z vaqtida bajarib borish) mehnat ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirishning o'spirin yigit va qizlar keljak hayoti va faoliyatida muhim o'rinni tutishini, xarakter kundalik qiyinchiliklarni engishda chiniqishini tushuntirish kerak.

O'spirinlarda irodaviy sifatlarning va xarakter xislatlarini tarbiyalash o'quv dargohidagi jamoatchilik tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida amalga oshishi shart. Zero, o'spirin shaxsining takomillashuvi jamoada munosib o'rinni egallash, ijtimoiy burchni anglash va foydali mehnatga qiziqishiga xizmat qilishi kerak. Jamoaning qiyinligi borgan sari ortib boradigan topshiriqlarini bajarishga odatlanar va tobora ortiq mustaqillikni hamda tashabbuskorlikni talab qiladigan harakatlarni amalga oshirar ekan, o'spirin o'zida zaruriy irodaviy sifatlarni tarkib toptiradi, muvofaqqiyatli irodaviy harakatlar tufayli o'z kuchiga ishonch xosil qiladi, o'sayotganini sezadi va boshqalar bilan birgalikda qiladigan faoliyatidan tobora ko'p qanoatlanish hissini kechiradi.

O'spirinlarda balog'atga etish tuyg'usi takomillashib borib, o'zining o'rnnini belgilash va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg'usiga aylanadi. Bu hol uning o'zini alohida shaxs ekanligini, o'ziga xos xislatini tan olinishiga intilishida aks etadi. Bunga esa modaga mayl qo'yish, murakkab tasviriy san'atga, musiqaga, kasbhunarga qiziqishini namoyish qilish yaqqol dalildir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'spirin qizlar katta yoshdagilarning ta'siriga osonroq beriladilar, o'spirin yigitlar esa kattalardan ko'ra tengdoshlari ta'siriga ko'proq beriladilar. Shuning uchun o'spirin shaxsining tarkib topishiga o'quv dargohidagi muhit, xususan guruh jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqur boshliqlar kuchli ta'sir etadi, guruh jamoasi umumiy maqsadni belgilashga, jamoa a'zolari o'rtasida iliq munosabatlar o'rnatishga, shaxsiy va jamoatchilik munosabatlari rivojlanishiga imkoniyatlar yaratadi. Jamoa ta'sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-toqatlik, kamtarlik, intizomlilik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardonlik, dangosalik, qo'rkoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ahillik, birlik, yagona maqsadga intilish, iliq psixologik iqlim mavjud salbiy xatti-harakatlarni yo'qotish uchun xizmat qiladi.

O'spirin shaxsining shakllanish jarayonida jamoat tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning yuksak talablar qo'yishi natijasida o'spirinlarda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyatlilik, tanqidiylik singari fazilatlar barqarorlashadi, g'oyaviy-siyosiy vatanparvarlik, hamkorlik tuyg'ularini mukammal bosqichga ko'taradi. Ana shulurni kuzatib tadqiq etgan psixolog L.I.Umanskiy o'spirinlardagi tashkilotchilik qobiliyati o'zaro uzviy bog'liq quyidagi qismlardan iboratligini ta'kidlaydi:

1. Tashkilotchilik tuyg'usi (psixologik topqirlik, kashfiyotchilik, odob, amaliy, aql-idrokda o'z ifodasini topadi)
2. Tengdoshlariga emotSIONAL-irodaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati (muammolar echimiga jalb qilish, ularning kuch g'ayratini biriktirish)

3. Tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (emotsional his-tuyg'u, ijobiy munosabat, qat'iy qiziqish va x.k)

L.I.Umanskiyning fikricha, o'spirin namunali tashkilotchi bo'lishi uchun unda quyidagi xislatlar bo'lishi kerak: a) ahloqiy xislatlar –jamoatchilik, samimiylik, tashshabuskorlik, mehnatsevarlik; b) irodaviy xislatlar-qat'iyat, batartiblik, intizomlilik; v) emotsional hislar –hushchaqchaqlik, yangilikni his etish, o'z kuchiga ishonch va boshqalar.

O'spirinlarni yana bir muhim xislati ularda yuksak darajada do'stlik, o'rtoqlik, ulfatchilik, muhabbatning vujudga kelishidir. Shu his-tuyg'ular yigit va qizlarning ma'naviyati va psixologiyasida qanday tus olishiga qarab, tarbiyaviy chora va tadbirlarni amalga oshirish yaxshi natija beradi. Bu yoshdagi do'stlik o'zidan kichiklar orasidagi do'stlikdan o'z motivlarining chuqurligi va uning oldiga qo'yilgan talabalarning yuksakligi bilan farq qiladi, beg'arazligi, bir-biriga ishonchi, doimiy yordamga tayyorligi, birqalikdagi faoliyatlarida bab-baravar harakat qilish bilan ajralib turadi. Psixolog tili bilan aytganda, do'st-bu "Alter ego", ya'ni ikkinchi "Men" bo'lib, u o'sha paytdagi "Men"ning bir qismi sifatida idrok qilinadi. Bu shunday odamki, shaxs u bilan barcha dardu-hasratlarini muhokama qiladi, muammolarini uning oldiga to'kib soladi. Do'stlikni asosiy sharti –o'zaro bir-birini tushunish, shu shart bajarilmasa, do'stlik haqida gap bo'lishi mumkin emas. Agar ana shunday tushunish bo'lsa, do'stlar gap –so'zsiz ham, qiliqlar, yuz ifodasi, yurish-turishiga qarab ham bir-birlarini tushunib olaveradilar. Do'stlikning boshqa intim, emotsional xislatlardan farqi shuki, u odatda bir jins vakillari o'rtasida bo'ladi va do'stlar odatda 2 kishi, ayrim hollarda 3-4 kishi bo'lishi mumkin. Ikki jins vakillari o'rtasida ham do'stlik bo'lishi mumkin. Faqat u ko'pincha tanishuv bilan sevgi- muhabbat o'rtasidagi oraliqni to'ldirishga xizmat qiladi. do'stlarga xos bo'lган sifatlarga bir-birini ayash, g'amxo'rlik qilish, shaxsiy muammolarga befarq bo'lmaslik, qo'llab quvvatlash, mehr kabilar kiradi. Ularing ardoqlanishi do'stlikni uzoq davom etishi va ikkala tomon manfaatiga mos ishlarni amalga oshirishga undaydi. Do'sti yo'q o'spirin o'zini juda baxtsiz, nochor hisoblaydi. Ayniqsa, agar do'sti xoinlik qilsa yoki uning kutishlariga zid ish qilsa, bu holat juda qattiq ruhiy iztiroblarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham har bir yosh o'z do'stini xafa qilib qo'ymaslik, uning ko'ngliga qarb ish qilishga harakat qiladi. Agar ilk o'spirinlikda do'stlik mazmunan ancha yuzaki, bevosita muloqot maqsadlari asosida tashkil etilgan bo'lsa, yosh o'tgan sari u hayot mazmuni va yuksak qadriyatga aylanib boradi.

Agar do'stlik attraktsiya (lotincha attrahere "yoqtirish", "o'ziga jalb etish" bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabat asosida yoqishi va yoqtirishi, o'zaro moyillikni tushuntiruvchi holat) namoyon bo'lishining birinchi ko'rinishi bo'lsa, sevgi qalblar yaqinlashuvining muhim alomatidir. Sevgi bu nafaqat hissiyot, balki boshqalarni seva olish qobiliyati hamda sevimli bo'la olishdir. Shuning uchun ham o'spirinlar uchun bu hissiyotning borligi juda katta ahamiyatga egadir. Aynan o'smirlik va ilk o'spirinlikdagi sevgi beg'ubor, samimiy bo'lib, yosh o'tgan sari uning mazmuni boyib, boshqa qadriyatlar ham o'rin egallay boshlaydi, o'smir bilan o'spirin sevgisida ham sifat farqlari bor. Masalan, o'smirlar bir-biriga mehr qo'yganda ko'proq tashqi qiyofalari, intelektual imkoniyatlari va ijtimoiy mavqelariga e'tibor beradilar, haqiqiy sevgi o'spirinlik yillarining oxirlarida paydo

bo'lib, uning asosiy mezoni endi tashqi belgi va afzalliklar emas, balki insoniy fazilatlar hisoblanadi.

O'spirinlik davrida vujudga keladigan his-tuyg'ularni to'g'ri iroda etish, yigit va qizlarga sevgi munosabatlarining naqadar nozikligini, bo'lajak oilaning baxti haqidagi tushunchalarni to'g'ri anglatish yaxshi natija beradi. Yigit va qizlarning ma'naviy olamida uchraydigan ayrim ziddiyatlarni bartaraf etishda, ularni keljakda oilaning taqdiriga yuzaki munosabatda bo'lmaslikka o'rgatishda va oila qurishga tayyorlashda jinsiy tarbiya muhim ahamiyatga molikdir.

Ota-onalar va o'qituvchilar yigit va qizlarga sevgining ikki turi –shahvoniy tuyg'u zaminida vujudga keladigan beqaror sevgi va chinakam do'stlik, insoniy munosabatlar asosida paydo bo'ladigan haqiqiy sevgi borilagini tushuntirishlari lozim.

O'spirin yigit va qizlarga erkak va ayolning munosabatlarini yotig'i bilan tushuntirish ota-onsa, shifokor, psixolog va o'qituvchilarning muhim vazifalaridir. O'spirinlarni turmush qurishga tayyorlashda, o'quv yurti bilan oilaning hamkorligi zarur, ro'y berishi mumkin bo'lgan ruhiy, jismoniy iztiroblarning oldini olishda hamkorlikka tayanib ish ko'rish kerak bo'ladi.

Ota-onaning o'zaro yaxshi munosabatlari, mehribonligi, g'amxo'rligi oiladagi farzandlarning munosabatlarini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro'zg'or yumushlarini ham o'rgatishi lozim. Aks holda nimalar bo'lishini ma'naviy qashshoq, engil-elpi hayotga ko'nikib, tubanlik botqog'iga botib qolgan ayrim ayollarning ayanchli qismatidan misollar keltirish orqali tushuntirish zarur.

Oiladagi tarbiyaviy ishlar matabda mustahkamlanishi va rivojlantirilishi, o'spirinlarni turmush masalasiga ilmiy nuqtai nazardan qarashga o'rgatish, yigitning burchi qizni avaylash, uning sharm-hayosini paymol qilmaslik, taqdiriga yuzaki qaramaslik, qiz esa o'z navbatida uyatchan, sharmi-xayoli, qizlarga mos g'ururli bo'lishi zarurligini guruh rahbari, psixolog, o'qituvchilar o'zaro suhbat, savol-javob, munozaralar uyushtirish orqali o'spirin yigit-qizlar ongiga etkazishlari kerak.

Ko'pchilik ota-onalar o'quvchilik yillarda paydo bo'ladigan sevgi hissidan biroz cho'chiydilar, uni cheklashga, hattoki, qizlarga taqiqlashni ham afzal ko'radilar. Lekin aynan shu hisning borligi yoshlarni ulug'vorroq, sammimiyroq, har narsaga qodir va kuchliroq qiladi.

Olimlar sevgining yoshlarda paydo bo'lishi va uning psixologik taxlilini o'rganishgan. Ma'lum bo'lishicha, sevgining dastlabki bosqichi –o'zaro yoqtirib qolish –simpatiya bo'lib, bunda asosan sevgi ob'ektining tashqi jozibasi rol o'ynaydi. Masalan, o'zbek xonatlasini chiroqli qilib tiktirib kiyib olgan qizchaning davrada paydo bo'lishi, tabiiy ko'pincha yigitlarning e'tiborini beixтиyor tortadi. Ularning ko'pchiligi birdaniga, bir vaqtida aynan shu qizchani "yoqtirib" qolishadi. Lekin davradagi qaysi yigit unga ham ma'lum jihatlari bilan yoqib qolsa, o'zaro simpatiya shu ikki shaxs o'rtasida ro'y beradi. Vaqtlar o'tib bu ikki yosh bir necha marta uchrashib turishsa, oddiy yoqtirish sevgiga aylanishi mumkin.

Yana shu narsa aniqlanganki, sevgi bilan bog'liq hissiyotlar har bir jins vakilida o'ziga xos xususiyatlarga bog'liq ekan. Masalan, o'spirin yoshlar qizlarga

nisbatan romantizmga beriluvchan, tezgina yaxshi ko'rib qoladigan bo'lisharkan. Ularning tasavvuridagi sevgi ancha romantik, ideal ko'rinishga ega bo'ladi. Qizlar esa yigitlarga nisbatan sekinroq sevib qolishadi, lekin sevgini unutish, undan voz kechish ularda osonroq kecharkan. Agar yigitlar bir ko'rishdayoq yoqtirib qolgan qizni sevib ham qolish ehtimoli yuqori bo'lsa (eksperimentlarda sevgi bilan simpatiyaning korrelyatsion bog'liqligi kuchli), qizlarda bunday bog'liqlik ancha past ekan, ya'ni hamma yoqtirganlarini ham sevmas ekan, umuman simpatiyaning paydo bo'lishi biroz qiyin ekan.

Bundan tashqari, o'spirinllik yillardagi sevgi va muhabbat hissi nafaqat qarama-qarshi jins vakiliga qaratilgan bo'ladi, balki aynan shu davrda ota-onasining qadrlanishi va ularga nisbatan sevgi – muhabbat, yaqinlari – aka-ukalar, opa-singil, hayotda ibrat bo'ladigan kishilarni yaxshi ko'rish, Vatanni sevish kabi oliy hislar ham tarbiyalanadi. Shuning uchun ham haqiqiy yuksak muhabbat sohiblari bo'lmish yoshlarni tarbiyalash – jamiyatda insoniy munosabatlarni barqarorlashtirish, odamlar o'rtasida samimi yuksak munosabatlar o'rnatish va ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta'limning barcha bosqichlarida ma'naviy tarbiyaning ajralmas bo'lagi sifatida ana shunday samimi yuksak munosabatlarni tarbiyalash, targ'ib etish, kerak bo'lsa, ana shunday sevgi va sadoqat haqidagi kadriyatlarimizni ular ongiga singdirishimiz kerak. Sevgi va muhabbat hislari keng ma'noda – Vatanga, yurtga, borliqqa, kasbga va yaqin kishilarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Yuksak his - tuyg'ularning eng oliysi Vatan tuyg'usi bo'lib, u tuyg'u inson bolasining ilk yoshlik davridanoq ongga va qalbga singib boradi. Zero Vatan hissi, shu Vatanning egasi bo'lmish xalqini bilishdan, uning qadriga etishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak tushuncha bo'lib, birini his qilish uchun ikkinchisi bilish kerak. Shuning uchun O'zbekiston deganda o'zbek xalqini tushunamiz, o'zbek siz O'zbekistonni xayolga keltira olmaymiz. Vatan hissi – xalqni sevmoq, hurmat qilmoq, qadriga etmoq va e'tirof etmoqdirdir. O'zbekistonliklar uchun, o'zbekistonlik yoshlar uchun, shu yurt, shu tuproqni sevish, uning qadriga etish – buyuk ne'mat va shu bilan birga yuksak mas'uliyat hamdir.

O'spirinlarda e'tiqod va dunyoqarashning shakllanishi

E'tiqod shaxsning shunday ongli yo'nali shiki, unga o'z qarashlari, printsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin – Vatanga e'tiqod, dinga, kasbga, ahloqiy me'yordan, go'zalikka va shunga o'xshash. O'spirinlik yoshida ahloqiy e'tiqodning, ahloqiy ongning roli kuchayib borishi bilan ajralib turadi. Pedagoglar va tarbiyachilar yigit va qizlardagi ahloqiy e'tiqodning mazmuniga befarq qaramasliklari, demokratik ruhdagi to'g'ri ahloqiy e'tiqodning tarkib topishiga alohida e'tibor berishlari zarur. O'spirinlarning Vatanga, xalqqa, kasbiga, fanlarga, ahloqiy me'yordan bo'lgan e'tiqodi ularning mustaqil jamiyatdagi hayoti va faoliyati ta'siri ostida, jamoa ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi ta'siri ostida rivojlanadi, ahloqiy e'tiqodning mazmuni va mohiyatini ancha chuqur tushuna boshlaydilar. O'spirinlar ko'pgina ahloqiy tushunchalarning ijtimoiy jihatdan ko'p ma'noli ekanligi bilan bog'liq eng nozik tomonlarini ham sezishga qodirdirlar. Burch, vijdon, shaxsiy g'ururlik va o'zining qadar – qimmatini bilish tuyg'ulari

haqidagi eng murakkab tushunchalar o'spirinlarni chuqur va har tomonlama tushunib olish uchun etarlidir, ular o'spirinlardan shu jihatdan ham farq qiladilar.

Misollar keltiramiz.

O'spirinlar jamoa bo'lib muhokama qilish va fikr almashish jarayonida birlarini to'ldirib, o'qituvchining yordamisiz eng murakkab ahloqiy tushunchalarni juda tezlik bilan tasvirlaydilar va ularning mazmunini ochib beradilar.

“Vijdonlilik” tushunchasi (X sinf o'quvchisi) “Vijdonli kishi nima bilan ajralib turadi? Avvalo, u xalq mulkini va shaxsiy mulkni hurmat qiladi, hech qachon birovning narsasini olmaydi, munofiqlik qilmaydi, vijdonlik kishi hech mahal mug'ombirlik qilmaydi, yolg'on gapirmaydi, hamisha va hamma sharoitda haqiqatni gapiradi. Albatta, har – xil vaziyatlar bo'ladi. Masalan, dushmani (shaxsiy dushmani emas, balki jamiyatning, xalqning dushmanini) xiyla bilan engish va uni aldash mumkin, bu ham vijdonan qilgan ish bo'ladi. Agar ish manfaatlari talab qilgan holda dushmanha haqiqatni aytish vijdonsizlikdir. Vijdonli kishi o'z so'zida qattiq turadi, o'z ishiga halol munosabatda bo'ladi, unga o'zinging butun kuchini sarflaydi, o'z vazifalarini so'zsiz bajaradi. Bunday kishi o'ziga tanqid nazari bilan qaraydi va o'ziga talabchan bo'ladi, agar xatoga yo'l qo'ysa, uni oshkora tan oladi va uni to'g'rileydi. Yana bir narsa: hayotda hech qanday yomon ish qilmagan shu bilan birga yaxshi ish ham qilmagan va boshqalarning noto'g'ri xatti - harakatlariga befarq va o'tib ketgan kishini vijdonli kishi deb bo'lmaydi.”

“Faxrlanish” tushunchasi (kollej o'quvchisi) “Faxrlanish – kishining o'z mehnatini bekor ketmaganligini, Vatan foydasiga xizmat qilishini anglatadigan tuyg'udir. Bu – o'z muvaffaqiyat-larining yoki jamodagi boshqa a'zo muvaffaqiyatlarining quvonchini his etishdir. Agar sen yaxshi mehnat qilsang-u, hamma o'rtoqlaring yomon mehnat qilsa, haqiqiy faxrlanish bo'lmaydi. Haqiqiy faxrlanish – o'zini katta olish emas, kibrlanish, dimog'dorlik, boshqalarning soyasida o'zining alohida bo'lib ko'rinishi oson bo'lishi uchun ularning mag'lubiyatga uchrashini istab shuhratparastlik qilish emas.”

“Or-nomus” tushunchasi (XI sinf) “Or-nomus” odamni boshqalar ko'z o'ngida o'z obro'sini, mavqeini, shuhratini yoki uning o'zi a'zo bo'lib turgan jamoaning obro'sini, mavqeい va shuhratini saqlashga majbur qiladigan hisdir. Bu his barcha xatti-harakatlarda o'z dunyoqarashiga, e'tiqodiga amal qilishga undaydi, xushomad go'ylikka, benomuslik qilishga, o'zini va boshqalarni erga urishga yo'l qo'ymaslikka majbur qiladi. Bu his o'z xatti –harakatining nuqson siz bo'lishiga, ma'naviy soqlikka undaydi.

Bizning mamlakatimizda shaxsiy or-nomus jamoa or-nomusidan ajralmasdir: bir kishining or-nomusi – u ishlayotgan jamoaning or-nomusi va aksincha, jamoaning or-nomusi bir kishining or-nomusidir (tadqiqot materiallaridan).

O'spirinlarning hammasi ahloqiy tushunchalarni ana shunday yuksak darajada anglaydi deb ayta olmaymiz. O'spirinning e'tiqodi uning tevarak – atrofdagi voqelik ta'sirida rivojlanib borishdan to'g'ri ahloqiy qarashlar va tasavvurlar albatta tarkib topishi uchun demokratiya va mustaqillik sharoitida yashashning o'zi etarlidir, deb aslo xulosa chiqarmaslik kerak.

Psixologlar va pedagoglarning o'tkazayotgan ko'p sonli tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'pgina o'spirinlarning litsey yoki kollejlarni bitirish vaqtida kelib jamoa va tarbiyachilar tomonidan to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilmasdan turib

shakllanayotgan ahloqiy e'tiqodi hatto, noto'g'ri va etilmagan bo'lishi mumkin. O'spirinning ahloqiy e'tiqodiga to'g'ri g'oyaviy rahbarlik qilganda ham, tasodifiy holatlar, ba'zi bir o'rtoqlar, ko'pincha esa katta yoshdagi kishilarning noj o'ya xatti-harakatlari ham ta'sir ko'rsatishi mumkin (ta'sir ko'rsatmoqda ham). O'spirin yigit va qizlar hamisha ham o'zлari kuzatayotgan u yoki bu hodisalar va faktlarni, ba'zi bir adabiy asarlar, kinofilmlar, ayniqsa chet el filmlari mazmunini to'g'ri tushuna olmaydilar. Ba'zi alohida jiddiy hollarda noto'g'ri tarbiya, hayotdagi noqulay sharoitlar, vaziyatlar ta'sirida ba'zi bir yigit va qizlarda shunchaki ayrim yanglish fikrlar va noto'g'ri tushunchalar paydo bo'libgina qolmasdan, jamiyatimizga yot bo'lган ma'naviy printsiplar va ustakovkalar ham qaror topishi mumkin. Buning natijasida tegishli vaziyatlarda xatti – harakatlardagi salbiy holatlar, axloqsizlik, surbetlik, shaxsiy narsalar bilan ijtimoiy narsalar o'rtasida ichki ziddiyatlar va ixtiloflar. mehnatni hurmat qilmaslik kabi xususiyatlar kelib chiqadi. Bunda pedagog va psixologlarning asosiy vazifasi noto'g'ri e'tiqod va qaror topib bo'lган salbiy xatti – harakatlarni o'zlashtirishdangina iborat emas, soxta va demokratik g'oyalarimizga yot bo'lган axloqiy e'tiqodning tarkib topishiga yo'l qo'ymasdan, ma'naviy e'tiqodni qaror toptirish jarayonida uning mazmuniga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.

Ijtimoiy axloq tajribalarini asta-sekin egallab borish, ma'naviy ongning o'sishi, fan asoslarini o'rganish, nazariy tafakkurning shakllanishi oqibatida o'spirinlar dunyoqarashi qaror topa boshlaydi. Faqat o'spirin yoshlarga nisbatangina chinakam dunyoqarashni shakllantirish to'g'risida jiddiy gapirish mumkin, buning uchun ma'naviy, aqliy, psixik etuklikning muayyan darajasiga erishilgan bo'lishi zarur. Bizning sharoitmizda to'g'ri dunyoqarash avtomatik tarzda o'z-o'zidan tarkib topadi, deb o'ylash kerak emas. Yot ideologik ta'sirlarning imkoniyati ham mavjudligini hayot tajribalari ko'rsatib turibdi. Shuning uchun o'quv yurtlarining rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar o'quvchilarda chinakam ilmiy dnyoqarashni tarkib toptirishda o'z ma'suliyatlarini his etmog'i lozim. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'liga – kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. "Yangicha fikrlash" va yangicha tafakkur aynan mastaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarrash va e'tiqoddir. Dunyoqarash –shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanish va o'zgarish masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach jamiyatda tub islohatlar boshlandi. Ana shu islohatlarning asosiy yo'naliishlaridan biri –ma'naviy-ma'rifiy islohatlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha xurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirish tashkil etadi. Bu o'rinda psixologiya o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillarni quyidagilarga ajratadi:

Ma'naviyat va ma'rifat. Ma'rifat bu odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning

mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun mohiyatini belgilaydi, demak yoshlarga qaratilgan va ular o'qib, o'rganish uchun yo'naltirilgan barcha turdag'i ma'lumotlar (kitoblar, ommaviy axborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Mustaqillik yillarda, eski, o'zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g'oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma'rifatli qilish borasidagi vazifalar belgilandi. Ular asosida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi qabul qilindi. Ular yoshlarning eng ilg'or ilm-fan yutuqlaridan boxabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o'rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma'rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say'i-harakatlar ma'naviyat borasidagi islohotlar, o'zbek madaniyati, san'ati, adabiyotini rivojlantirish ishlariga, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi.

2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat ximoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lган uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda "Oila yili" deb e'lon qilinishi, "Oila" ilmiy –amaliy Markazi o'z faoliyatini boshlashi, jamiyatda yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlariga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Mafkura. Har bir davrning o'z mafkurasi bo'ladi. Va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistik mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi, mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a'zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g'oyalari, bilimlari majmui bo'lib, har bir ijtimoiy guruh o'z e'tiqodiga mos mafkurani tanlaydi. Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma'naviy ne'matlaridan bahramand bo'layotgan o'zbekistonliklar o'tgan qisqa vaqt mobaynida uning qadriyatları, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart-sharoitlarni anglab o'zlar ongli ravishda ana shu tuzumga sadoqat va uni sevish, ardoqlash va ximoya qilishga tayyorgarlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g'oyasi ta'sirida shakllanmoqda va bu tabiiy, birinchi navbatda yoshlar dunyoqarashini o'zgartiruvchi muhim shartdir. Bunda fan asoslarini o'spirin tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bilimlar amaliy tajriba bilan qo'llanilgandagina e'tiqodga aylanadi. Dunyoqarashni yodlab olish, o'zlashtirish mumkin emas.

Rus psixologi V.A. Yadov o'zining dispozitsion kontseptsiyasini yaratib, unda ustyanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) Elementar ustyanovkalar (set)-oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustyanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdag'i ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

B) Ijtimoiy ustyanovkalar (attitud) –ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan shakllanadigan ustyanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun

ijtimiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak.

V) Bazaviy ijtimoiy ustanovkalar – ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashni o'zgartirish demakdir.

G) Qadriyatlar tizimi – ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovkadir.

Masalan, sahif xadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomonidan yaratilgan, avloddan-avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelayotgan qadriyatlardir. Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning turli usul va psixologik vositalar orqali ham yoshlar dunqarashini o'zgartirishga erishish mumkin.

Ilk o'spirinlik davri «kamolot bo'sag'asi» deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi.

Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy etilish muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarimizning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval etilmokda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga karab, 3-ta bosqichga ajratadilar:

I bosqich - prepubertat;

II bosqich - pubertat;

Sh bosqich - postpubertat.

O'SPIRINLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI.

7 oshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr o'spirinlik davridir. O'spirinlar 8-10 sinf o'quvchilari bo'lib, ular oldida kelgusida kim bo'lish, qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish kerak degan tashvish turadi.

Bu yoshdagi bolalar o'smirlardan farq qiladi. Agar o'smirlikda o'quvchining asosiy faoliyati o'qish bo'lgan bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilarining faoliyati o'qish, bilim olish va mehnatga tayyorlanishdan iborat bo'ladi.

O'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoada tutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqeい o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichiklarga nisbatan boshliq, tashkilotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi.

18 yoshda kattalikka erishadi. Organizmning o'sishi to'xtaydi, «tinch» davr boshlanadi. Organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalarining takomillashishi nihoyasiga etadi. Jismoniy rivojlanish shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini va bundan keyingi hayotiy faoliyatini belgilashga ta'sir ko'rsatadi.

Yigit va qizlarning 17-20 yoshlarida organizm normal rivojlanishiga va unga mos keladigan ish bilan band qilish maqsadga muvofiqli. Ular organizmdagi o'zgarishlar og'irligiga va bo'yiga xos bo'lishi bilan birga o'pka, yurak, qon tomirlariga, nerv sistemasining faoliyatiga ham ta'sir etadi. O'spirinlarda yurak charchashi-xarsillash, yurakning to'xtab-to'xtab ishlashi kabi xollar asta-sekin yo'qolib beradi. Buning uchun jismoniy mehnat, aqliy faoliyat va dam olishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi katta ahamiyatga ega.

Bu davrda ularning nerv sistemasi rivojlanadi va katta kishilarning miya po'stlog'i xususiyatiga asta-sekin yaqinlashadi. Bosh miya po'stlog'ining atroflarida nerv bog'lanishlarining soni ko'payadi. O'qish va mexnat qilish natijasida bosh miya yarim sharlarida analistik va sintetik faoliyat rivojlanadi. Bu xolat tashqi ta'sirni aniq ajrata oladigan xususiyatni o'stiradi. Farq qilish xarakteridagi tormozlanish vujudga keltiradi.

Bu davrga kelib o'qish mashg'ulotlari ancha murakkablashadi: bir qator yangi fanlar o'qitila boshlaydi, dars mazmuni kengayadi, murakkablashadi, bilim, hayot, amaliy ishlar qo'shib olib boriladi, o'quvchilar ishlab chiqarish jamoasida bo'ladi, ekskursiyalarga, ko'rsatmalikka, aloxida e'tibor beriladi.

Bu davrda nazorat bilimlar, amaliy ishlar bilan qo'shib o'rghaniladi. O'quvchilardan materialni tushunish va uni hayotga tadbiq eta bilish talab etiladi. Bola bu yoshda o'zini ancha eslik xis qiladi, tajriba ortadi va bilimlarini mustaqil hayotga tadbiq eta boshlaydi. Bu esa ularning darsga bo'lgan munosabatlarni o'zgartiradi. Bu davrga kelib o'zlariga ma'qul bo'lgan biror fanni tanlaydilar. Bunday xususiyatlarni o'smirlarda ham uchratish mumkin, lekin bunda aloxida fanlarga bo'lgan qiziqish ko'proq o'qituvchining maslahati bilan bog'liq bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilaridagi qiziqish ularning extiyoplari, intilishlari asosida tarkib topadi. Ba'zan ular shoshmasosharlikka yo'l qo'yadilar va natijada xodisalar xaqida noto'g'ri fikr yuritib, noto'g'ri xulosalar chiqaradilar.

Yuqori sinf o'quvchilarining o'z atroflarini, o'rab olgan voqelikni bilib olishga bo'lgan intilishi ularda dunyoqarashning tarkib topishiga sharoit yaratadi. Ulardagi nazariy bilimlarning ortib borishida sinfdan tashqari ishlar, to'garaklar ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

V.A. Krutetskiy, I.N. Lukin yuqori sinf o'quvchilarining bilim egallashidagi aqliy individual faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, bu borada o'quvchilarni asosan 4 guruhga bo'ladi.

1) Yuqori darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar. Bular bilim olishda mustaqillik, tashabbuskorlik ko'rsatmaydilar. O'quv materialini darslikdan yodlab oladilar, materialni o'qituvchi so'rab qolganda javob berish uchungina o'rganadilar. Agar material «qiyin» bo'lsa, uni butunlay o'rganmaydilar. Bu bilimlarni o'rgana bilmaydilar, o'quvchilarga ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan maktablarda o'qish qiyin bo'ladi. Bu guruh o'quvchilarining ba'zilari 1X sinfgacha a'lochi bo'lib kelib, keyin og'ir axvolga tushib qoladi bunday o'quvchilar bilan ko'proq individual ish olib iscomf lozim.

2) O'qish faoliyatida amaliy qobiliyatları borligi sezilib turadigan o'quvchilar bo'lib, qiyin masalani o'rganishga, uni amalda sinab ko'rishga xarakat qiladilar. Darslar to'g'ri yo'naltirilsa, bu guruh o'quvchilarining darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Ularga xar-xil dars usullaridan foydalanib amaliyotda nazariy bilimning ahamiyati katta ekanligini tushuntirish kerak.

3) Bu o'quvchilar nazariyaga juda ham berilib, amaliy ishlarga ahamiyat bermaydilar. Ular ko'p fikr yuritadi. Lekin o'z fikrlarini amalda sinab ko'rishdan qochadi. Ularning fikrlashlarida umumlashtirish, abstraktsiya qilish ustun turadi, shunga qaramay konkretlashtirish xususiyati past darajada bo'ladi.

Ular yaxshi gapiradi, isbotlab beradi, yakunlar yasaydi, aqliy faoliyat bilan ko'proq shug'ullanadi, o'z bilimini mustaqil kengaytirishga xarakat qiladi, lekin

nazariyani amaliyot bilan bog'lay olmaydi. Bu guruhga ijtimoiy fanlarga qiziquvchilarni ham kiritish mumkin.

4) Bu o'quvchilar o'qish faoliyatida nazariya bilan amaliyotni birga qo'shib olib boradilar. Ularning bilimi keng bo'ladi, ular fikr yuritishini, tatbiq qilishni biladi, jamoat ishida faoldir. Lekin bu guruh o'quvchilari hamma narsaga barobar qiziqadilar-u, alohida bir narsaga chuqurroq qiziqmaydi.

Katta maktab yoshida shaxsning ma'naviy kuchlari intensiv rivojlanadi, uning ma'naviy qiyofasi tarkib topadi, xarakter xislatlari aniq bo'ladi, dunyoqarashi shakllanadi.

Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishiga uning maktabda, oilada, ijtimoiy munosabatlar sistemasida tutayotgan mavqeining o'zgarishi xal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchisi bo'lgan o'smirning faoliyati asosan o'qish faoliyatidan iborat bo'lib, u maktab doirasi bilan cheklangandir. O'smirming ijtimoiy faoliyati ham odatda maktab ichida ro'y beradi. Katta yoshdagi o'quvchi esa boshqacharoq bo'ladi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchi o'smirdan farqli o'laroq o'zidagi oddiy, sezilarli ravishda namayon bo'ladigan shaxsiy sifatlarnigina emas, balki shaxsning ko'p qirrali munosabatlarini xarakterlovchi ancha murakkab sifatlarni anglashga qodirdir. O'smir o'zining xozirgi axvoliga muvofiq ravishda o'ziga baho beradi. O'smir o'zicha «Men maktab jamoasining a'zosi» sifatida qandayman deb savol beradi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi esa o'ziga «Men kelgusi mustaqil hayot uchun qandayman? Men yaroqlimanmi?» - deb savol beradi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zini anglash asosida o'z-o'zini tarbiyalash odatda xatti-xarakatlardagi ayrim kamchiliklarga barham berishiga yoki ba'zi bir ijobiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilibgina qolmasdan. Shu bilan birga shaxsni umuman, yigit va qizlarda vujudga keladigan umumlashtirilgan ideallarga muvofiq ravishda tarkib toptirishiga ham qaratilgan bo'ladi. Olimlar ayrim yigit va qizlar fiziologiyasini, genetika nazariyasini o'rganar ekanlar odam organizmi va psixikasidagi ko'p narsalar tug'ma bo'ladi, degan xulosaga keladilar.

Albatta, agar ana shu yigit va qizlarga qarashlarning xato ekanligi ko'rsatib berilmasa, o'quvchilar o'z-o'zini tarbiyalashning qayta imkoniyatlarini borligiga ishontirilmasa, odam o'z-xatti-xarakatlari uchun o'zi javobgar ekanligiga ishontirilmasa, ularni o'z-o'zini tarbiyalashga undash qiyin narsa, u natija ham bermaydi.

Shuni nazarda tutish kerakki, katta maktab yoshidagi o'quvchilar ba'zan o'zlarida biron bir sifatni noto'g'ri usullar bilan rivojlantirishga xarakat qiladilar. O'spirinlar soxta qo'rmasliklari bilan o'zlarini botir qilib ko'rsatishga, beixtiyor xatarli xatti-xarakatlarga moyil bo'ladilar. Ular o'zlarida qo'rmaslikni, irodani tarbiyalashmoqchi bo'lib, elektr simining ochiq, joylarini ushlaydilar baland qirg'oqdan daryoga sakrab hayotlarini xavf ostida qoldiradilar.

Katta maktab yoshidagi axloqiy rivojlanishda e'tiqodning, axloqiy ongning roli kuchayib borishi bilan ajralib turadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvori o'smirlar xulq-atrofiga qaraganda ko'p darajada ularning axloqiy tasavvurlari va tushunchalari bilan axloqiy ustakovkalar hamda e'tiqod bilan belgilanadi. Xuddi ana shu yoshda turli sharoit va vaziyatlarda kishining o'zini to'g'ri tuta bilishi tarkib topadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy ongi ularning jamiyatdagi hayoti va faoliyati ta'siri ostida, jamoaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi ta'siri

ostida rivojlanadi, odatda o'quvchilar axloqiy kategoriyalarning mazmuni va moxiyatini ancha chuqur tushuna boshlaydilar. Katta maktab yoshidagi bolalar ko'pgina axloqiy tushunchalarning ijtimoiy jihatdan ko'p ma'noli ekanligi bilan bog'liq bo'lган eng nozik tomonlarini ham sevishga qodirdirlar. Burch, vijdon, shaxsiy g'ururlik va o'zining qadr-qimmatini bilish tuyg'ulari xaqidagi eng murakkab tushunchalar yuqori sinf o'quvchilarini chuqur va xar tomonlama tushunib olish etarlidir.

Katta maktab yoshidagi noto'g'ri va etilmagan axloqiy tushunchalari to'g'risida turli vaqtarda psixologlardan A.S. Alyakrinskaya, V.I. Selivanov, I.M. Krasnovaev, N.S. Lukin va boshqalar gapirib o'tganlar. V.I. Braskiyning bergen ma'lumotlariga qaraganda burch, vijdon, uyatsizlik, adolasizlik, faxrlanish kabi axloqiy tushunchalarning mazmunini tekshirib chiqilgan va o'rta maktabni bitiruvchi o'quvchilardan 44,5% gina bu hislarni bir qadar to'g'ri yoritib bergen. T.N. Mal'kovskayaning bergen ma'lumotlariga qaraganda, yuqori sinf o'quchilaridan 94% vijdonlilikni ma'naviy fazilat deb yuqori baxolaganlari xolda o'qituvchilar va ota-onalarni aldash mumkin, deb xisoblaydilar.

Katta maktab yoshidagi balog'atga etganlik tuyg'usi o'ziga xos o'zgarishga uchraydi. Bu tuyg'u chuqurroq va jiddiyoq bo'lib qoladi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlariningg balog'atga etganligini erga urishlariga, o'zlariga bolalar kabi munosabatda bo'lishlariga, o'smirlarga qaraganda xali kamroq murosa qilishga moyildirlar.

Katta maktab yoshidagi bolalar katta bo'lib qolganlik tuyg'usi o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Katta maktab yoshida o'quvchilarning kattalar bilan teng xuquqli ekanligini xaqiqiy ravishda yoki soxtalik bilan tan olmaslik tufayli kelib chiqadigan nizolarning keskinligi biroz yo'qoladi. 16 yoshda o'quvchi iscomfo oladi, uning kino va teatrga borishidagi cheklashlar kamayadi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi ko'p o'tmay 18 yoshga to'lib, saylash xuquqiga, nikoxdan o'tish xuquqiga ega bo'ladi. Bu yigit va qizlarning katta bo'lib qolganligini e'tirof qilishning ob'ektiv belgilaridir.

Keyingi vaqtarda psixologlar qiziqarli faktni aniqladilar. Birinchidan, yuqori sinfdagi o'quvchi qizlar, o'smir qizlar singari, o'g'il bolalar va o'spirinlarga qaraganda kattalarning ta'siriga ko'proq berilishiga moyildirlar.

Katta maktab yoshidagi o'quvchi shaxsining tarkib topishiga tengdosh jamoasi ta'sir ko'rsatadi. Jamoa umumiyl maqsadni, jamoa o'zaro munosabatlarni, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasida axloqiy munosabatlarni rivojlantirishda muayyan ta'sir o'tkazadi.

Mustaqil mexnat faoliyatiga o'tish istiqbolning ta'siri ostida katta maktab yoshidagilar uchun xarakterli bo'lган kelajak maqsadlar sari yo'nalish tarkib topadi. Katta maktab isco hayotda o'z-o'zini aniqlab olish isco bo'lib, bu vaqtida o'quvchi o'zining mehnatdagi iste'dodini jiddiy ravishda izlay boshlaydi, unda o'zining kelajakdagi kasbini belgilab olish intilishi paydo bo'ladi.

Xozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki Respublikamizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko'proq oliy maktab tayyorlayotgan mutaxassislarining maxoratiga bog'liqdir. Shuning uchun o'qitishning ilg'or, faol usullarini qo'llash, oqilona vositalardan foydalannish maqsadga muvofiqdir.

Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'sir ko'rsatish xukm surishi lozim.

O'qituvchi bilan talabaning hamkorligidagi faoliyati negizida tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muammosi yotadi. Bu muammo oliy maktab psixologiyasida juda kam tadqiq qilingani sababli xuddi ana shu muammo yuzasidan kengroq muloxaza yuritish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlarda talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishdagi ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoy gurux tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarining boshqa ijtimoiy guruxlar bilan (ular xox rasmiy, xox norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etuklikning jadal sur'at bilan ro'yobga chiqishidir. Ma'lumki, ijtimoiy etuklik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatini hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallahsga (oila qurishga), farzandni tarbiyalashga, foydali mexnatda qatnashishga (mas'ul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko'rsatkichlari o'rta ma'lumotlilik, jamoatchilik, mutaxasis bo'lish imkoniyati uchun unga intilish to'g'risida irodaviy zo'r berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi vazifasini o'tash, ijtimoy guruxga raxbarlik qilish, sport bilan shug'ullanish, bo'sh vaqt ni tashkil eta olish, to'garakda qatnashish va xakazolardan iboratdir.

Talabalik davri o'smirlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib 17-22 (25) yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o'spirinlik davri shaxsining ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'ziga xos ruxiy inqiroz tanglikni boshidan kechiradi, jumladan kattalarning xar-xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmaslidan qayotiy nazar) rollarni tez suratlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jixatlariga ko'nika boshlaydi katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol iscomf xususiyatlariga bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Pedagogik psixologiya fanidan ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilarining (iscomfo, fiziologik, iscomfor-psixologik) jixatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavhumlashtirish, sistemalashtirish kabi qobiliyatlar ko'rindigan fazilatlari namayon bo'ladi. Shu bilan birga o'spirinlarda aqliy, axloqiy, estetik, g'oyaviy siyosiy jixatidan muayyan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay ular oldida o'quv yurtida mutaxassislikni egallah bilan bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi. Xozirgi fan texnikaning rivoji bir tomonlama barqaror qiziqishning yo'qolishiga olib keladi, chunki qat'iiylik, ijodiy izlanish, irodaviy, zo'r berish o'rnini loqaydlik, faoliyatsizlik egallaydi. Boshqacha aytganda ular tayyor axborotlarning quliga aylanadilar, chunki kompyuter, iscomf EXM, kalkulyatorlar inson aqliy mehnatini engillashtiradi, ularni aqliy zo'r berishda xalos qiladi. Ana shular sababli oliy o'quv yurti ta'limi oldidagi muhim vazifa talabalarga dasturdagi bilimlar majmuasini berishdir.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini-o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va xokozolarni o'rgatish muhim ahamiyatga

ega. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili monologik ma’ruza shaklidan diologik (talaba va o’qituvchining muloqotiga asoslangan) ma’ruza shakliga o’tish zarur.

Psixologlardan B.G. Anan’ev, N.V. Kuzimina, N.F. Talizina, V.Ya.Lyaudis, I.S. Kon, V.T Lisoveskiy, A.A. Bodolev, A.V. Petrovskiy, M.G.Davletshin, I.I. Ilg’yasov, A.V. Dimitreva, Z.F.Esarova, A.A.Verbitskiy, V.A. Tokareva, E.G’.G’oziev va boshqalarning tadqiqotlariga ko’ra, oliv o’quv yurtlarida ta’lim olish talabalar uchun juda og’ir iscomf, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlari, xislatlari, sifatlari, takomillashish bosqichida bo’ladi. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o’sishning xususiyatlaridan biri o’qish faoliyatining ongli motivlari kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o’sishi sust amalga oshsa-da lekin xulqning eng muhim sifatlari mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlilik, farosatlilik va xokozolar takomillashib boradi. Shuningdek ularda ijtimoiy-xollarga, voqelikka axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni angalshga intilish tobora kuchayadi.

Psixologlarimizning tadqiqotlari shaxs hayoti tajribasini egallashida unda o’zligini anglash vujudga kelishini, jumladan, shaxsiy hayotining mazmunini anglashi, aniq turmush rejalarini tuzish, keljak hayot yo’lini belgilashi va xakazolar amalaga oshishini ko’rsatadi. Talaba asta-sekin mikroguruxning notanish sharoitlariga ko’nikib boradi, o’zining xaqqi-xuquqlari va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatining yangicha ko’rinishini o’rnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda sinab ko’rishga intiladi. Ulardagi iscomfo xis-tyg’ular voqelikka muayyan yondoshishiga birmuncha xalaqit beradi. Chunki ular turmushdagi yutuqlar va muvaffaqiyatsizlikning ijtimoiy-psixologik ildizlari nimadan iborat ekanligi to’g’risida aniq tasavvurga ega bo’lmaydilar.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida to’plangan materiallar tahlilidan ko’rinadiki, talaba 17-19 yoshda ham o’z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo’lmaydi va shunga ko’ra xulq motivlarining asoslanmaganligi, uzoqni ko’ra olmaslik, extiyotsizlik kabi holatlar ruy beradi. V.T. Listovskiyning fikricha, 19-20 yoshlarda ayrim salbiy xatti xarakatlar ko’zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilish iroda va harakterdan ancha ilgarilab ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida rol o’ynaydi, chunki talaba shu tajriba etishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, iscomfo bilan qattiylikni aralashtrib yuboradi.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o’zini o’zi kamolatga etkazish jarayoni muhim rol uynaydi, lekin o’zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o’zini-o’zi taxlil qilish, nazorat etish, baxolash, tekshirish va boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yuksak, barqaror, barkamol) «men»ni real «men» bilan taqqoslash orqali o’zini-o’zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo’ladi. Talabaning nuqtai-nazaricha, ideal «Men» ham muayyan mezon asosida etarli darajada tekshirib ko’rilmagan, shuning uchun ular goho tasodifiy, g’ayritabiyy xis etilishi muqarrar, binobarin, real «men» ham shaxsning xaqiqiy bahosidan ancha yiroqdir. Talaba shaxsning takomillashuvida bunday ob’ektiv qarama-qarshiliklar o’z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o’qishga nisbatan esa salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Jumladan o’quv yili boshida talabada ko’tarinki kayfiyat, oliv o’quv yurtiga kirganida zavqu-shavq tuyg’usi kuzatilsa, ta’limning shart-sharoitlari, mazmuni, moxiyati, kun tartibi, muayyan qonun va qoidalari bilan yaqindan tanishish natijasida

uning ruxiyatida keskin tushkunlik ro'y beradi. Yuqorida aytilgan ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruxiy parokandalik kayfiyati, ya'ni istiqbolga ishonchszizlik, ikkilanish, xadiksirash, kabi salbiy xis-tuyg'ular namayon bo'ladi. Bizningcha oliy maktabda tarbiya ishlarini rejalashtirishda ta'lim jarayonida talabaga o'ziga xos munosabatda bo'lish mazkur davrning muhim shartlaridan biridir.

Yuqorida aytilganidek yigit va qizlarni oliy o'quv yurtiga qabul qilish ularda o'z kuchlari, qobiliyatlar, aql-zakovatlari ichki imkoniyatlari va irodalariga qat'iy ishonch tug'diradi, ana shu ishonch o'z navbatida to'laqonlik hayot va faoliyatini yushtirishga umid his-tuyqg'ularini vujudga keltiradi.

O'spirinlikning ikkinchi davri xulqqa, voqelikka baxo berish imkoniyatidan tashqari talab qo'yish va qat'iyatlilik xususiyati bilan farqlanadi. Shuning uchun talabalar har doim printsipial bo'la olmaydilar. Ba'zan qat'iyatlilik salbiy munosabatga ham aylanadi. Talabalarning o'qituvchi tavsiyalarini inkor qilishi nizolarni keltirib chiqaradi.

B.G.Anan'ev raxbarligida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'lishicha, talabalar kamol topishining jinsiy va neyrodinamik xususiyatlari ularning aqliy imkoniyatlarini to'la ishga solish va sermaxsul o'quv faoliyati tashkil qilish uchun muhim imkoniyat, shart-sharoit yaratadi.

Yu.A. Samarinning ta'kidlashicha o'spirinlar ruhiyatida o'ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Ularning moddiy jixatdan ota-onaga, oliy o'quv yurti maxmuriyatiga bog'liqligi iqtisodiy ziddiyatni keltirib chiqaradi. Bu xol talablaarning xoxishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibligi tufayli sodir bo'ladi.

Odatda talabalar II va III kurslarda oliy o'quv yurti va mutaxassislikni to'g'ri tanlangani xaqida yanada jiddiy o'ylaydilar.

Mazkur yosh davrida o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy taffakkur, muayyan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilimlarini tartibga solish asosida xis-tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o'zligini anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba xukm va xulosa chiqarishga o'rganadi, o'z xatti-xarakatida qat'iy turib ularni ximoya qiladi, u hayotning turli soxalari bo'yicha xar xil darajadagi ko'nikma va malakalariga nazariy bilimlar, ijtimoiy-psixologik tushunchalarini amaliy faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. .

Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, iscomfort tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iborat.

Odatda quyi kurslardagi talabalar o'quv faoliyatini mumkin qadar to'laroq tasavvur etishga xarakat qiladilar, lekin uni boshqarish to'g'risida etarli ma'lumotga ega bo'lmaydilar. Ko'pincha ular o'quv faoliyatini boshqarish deganda, o'quv materiallarini o'zlashtirishni rejalashtirish, nazorat qilish, baholash kabilarni tushunadilar. Talabalar varaqsa savollariga bergen javoblaridan ma'lum bo'lishicha ularda o'quv faoliyati tizimini tasavvur etishdan tashqari, uning ayrim imkoniyatlari yuzasidan muayyan bilimlar ham bo'ladi.

Ayrim talabalar o'z javoblarida biror xususiyatlariga ega bo'lмаган materialni o'zlashtirishning usullarini ham yozganlar. Quyi kurs javoblaridan biri: «Men avval o'quv materiallarini qismlarga ajrataman, sung ular o'rtasida mantiqiy uyg'unlikni

vujudga keltiraman, muhim va birlamchi kalomatlarni topishga xarakat qilaman. Mazkur materialning oldingisi bilan solishtirma o'xshash va farqli jixatlarni aniqlayman». Xuddi shunga o'xshash talabalarining to'rtadan bir qismidan olidi. Ularning 85% o'quv faoliyatni boshqarishning ayrim tarkibiy qismlarini ifodalay olganlar. Ammo ko'pchiligi o'quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarini taxriflash, anglash, faoliyatning xarakatlarini qanday tartibda amalga oshirishni tasavvur qilishdan ancha yiroqdirlar. Shunga qaramay talabalarda taqqoslash, reja tuzish, lektsiya va birlamchi manbalarni konspektlashtirish bo'yicha ma'lum tushunchalar mavjud. Biroq, bu borada ham ayrim nuqsonlar uchrab turadi. Chunonchi talabalar rejalashtirish, konspektlashtirish, ta'limi usullaridan foydalanishga qo'yiladigan umumiylarini aniq ko'rsatishda qiyonaladilar, muammo doirasidan chetlashadilar. Mana shu qiyinchiliklarni moxiyati va shakliga ko'ra uch guruxga ajratish mumkin:

1. Bilishdagi qiyinchiliklar: o'rta maktab va oliy o'quv yurtidagi o'quv materiallarining mazmun va ko'lami jihatidan keskin farqlanishi; oliy o'quv yurtida o'qitishning turli shakli usullari (ma'ruzalar, seminar mashg'uloti, kolokvium, sinov, baxs, amaliy mashg'ulot, maxsus praktikum, maxsus seminar, masus kurs va xakazolar) mavjudligi o'quv matni, ma'ruza va seminar materiallarining murakkabligi, muammoliligi, ilmiyligi, talabalarda mustaqil bilim olish malakalari etishmasligi;

2. Ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklar: atrof-muhit va hayot sharoitining o'zgarishi; hayot va faoliyatining barcha jabxalarida mustaqillikka o'tilishi: irodaviy zo'r berish, qobiliyat, aqliy imkoniyatlar bo'yicha qat'iyatsizlik masalan, sessiyalarida o'qishdan xaydalishdan cho'chish, qo'rqish, xavfsirashning paydo bo'lishi.

3. Kasbiy qiyinchiliklar: oliy o'quv yurti mutaxassisligini tanlashdan ikkilanish; oliy maktab shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur qilish; ta'lim olish usullari va vositalarini ko'nikma malaka va odatlarning egallashida orqada qolish, turli xususiyatga ega bo'lgan mutaxassislik-ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalana olmaslik, nazariy bilimlar bilan amaliyotning ajralib qolgani; talabalarning professiogramma talablariga javob beradigan kasbiy fazilatlarga ega emasligi.

O'qituvchi va talabaning hamkorligi – ta'lim samaradorligining muhim omili.

Yakka shaxs faoliyatining psixologik taxlili faoliyat sub'ektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavxumlashtiradi. Lekin bu mavxumlashtirish nixoyatda muhimligidan qat'iy nazar, o'rganilayotgan xodisalarning bir tomonlama yoritish imkonini beradi.

Asosiy savollar:

- 1.O'spirinlarda o'z-o'zini anglashning o'sishi. O'spirin o'quv faoliyati.
- 2.O'spirinlarning kasbga tayyorgarligi muammosi.
- 3.O'spirinlardagi motivlar va qadriyatlar do'stlik va sevgi-muhabbat, jamoatchilik ishlaridagi faolligi va dunyoqarashning shakllanishi.
- 4.Ijtimoiy va ahloqiy me'yorlarning shakllanishi..

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova **Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.** «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G'. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.

- 4.G`oziyev E.G` Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

7-mavzu: OILA PSIXOLOGIYASI

Asosiy savollar:

- 7.1. Oila kichik guruh sifatida.
- 7.2. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning tizimiga xos umumiy xususiyatlar.
- 7.3. Oilaviy tarbiya uslublari.
- 7.4. Oilaviy tarbiya uslublari.
- 7.5. Oilaviy shaxslararo munosabatlarning muammolari.
- 7.6. Oilaviy nizolar.

Darsning maqsadi:

Oila kichik guruh sifatida. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning tizimiga xos umumiy xususiyatlar. Oilaviy tarbiya uslublari. Oilaviy tarbiya uslublari. Oilaviy shaxslararo munosabatlarning muammolari. Oilaviy nizolarni o'rganish

Kalit so'zlar:

Oilaviy hayotga psixologik tayyorlik, hayotga psixologik tayyorlash, psixologik bilim. Tabu, *juft oila*, Homo-sapiens

1. Oila kichik guruh sifatida

1-savolning bayoni:

7.1. Maxsus manbalarda qayd etilishicha, er yuzida bundan 4 mldr yillar mukaddam xayot nishonalari, jonzodlar yuzaga kelgan. Xozirgi zamon odamlarining dastlab ibtidoiy ajdodlari **Homo-sapiens** ya'ni fikrlovchi odam bundan 3 mldr yillar mukaddam shakllangan. Uzoq muddat davom etgan ibtidoiy taraqqiyotdan so'ng asta sekinlik bilan ibtidoiy jamoalar, qishiliq jamiyatlari yuzaga kela boshlagan va odamlar o'rtaida dastlabki o'zaro munosabatlar, mulokotlar shakllana borgan. Lekin ularni xali tom ma'noda insoniy munosabatlar deb bo'lmas edi.

Usha vaqtlardayoq odob axloq me'yorlarining oddiy ko'rinishlari nishonalari yuzaga kela boshlagan Ana shunday qoidalardan biri tabu deb atalgan. *Tabu - axlokiy me'yorlarga karaganda ancha jidiy va kattik ta'kikdir.* Axlokiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolashi, uni yo'q qilib yuborishi xam yoki kechirib tirik koldirishi xam mumkin bulgan. Ko'pincha esa tabularni buzganlar, ular buni bilib kilganmi, yoki bilmaymi bundan kat'iy nazar suzsiz jazolangan, yuq qilib yuborilgan. O'z navbatida erkak va ayol munosabatlarini ham tabu tartibga keltirib turgan. Dexkonchilik va chorvachilikni rivojlanishi bilan urugni, qabilani bir a'zosi mexnatining maxsulorligi sezilarli darajada ortgan va bu ortikcha iste'mol maxsulotlarni yuzaga kelishiga olib kelgan. Xar bir ishchi uzi yaratgan maxsulotni kabilaning «umumiy kozoniga» tashlaydigan eskicha taksimot shakli endi ishlab chikarishni yanada rivojlishiga tuskinlik kila boshladi (chunki bu kabilaning nopok,

dangasa a'zolarini xam ishlab chikish faoliyatidan jazosiz kutulib kolishiga olib kelgan). Birok er xali xotinini va uning balalarini yagona bokuvchisi bo'lman. Yangi iktisodiy xujalik birligi yoki oilaning yana bir turi – *juft oila* yuzaga keldi, unga asosan er xotin va uning bolalari kirdi.

Nikoh-oila munosabatlari qanday yuzaga kelgan?

Maxsus manbalarda qayd etilishicha, er yuzida bundan 4 mld. yillar muqaddam hayot nishonalari, jonzodlar yuzaga kelgan. Hozirgi zamon odamlarining dastlabki ibtidoiy ajdodlari (*Homo - sapiens*) fikrlovchi odam bundan 3 mln. yillar muqaddam shakllangan. Uzoq muddat davom etgan ibtidoiy taraqqiyotdan so'ng asta-sekinlik bilan ibtidoiy jamoalar, kishilik jamiyatlari yuzaga kela boshlagan va odamlar o'rtasida dasglabki o'zaro munosabatlar, muloqotlar shakllana borgan. Lekin ularni hali tom ma'noda insoniy munosabatlar deb bo'lmas edi.

Umuman erkak va ayollarning bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi jins vakillari sifatida o'zaro munosabatlarining ilk ko'rinishlarida, ya'ni nikoh munosabatlari yuzaga kelishining ilk bosqichlarida jinslar o'rtasidagi munosabatlar, asosan biologik omillar bilan boshqarilgan. Xuddi maymunlarda bo'lgani kabi ibtidoiy odamlarning ayollar ham vaqt-i-vaqt bilan, qisqa muddatli (oy davomida 45 kungacha, faqat ayrim turlardagina 19 kungacha) estrus davrini his qilganlar (estrus — qo'shilishga moyillikning shiddatli, kuchli namoyon bo'lishi). Bunday kunlarda ayollar kimni xohlasa o'shalar bilan farqlab o'tirmay qo'shilavergan, boshqa vakt esa qo'shilish bo'lman. Odamlarning tik yurishga o'tishi bilan ular organizmida ro'y bergan o'zgarishlar, «ilk ayollarni» ko'z yorish jarayonida ko'p nobud bo'lishiga va oqibatda odamlar to'dasida ularning sonini keskin kamayib ketishiga olib kelgan. Shu boisdan erkaklar o'rtasida ayol bilan bog'liq ko'plab nizolar yuzaga kelgan, ularning ko'pchiligi qonli to'qnashuv ishtirokchilaridan birining nobud bo'lishi bilan tugagan. Bunday tabiiy tanlanish estrus hodisasi uzoqroq muddat davom etgan urug'larning ko'proq yashab qolishiga olib kelgan.

Biroq, bu biologik omil «ilk ijtimoiy» rejadaga yangi. to'siqlarni yuzaga keltiradi: hech bir organizm bunday uzoq vaqq davom etgan o'ta shaxvoniy, asabiy zo'riqishlarga dosh bera olmas edi. Shuning uchun estrus muddatining uzayishi bilan ayollar bu davrda «sovukroq», o'zining jinsiy maylini nazorat qiladigan va endi kim to'g'ri kelsa o'sha bilan emas, balki faqat o'zlariga yoqadigan erkaklar bilangina ko'shiladigan bo'lib borganlar. Erkaklarga nisbatan «tanlab» munosabatda bo'lish - o'ziga xos insoniy muhabbatning biologik poydevori yuzaga kela boshlaganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz joizki, hozirgi odam tushunadigan, his qiladigan «sevgi» hissining ilk elementlari, ayollarning shu holati xususiyati evaziga insoniyat ruxdyatiga singib ketadi. Shulardan so'ng, asta-sekinlik bilan, garchi hech qanday ijtimoiy me'yorlar bilan boshqarilmasada bir-birlarini shaxvoniy ma'qul ko'radigan juftlardan iborat unchalik katga bo'lman guruhlar tashkil topa boshlavdi. Shunday qilib, estrusning uzayishi hamma uchun ham qulay, ma'qul bo'lman. Bu esa urug' tarkibiga kiruvchi erkaklar o'rtasida yana janjallar, qon to'kilishlarga sabab bo'ladigan holatlarni keltirib chiqargan. Odamlar jamoasi xo'jalik faoliya-tining jiddiy buzilishi, urug'ning yashab qolishi uchun xavfning ro'yobga chiqishiga olib keldi. Shu tarzda yuzaga kelayotgan jamiyatda, urug' ichidagi jinsiy muloqotni boshqarish, biologik instinkg, zoologik individualizmni jilovlash uchun maxsus ijtimoiy me'yorlar shakllana boshladidi. Ana shunday ijtimoiy me'yorlardan biri mazkur urug' ichida erkak va ayollarning jinsiy

muloqotlarini ma'lum bir muddatga (ovga tayyorlanish, ov vaqqlarida) ta'qiqllovchi jinsiy tabular (ta'-qiqgash)ning yuzaga kela boshlaganligidir.

Tabu - axloqiy me'yorlar ichida ancha jiddiy va qattiq ta'qimdir. Axloqiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolashi, uni yo'q qilib yuborishi ham yoki kechirib tirik qoldirishi ham mumkin. Ko'pincha esa tabularni buzganlar, ular buni bilib qilganmi, yoki bilmaymi bundan qat'i nazar so'zsiz jazolangan, yo'q qilib yuborilgan.

Ishlab chiqarishdagi jinsiy tabularni yuzaga kelishi urug' o'rtasida erkak va ayolni maishiy ajratib qo'yishda kuzatiladi. Tabu vaqgida erkaklarga nafaqat ayollarga teginish, balki ularga qarash, ular bilan gaplashish, ular tayyorlagan ovqatqi iste'mol qilish, hatto ular bilan bir tom ostida, ya'ni «bir uyda» bo'lish ta'qiqlangan.

Dehqonchilikning yuzaga kelishi, mavsumiy dala ishlarining ortib borishi bilan jinsiy tabulardan holi vaqqlar borgan sari kam muddatli bo'lib borgan. Erkaklarda ham, ayollarda ham jinsiy zo'riqishning jadalligi ortib borgan. Shuning uchun tabulardan holi qolgan vaqq oralig'i o'ziga xos shahvoniy ayshu-ishratlarga aylana borgan. Atoqli psixolog Z.Freyd bu davrni o'ziga xos bayramlarga qiyoslagan. Chunki aksariyat bayramlarda, boshqa kunlari ta'qiqlangan deyarli barcha narsaga ruxsat beriladi. Bu bayramlarda hech nima bilan cheklanmagan, jo'shchin jinsiy muloqotlar amalgalashirilgan.

Shunday qilib, qisqa muddatli estrus yuzaga kelgan, biroq endi bu estrus biologik sabablar bilan emas, ijtimoiy sabablar bilan bog'liq bo'lган. Bu vaqglarda hali na nikoh, na oila mavjud bo'lган. O'z navbatida tabular keyinchalik nikohning ilk turlaridan bo'l mish ekzogam nikoxlarini yuzaga keltiradi (ekzogam nikoh - urug'lararo, qabilalararo nikoh). Chunki tabular faqat o'z urug'i uchungina taalluqli bo'lib, unda qon-qarindoshlar o'rtasida jinsiy muloqot ta'qiqlangan, boshqa qabila yoki urug' a'zolariga esa taalluqli bo'lмаган. Shuning uchun erkak-larga qaerdadir, ovloq joyda boshqa uruqqa mansub bo'lган ayolni uchratib qolib, undan shahvoniy ob'ekt sifatida foydalanishi mumkin bo'lган. Mabodo, erkaklar uzoq muddat qishloq xo'jalik ishlari bilan band bo'lган vaqqlarida biron bir begona erkak bilan ayollar ham bu ishni qilishgan. Tabu davom etayotgan davrda bir urug' erkagi o'z ayollaridan uzoqda, o'z kulbasida boshqa uruqqa mansub ayolni saq-lashi mumkin bo'lган. Keyinchalik bu tasodifiy aloqalar qabila qoidalarida odatiy, zaruriy, ko'zda tutilgan odatlarga aylanib bordi. Bu o'rinda odamlarga, bu «boshqa urug'dagilar» bilan bo'lган aloqalardan tug'ilgan nasllarga nisbatan bo'ydon, baquvvat abjir ekanligi sezilib bordi. Bu aynan hozirgi zamon odami gomosapiens shakllana boshlagan davrga, taxminan bundan 42-45 ming yillar muqaddam o'tgan davrga to'g'ri keladi.

Shunday qilib endogamiya (faqat bir urug' vakillari o'rtasidagi jinsiy aloqa)dan, agomiya, ya'ni jinsiy munosabatlarning vaqginchalik ta'qiqlanishi orqali ekzogamiya (turli qabila vakillari o'rtasidagi muntazam jinsiy aloqa) yuzaga keldi. Bundan nikohning guruxli nikoh (dualno rodovoy) turi yuzaga kelgan. Guruxli nikoxda bir urug' erkaklari boshqa urug'ning barcha ayollarini uchun er va aksincha, ikkinchi urug'ning erkaklari birinchi urug' ayollarining erlari hisoblangan.

Guruxli nikohning yuzaga kelishi qaytanga nikoh juftlari doirasini ma'lum bir guruh a'zolari bilangina chegaralab birmuncha qisqartiradi. Bunday hollarda boshqa urug'dagi «erkak» bu qabilaga faqat bitta maqsadda, «nikoh» maqsadidagina kelar edi, o'zları esa ona oilalarida yashardi va ishlashardi, ular «xotin»lari yashaydigan oilada hech qanday huquqqa ega emas edilar.

Guruxli nikoh ikki urug'ning nikoh aloqalaridan iborat bo'lgan nikoh munosabatlarining birinchi shakli bo'lgan. Albatta bunday urug'larni hali moddiy ne'matlar ishlab chiqish emas, balki bolalarni dunyoga keltirishgina bog'lab turgan. Ishlab chiqarish va bolalarni dunyoga keltirish munosabatlari bir-biridan ajratib qo'yilgan edi. Jinsiy aloqalar esa faqat bir-birlari bilan mulkiy ishlab chiqarish ishlari bilan bog'lanmagan odamlar o'rtasidagina mavjud bo'lgan.

Guruxli nikoh shaxsiy nikoh bo'lman, ya'ni unda biron bir doimiy «erxotinlik» juftlari mayjud bo'lman. Har bir ayolning nikoh jufti aynan kim bo'lishligi urug' tomonidan belgilanmagan, bu faqat odamlarning xolis xohishlari, istaklarining namoyon bo'lishi bo'lgan, xolos. Urug' faqat zo'ravonlik, majburlash hollari kuzatilgandagina aralashishi mumkin bo'lgan, ya'ni har bir individga o'zi qanday xohlasa, shunday yo'l tutish huquqi ta'minlangan. Bunday munosabatlarni hozirgi zamon tili bilan «nikoh», deb atash mushkul, chunki bunday munosabatlar juftlardan na huquq, na majburiyat va na o'zaro mas'uliyatni talab qilmagan. Shuningdek, oila deb atash mumkin bo'lgan, bolalarni boqish va tarbiyalash bilan bog'liq alohida bir muhabbat ham bo'lman.

Tabiiyki, guruxli nikohda u yoki bu bolaning otasi kim ekanligini aniqlash ham mushkul bo'lgan, shuning uchun bolalarning kelib chiqishi faqat ona tomonidangina hisoblangan. Urug'ning faqat ayolga tegishli tomoni tan olingan. Bolalar faqat o'z onasinigina bilishgan. Ularning singillari, singillarining bolalari, tug'ishgan aka-ukalari va boshqa qarindoshlar ona urug'ini tashkil qilgan.

Guruxli nikohning moddiy asosi bo'lib, asosan uy xo'jaligini yuritish hisoblangan, chunki bu vaqqga kelib ovchilik hamma vaqg ham urug' ehtiyojini qondira olmay qolgan. Bu davrda ayol uy xo'jalik ishlari bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni bajargan va shu bilan bog'liq holda urug' a'zolari o'rtasida o'ziga xos hurmatga ega bo'lgan, urug' oqsoqollari kengashida e'tiborli o'rinnegallagan. Matriarxat (onalik) davri bir necha o'n ming yillar davom etgan.

Keyinchalik guruxli nikoh doirasida o'zaro mayllar zaminida etarlicha doimiy juftlar shakllana boshladi. Bundan paydo bo'lgan juftli nikoh dastavval bir erkak doimo faqat bitta ayol bilan yashashligini bildirmagan. Erkak kishi bir necha ayol bilan bo'lishi mumkin bo'lgan, xuddi shuningdek ayol ham bir necha erkak bilan munosabatda bo'lgan. Aniqrog'i bunday nikohni juftli nikoh emas, balki ibtidoiy-egalitar, ya'ni teng huquqli nikoh deyish to'g'riroq bo'ladi. Tabiiyki, urug'ning bir muncha baobro' a'zolari bir necha ayolga ega bo'lishi mumkin bo'lgan. Bu davrga kelib ko'p erlilik kamroq uchragan. Bunday juft nikoxlar taxminan bundan 25-24 ming yillar muqaddam urug' ichida xo'jalik va iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllariga o'tish bilan xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu yo'lda qo'yilgan birinchi qadam «sovga ayriboshlash» deb atalgan odat bo'lgan.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan urug'ni, qabilani bir a'zosi mehnatining mahsuldarligi sezilarli darajada ortgan va bu ortiqcha iste'mol mahsulotlarining yuzaga kelishiga olib kelgan. Har bir ishchi o'zi yaratgan mahsulotni qabilaning «umumiy qozoniga» tashlaydigan eskicha taqsimot shakli endi ishlab chiqarishni yanada rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi (chunki bu qabilaning noplari, dangasa a'zolarini ham ishlab chiqish faoliyatidan jazosiz qutulib qolishligiga olib kelgan). Shuning uchun qabila ortiqcha mahsulotni ma'lum bir qismini qabila mulkiga o'zining abjirligi, chaqqonligi ishlab chiqarish faoliyatida ko'proq muvaffaqiyatlarga

erishganligi bilan farqlanib turgan a'zolariga «mukofot» tariqasida taqsimlashga ruxsat berishga majbur bo'lган. Hammaga teng taqsimlash bilan birga asta-sekin odamning imkoniyatiga, uning qabila mulkiga qo'shayotgan ulushi miqdoriga qarab «mehnat haqi» taqsimlana boshlangan.

Agar teng taqsimlanishda jamoa mahsulotidan ulush olish «huquqi» mazkur uruqqa taalluqliliga qarab berilgan bo'lsa, (jamoa mulkiga qancha hissa qo'shganidan qati nazar) endi bu «huquq» mahsulot yaratishdagi ishtirokiga asoslanadigan bo'ldi. Urug'ning ayrim a'zolarida ortiqcha mahsulot, shaxsiy mulkning paydo bo'lishi, oilaning shakllanishi tomon qo'yilgan yangi qadam bo'lган «sovg'a ayriboshlash»ni yuzaga keltirdi. Erkak kishi boshqa urug'dagi «o'z ayoliga» o'zining «mukofotini» sovg'a qilgan, shuningdek ayol ham o'zinikini unga bergen. Toki, ular o'rtasida sovg'a ayriboshlash davom etar ekan, erkak bilan ayol o'rtasidagi jinsiy aloqa ham davom etaverган. Sovg'a ayriboshlashning to'xtatilishi esa ular o'rtasidagi aloqaning ham tugashini bildirgan. Shunday qilib nikohning yana bir turi - individual juft nikoh yuzaga kelgan. Bunda ayol-ning o'z qondosh-qarindoshlari, ya'ni o'z urug'i erkaklari bilan teng taqsimlash munosabatlari, boshqa urug'dagi erkaklar bilan esa sovg'a ayriboshlash munosabatlari bog'lab turgan.

Shuni aytib o'tish joizki, juftli oilaning yuzaga kelishi, boshidanoq, uni o'z urug'iga qarshi qo'yishni va onalik urug'i asoslarining buzilishiga olib kelishini bildirgan. Ya'ni erkak kishi o'z mukofotini boshqa urug'dagi «o'z ayoli» va uning bolalariga qanchalik ko'p bersa, uning o'z onalik urug'iga shunchalik kam ulush qolgan. Biroq «er» hali «xotinning» va uning bolalarini yagona boquvchisi bo'lмаган. Juftli oilalarni yanada asosliroq bo'lishi uchun sovg'a ayriboshlash noadekvat bo'lishi kerak edi, ya'ni er-xotiniga, xotin eriga berganga qaraganda ko'proq berishi lozim edi, shunday qilib u (er) xotinning bolalarini boquvchisi bo'lib qolishi, sovg'a ayriboshlash munosabatlari boquvchilik munosabatlariga aylanishi lozim edi. Shu bilan birga erkakni xotin va uning bolalari bilan aloqasi muntazam va uzoq muddatli bo'lib bordi. Nihoyat (dualno rodovoy) qabilalararo nikoh zaminida doimiy o'rın olgan xo'jalik birligi - jamoa tashkil topdi, unga erlar o'z xotinlari va ularning bolalari bilan kirdi. Erkaklar o'z singillaridan, ayollar esa mos ravishda o'z aka ukalaridan ajralishdi. Yangi iqqisodiy xo'jalik birligi yoki oilaning yana bir turi - juft oila yuzaga keldi, unga, asosan er, xotin va uning bolalari kirdi.

Endi nikoh o'ziga xotinning bolalarini tarbiyalash va boqishni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan erkak va ayolning ittifoqiga aylandi. Buning uchun er-xotinning har biri o'z urug'idan olgan ulushidan, mahsulotidan foy-dalanishgan. Bunday ittifoqni yuzaga kelishining ob'ektivligi mehnatiga yarasha taqsimot rolini ortishi va teng taqsimlash rolining pasayishi bilan ortib bordi. Juft nikohning yuzaga kelishi bilan juftlar o'rtasidagi jinsiy munosabatlar nafaqat shunchaki axloqiy me'yorlar bilan boshqariladigan doiralarga, balki, ijtimoiy-iqqisodiy doiraga (ramkaga) kiritildi.

Oila kichik guruh sifatida, emotsiнал munosabatlar tizimining ahamiyatligi bo'yicha va ijtimoiy institut sifatida shaxs psixologiyasi, fanda ijtimoiy psixologiya fanida va sotsiologiya fanida ham o'rganiladi. Bola va ota-oná munosabatlari, tarbiya stili, bolaning oilada rivojlanishi yosh davrlari va Oila psixologiyasi ning asosiy

o'rganish predmeti hisoblanadi. Oilaviy nizolar konfliktologiya fanida juda chuqur tahlil qilingan va tizimlashtirilgan. Oila barbod bo'lishi psixologik jarohotlarni, oilaviy rollarni patologiyasini keltirib chiqarishi klinik-psixologlarni va psixoterapevtlarni diqqatini o'ziga tortadi. Shu bilan birga yaqin bo'lган psixologiya fanlari bilan ham chambarchas bog'liq. Lekin shu bilan birga psixologiyaning bir-biriga yaqin fanlardagi umumiy qiziqishlar bilan birga farq qiluvchi xususiyatlari ham ko'rindi. Agar sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar guruhlarni (katta va kichik) o'rgansalar, oila psixologiyasi esa shunday g'aroyib bir butun vujudga kelgan – oilaga kiruvchi individlarni o'rganadi. Bunga oilaning o'z a'zolarini rivojlanishiga ta'sirini va individning oila rivojiga va mavjudligiga ta'sirini o'rganish kiradi.

Oila ichidagi o'zaro aloqalar boshqa har qanday guruhi ichidagi o'zaro aloqalarga qaraganda boshqacha bo'lib – u qarindoshlik rishtalari bilan bog'langandir. Er-xotin o'zaro munosabati tahlil qilinar ekan, sotsiologlar diqqat markazida nikoh tendentsiyalari, ajralishlar, oila siyosati tahlili tursa, oila psixologlari esa, nima sababdan odamlar bir-birlarini yoqtirib qolishadi, qanday qilib bir-birlari bilan kelishib, moslashib yashab ketishadi degan muammolarni tadqiq qilish turadi. Individning shaxsiy hayoti sotsial psixologga qaraganda oila psixologini ko'proq qiziqtiradi. Shaxsni tadqiq qiluvchi psixologlar o'z diqqatlarini individlarning farqlari va ularning ichki individual mexanizmlari esa oila tizimida paydo bo'lган va o'sib rivojlanayotgan individga o'z diqqatlarini to'playdilar.

Oilani o'rganish bo'yicha psixologlar tomonidan kiritilayotgan ko'pgina tendentsiyalar, nazariy takliflar, nikoh va oila modeli mohiyatini yaratishga intilishlar oila psixologiyasini psixologik bilimlar tizimida tutgan o'rni va uni dolzarb ekanligini chuqurroq o'ylab ko'rishni taqozo etadi.

XXI asrga kelib insoniyat oldida qanday qilib o'z yolg'izligini engishi, o'zga kishi bilan qanday qilib mustahkam, garmonik, ittifoq tuzish va qanday qilib bu ittifoqni uzoq yillar, butun umr davomida saqlash kabi muammolar keskin turibdi. Bu haqda S.L.Rubinshteyn to'g'ri fikrni aytgan: "Inson hayoti asosini, o'zagini o'zga kishi, odamlarga bo'lган munosabat tashkil qiladi. Inson "yuragi" uning boshqa odamlarga bo'lган munosabatlaridan to'qilgan; uning bahosi, baholanishi odam qanday insoniy munosabatlarga intilishiga qarab, odamlarga va o'zga kishiga qanday munosabat o'rnata olishiga qarab aniqlanadi. Insonning boshqa odamlarga bo'lган munosabati asosida inson hayotini tahlil qilish psixologiyani asosiy yadrosini tashkil etadi".

Oila hakida alohda fan yo'q. lekin oilaning turli jihatlarini o'rganish bilan 10 dan ortiq fanlar shug'ullanadi. Bu fanlar quydagilarni o'z ichiga oladi. Etnografiya - nikoh oila munosabatlarini xalqlar turmush tarzining bir tabakasi sifatida o'rganadi.

Aholishunoslik - demografiya - aholining hamda uning asosiy bo'g'ini bo'lmish, oilaning turli xil muammolarni siyosiy-ijtimoy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar asosida o'rganadi.

Iktisod fani bilan statistika fani, oila byudjeti oila ishlab chiqarishi, oilaviy iste'molni, mehnat taqsimotini, oiladagi xo'jalik iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Psixologiyaning vazifasi - asosan nikoh-oila munosabatlarida namoyon buladigan xissiyot, tasavvur urf-odatlarni ruhiy xodisalarning ijtimoiy tabiiy manbalarini o'rganishdan iborat.

Oila pedagogikasi - oilaning bolalarga ko'rsatadigan ta'sirini oiladagi tarbiya qonuniyatlarini, vositalarini ota yoki onaning bolaga ta'siri, oila va uning boshka tarbiya muassasalarining o'zaro munosabatini aniklashdir.

Tibbiyot fani - nikohning fiziologik jihatlarini va ularning okibatlarini, oilaning oila a'zolari sogligiga ta'siri tadqiq qiladi.

Xuquqshunoslik - oila nikoh va oila tug'risidagi qonunlarni va oilaning ijtimoiy xayotga munosabatini urganib xukukiy koidalarni asoslab beradi. Oilaning vujudga kelishi uzok o'tmish bilan O'rta Osiyo xalklarida oilaning eng dastlabki tarixiy shakli patreaxal oila tarzida vujudga kelgan. Bu oila ayni zamonda jamiyatning asosiylar chikarish jamoasi ham bulgan. Shuning uchun oilaviy munosabatlarga xar bir oila a'zolarining xatti-xarakatlariga alohida e'tibor berilgan. Patriarxal oila, eramizdan oldingi bir ming yilliklarda vujudga kelgan. Uning rivojlangan davri eramizning birinchi asriga tug'ri keladi. Eramizning bir ming yilligi urtalarida kichik-kichik oilalar tarkib topa boshladi.

Nikoh-bu erkak bilan ayol urtasidagi muayyan ittifokning va bu ittifokning jamiyat davlat tomonidan tan olinishi va ma'kullanishining tarixiy shaklidir

Uzbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» (1998 yil 30 aprelda tasdiklangan) 2-bo'lim 3 bobga asosan nikoh tuzish tarkibi va shartlari masalalarini yoritishga karatilgandir. Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi. erxotin, ota-onva farzandlar orasida ahlokiy majburiyatlar o'rnatadi.

Nikoh so'zi- (arabcha-qo'shilish) uzbek tiliga arablardan kirib kelgan. Uzbekiston Respublikasi Nikox va oila kodeksining 13-moddasiga binoan nikoh fuqorolik xolatini dalolatnomalarining ro'yhatidan o'tkazish yuklatilgan davlat organlarida kayd etiladi, shunday nikohgina xukuk va majburiyatni vujudga keltiradi. Uzbekiston Respublikasida nikohni uning ijtimoiy mohiyati, maqsadiga, ko'ra oilani mustaxkamlash ehtiyojini yosh avlodni ahloqi, sihat-salomatligini xisobga olib, bir qator shartlarga amal kilgan holda tuzish zarurligi belgilanadi: bu talablar nikohdan o'tish shartlari deyiladi

a) Nikohdan o'tuvchi shaxslarning o'zaro roziligi (Uzbekiston Respublikasining Nikoh va oila kodeksi 17-moddasasi)

b) Nikoh yoshining belgilanishi (Uzbekiston Respublikasining Nikoh va oila kodeksining 18 - moddasida 18-yosh yigitlar, 17-yosh qizlar).

Xalkimizda nikoh eng avvalo arshi a'loda o'kilib, keyin erda, degan naql behuda aytilmagan. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha, nikoh ilohiy axd, oila muqaddasdir. «Xotinlaringiz-ziroatlaringizdir» deyiladi. Kur'oni Karimning Bakara surasi - 223 oyatida. Nikohdan o'tib oila qurishdan asosiy maqsad inson avlodining davomiyligidir. Nikohga kirishda yanglishmaslik, mustaxkam oila tashkil topishga olib keladi. Ahil totuv yashash, halol mehnat muxabbatga asoslangan oila jamiyatning munosib avlod, axloqi pok jamiyat ishiga, taraqqiyotimizga, mustakilligimizga sadokatli inson tarbiyalab etkazishda muxim rol o'ynaydi.

Qadimdan Sharq oilalari yigit-kizlarni oilaviy turmushga tayyorlashga alohida e'tibor bergenlar yigitlar alohida, kizlar alohida maxsus enaga-tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanganlar.

Birlashgan Millatlar tashkilotining qaroriga binoan 1994 yil «Xajaro oila yili» deb e'lon kilindi, Respublikamizda 1998 yil «Oila yili, 1999 yil «Ayollar yili» deb e'lon kilindi.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek oila jamiyatning negizi. Bizning davlatmizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro xurmat va kattik tartib bulmasa, oilaning barcha a'zolari uz burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mexr-okibat kursatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida kuriladi, uzning kup

asrlik mustaxkam va ma'naviy tayanchlariga ega buladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-extiyojlari va kadriyatları shakllanadi. Uzbeklarning aksariyati uzining shaxsiy farovonligi tug'risida emas, balki oilasining karindoshuruglari va yakin odamlarining, kushnilarining omon-esonligi tug'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa quyadi. Bu esa eng oliv darajada ma'naviy kadriyat, inson qalbini gavxaridir. I.A.Karimovning bu fikrlari o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatining asosini tashkil etadi. Yurtboshimizning traqqiyotida jamiyatimiz asosi- o'zbek oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy xolatida muxim rol o'ynamokda, chunki oilalarnsh xar tomonlama yuksalishi jamiyatning yuksalishi demakdir.

Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'l mish yosh avlod va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masaladir. Ikkinci tomondan jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bulgan talabi ham kun sayin ortib bormokda. Ota-onalarning oilada bolalarni xar tomonlama etuk-barkamol taraqqiyotiga oid layokatni oshirish xozirgi kunning dolzarb masalasidir. Uzbek oilasining dunyodagi boshka oilalarga uxshash tomonlari kup. lekin shu bilan birga uning uziga xos jihatlari ham yo'q emas. O'zbek oilalarining uziga xos tomoni - xayo-iboning kuchliligidadir. Ma'naviyatsiz moddiy farovonlikka ham umumtaraqqiyotga ham erishib bulmaydi. Ma'naviy qashshoqlik milliy tanazzulga olib boradi.

Oiladagi psixologik muhit - boshqa har qanday gruppada bo'lgan qonunlardan tarkib topadi. Biroq oilada ish birmuncha murakkabrokdir. Unda kishilar o'z hayotining ko'proq qismini o'tkazadi. Ular bir-birlari bilan ko'proq samimi tuyg'ular va munosabatlar orqali bog'langandir. Oila baxtining asosida oilaning psixologik muhiti yotadi. Oilaning psixlogik muhitiga er-xotinlarning ham, umuman kishilarga ham oila a'zolariga va bir-birlariga bo'lgan munosabatlari ta'sir qiladi.

Sotsialog-psixologlar baxtli va baxtsiz oilalarda ernen o'ziga va xotiniga bo'lgan munosabatlarning xususiyalarini aniqlaganlar. Ular qiziqarli faktlarga ega bo'ldilar. Oiladagi psixolgik muhit er-xotin qiziqishlarining umumiyligi bilan xarakterlanadi, eng muhimi ularning ikkalasi ham qiziqish bilan hisoblasha bilishlarida va e'tibor bera bilishlaridadir. Er-xotin katta ijtimoiy muammo va talablar bilan yashaydigan oilalargina baxtli bo'lishlari mumkin.

Oiladagi qulay axloqiy-psixologik muhit er-xotin va oilaning boshqa a'zolarida o'ziga ishonish, kishilarga ishonish, quvnoqlik, vazminlik kabi fazilat va tuyg'ularni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik muhit kishilarning muvofiqligida yanada aniq namoyon bo'ladi. Kishilar bir-birlari bilan muvofiqligi, avvalo hayotning qadri, qiziqishlari, emotsiyal ko'rsatmalarining umumiyligi tarzi hamoxangligi nazarda tutiladi, natijada oilada bir-birini tushunish, boshqalarning qadrini ham, shuningdek insonni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladi. Oila a'zolarida psixologik qulaylik ishonchlilik, himoyalanish, bir-birining muomalasidan qatnoatlanish muvofiqlikning ichki mub'ektiv ko'rsatgichidir.

Kishilarning nomuvofiqligi oila a'zolarining bir-birlari bilan muomalada va o'zaro harakatda bo'lgan ehtiyojlarining chegaralanganligidadir.

Oila kichik guruh sifatida, emotsiyal munosabatlar tizimining ahamiyatligi bo'yicha va ijtimoiy institut sifatida shaxs psixologiyasi, fanda ijtimoiy psixologiya fanida va sotsiologiya fanida ham o'rganiladi. Bola va ota-onalarning munosabatlari, tarbiya stili, bolaning oilada rivojlanishi yosh davrlari va Oila psixologiyasi ning asosiy o'rganish predmeti hisoblanadi. Oilaviy nizolar konfliktologiya fanida juda chuqur tahlil qilingan va tizimlashtirilgan. Oila barbob bo'lishi psixologik jarohotlarni, oilaviy

rollarni patologiyasini keltirib chiqarishi klinik-psixologlarni va psixoterapevtlarni diqqatini o'ziga tortadi. Shu bilan birga yaqin bo'lgan psixologiya fanlari bilan ham chambarchas bog'liq. Lekin shu bilan birga psixologiyaning bir-biriga yaqin fanlardagi umumiy qiziqishlar bilan birga farq qiluvchi xususiyatlari ham ko'rindi. Agar sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar guruhlarni (katta va kichik) o'rgansalar, oila psixologiyasi esa shunday g'aroyib bir butun vujudga kelgan – oilaga kiruvchi individlarni o'rganadi. Bunga oilaning o'z a'zolarini rivojlanishiga ta'sirini va individning oila rivojiga va mavjudligiga ta'sirini o'rganish kiradi.

Oila ichidagi o'zaro aloqalar boshqa har qanday guruh ichidagi o'zaro aloqalarga qaraganda boshqacha bo'lib – u qarindoshlik rishtalari bilan bog'langandir. Er-xotin o'zaro munosabati tahlil qilinar ekan, sotsiologlar diqqat markazida nikoh tendentsiyalari, ajralishlar, oila siyosati tahlili tursa, oila psixologlari esa, nima sababdan odamlar bir-birlarini yoqtirib qolishadi, qanday qilib bir-birlari bilan kelishib, moslashib yashab ketishadi degan muammolarni tadqiq qilish turadi. Individning shaxsiy hayoti sotsial psixologga qaraganda oila psixologini ko'proq qiziqtiradi. Shaxsni tadqiq qiluvchi psixologlar o'z diqqatlarini individlarning farqalari va ularning ichki individual mexanizmlari esa oila tizimida paydo bo'lган va o'sib rivojlanayotgan individga o'z diqqatlarini to'playdilar.

Bulardan tashqari oila psixologiyasi psixologiya fanining tadqiqot metodlaridan foydalananadi. Kuzatish, suxbat, intervju, anketa, test metodlari oila psixologiyasida ham unumli foydalilanadi.

2-savolning bayoni

Nikox oldi omillari qatori shu oila qurayotgan yoshlarning: *oilaviy xayotga etukligi*: ularning *oila kurish motivlari*: ularning oila qurishgunliklariga qadar *bir birlarini tanish muddati* (qancha vaqt bir birlarini tanishi) *shartlari va sharoitlari*: ularning o'zlarining bulgusi *oilaviy xayotlari xaqida tasavvurlari* kabilarni kiritish mumkin.

- 1.Fuqarolik, xukukiy etuklik.
- 2.Kasb-xunar etukligi.
- 3.Psixologik etuklik.

Nikox oldi omillaridan yana biri-shu nikox ko'rilihiga asos bo'lgan nikox motivlaridir. «Motiv» iborasi psixologiyada ma'lum bir xulq, faoliyatning yuzaga kelishiga asos bo'lgan kuch, turtki, manba, asosni bildiradi. Xo'sh, oilalar kanday motivlar tufayli yuzaga kelishi mumkin? Psixologik adabiyotlarda o'nlab nikox motivlari farklanadi. Lekin ular umumlashtirilgan xolda uchta klassifikatsiyaga farklanadi:

1.Sevgi tufayli 2.Moddiy yoki o'zga manfaatdorlik tufayli. 3.Stereotip bo'yicha

Xo'sh shu sanab o'tilgan uchala motiv: *sevgi, moddiy yoki o'zga manfaatdorlik tufayli, stereotip* bo'yicha ko'rilgan oilalarning qay biri mustaxkamrok buladi, ya'ni qay biri nikox mustaxkamligini kuchliroq ta'minlaydi?

Agar shu savol bilan yoshlarga murojaat qilsak albatta sevgini tanlashadi. Xakiatdan xam sevgining oila mustaxkamligidagi urni beqiyosdir. Xaqiqatdan xam sevgi – bu o'ta qudratli kuchdir. U tufayli inson nimalarga kodir emas?! Insoniyat o'z taraqqiyotida erishgan eng yuksak chukkilar xam sevgi tufaylidir. Z.Freyd ta'kidlaganidek: **Sevgi-bu insoniyatni xayvonot olamidan sug'urib olgan kuchdir!**

Oilani o'rganish bo'yicha psixologlar tomonidan kiritilayotgan ko'pgina tendentsiyalar, nazariy takliflar, nikoh va oila modeli mohiyatini yaratishga intilishlar oila psixologiyasini psixologik bilimlar tizimida tutgan o'rni va uni dolzarb ekanligini chuqurroq o'ylab ko'rishni taqozo etadi.

XXI asrga kelib insoniyat oldida qanday qilib o'z yolg'izligini engishi, o'zga kishi bilan qanday qilib mustahkam, garmonik, ittifoq tuzish va qanday qilib bu ittifoqni uzoq yillar, butun umr davomida saqlash kabi muammolar keskin turibdi. Bu haqda S.L.Rubinshteyn to'g'ri fikrni aytgan: "Inson hayoti asosini, o'zagini o'zga kishi, odamlarga bo'lган munosabat tashkil qiladi. Inson "yuragi" uning boshqa odamlarga bo'lган munosabatlaridan to'qilgan; uning bahosi, baholanishi odam qanday insoniy munosabatlarga intilishiga qarab, odamlarga va o'zga kishiga qanday munosabat o'rnata olishiga qarab aniqlanadi. Insonning boshqa odamlarga bo'lган munosabati asosida inson hayotini tahlil qilish psixologiyani asosiy yadrosini tashkil etadi".

2. «Avesto»da oila-nikoh masalalari qanday bo'lgan?

«Avesto»da oila, er-xotin munosabatlari etarli o'z ifodasini topgan.

Unda ayolga munosabat, ayolning roli, vazifalari, nikoh qurish yosh davrlari belgilangan.

Nikoh shartnomasi tuzilgan va undagi shartlarga ko'ra ayol huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy tomondan eri bilan teng huquqpi bo'lgan.

Er xotinini teng huquqli, sevimli xotin va hurmatli shaxs sifatida oilasiga olib kirgan.

Baynalminal nikoxlarga qarshilik ko'rsatilmagan.

Nikoh shartnomasiga ko'ra er xotinining rozilgisiz takror uylanish yoki ayol kishini xizmatkorlikka olish huquqiga ega bo'lмаган.

Nikoh shartnomasi, oilaning mustahkamligiga xizmat qilib, rashk hissini qo'zg'atuvchi, muloqot odobiga rioya etmaslik, shaxsiyatga tegish kabi salbiy hodisalarining oldini olishga qaratilgan.

Nikohni ajralishiga salbiy qaralgan, ammo ajralish oqibatida ayol va erkakning manfaatlari nikoh shartnomasida huquqiy kafolatlangan.

«Avesto»da ko'rsatilishicha, oilada ota etakchi bo'lgan. «Avesto»da ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya qilishi lozim bo'lgan.

Bu er-xotinni sodiqlikka da'vat etib, ularni bir-birlariga g'amxo'r va mexribon bo'lishga chaqirgan.

Diqqatga sazovor joyi shundaki, ayolning haq-huquqini himoya qilish o'sha davrda ham qonun darajasiga ko'tarilgan.

Zardushtiylik davrida oila qurishning quyidagi motivlari mavjud bo'lgan:

- a) ota yoki homiyning xohish-irodasi tufayli;
- b) sevgi-muhabbat tufayli;
- v) qarovsiz qolganligi tufayli (ayollar);
- g) farzandli bo'lish xohishi tufayli.

Umuman olganda, zardushtiylikda ayol va oila masalasiga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, ayol va oilaning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini mustahkamlash uchun o'sha davrlardan boshlab zamin yaratila boshlaganligini ta'kidlash lozim.

3. Hozirgi zamon oilasining qanday turlari farqlanadi?

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra quyidagicha farqlanadi:

- 1 .To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchilik nikoh) oilalar.

2.Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-onा va bolalardan iborat bo'lган) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.

3.Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar.

4. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziylolar oilasi, tadbirkorlar, aralash turdagи oila.

5. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi mакtab ma'lumotiga ega bo'lган qayliqlardan tashkil topgan va aralash turdagи oila.

6. Oilaning «yoshiga» ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lган oilalar), o'rta yoshdagi oila, etuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi).

7. Qayliqlarning ota-onasi oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasi jihatidan qudalarning bir-biriga mos ekanligi yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos va mos bo'lмаган oilalar.

8. Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

9. Nikoxdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra, ajralish saviyasida - nikohdan qoniqqanlik darajasi quyi saviyada bo'lган oila, o'rta saviyada va nikohdan qoniqqanlik darajasi yuqori saviyadagi oila.

10. Oilada ayol yoki erkak etakchiligiga qo'ra: er etakchi bo'lган oila, xotin etakchi bo'lган oila, er va xotin etakchilikni birga bajaradigan (biarxat) oila.

11. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlari ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

12. Er-xotinlarning millatiga ko'ra: bir millatli yoki baynalminal oilalar. Baynalminal oilalarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhgа kirgan millat vakillari orasida nikohlar, masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain, o'zbek-tatar va boshqalar, dini, urf-odatlari yoki tili bir guruhgа kirmagan millat vakillari orasidagi nikoxlar, masalan, o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-eston, o'zbek-nemis va boshqalar.

13. Yuridik rasmiylashtirilganligiga ko'ra: sinovdagi oila (birga yashashadi, ammo hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir-birlarini norasmiy nikohda sinashayapti), rasmiylashtirish arafasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadi aniq, ammo ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kechiktirilayapti), nikoxdagi oila, nikoxdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinni, uchinchi, yuridik jihatdan norasmiy oilasi). Nikoxdan tashqari oilalarning ayrimlari pinhona bo'lsa, ko'pchiligi haqida erkak kishining birinchi oilasi va qarindoshlari bilishadi.

4. Hozirgi zamon oilasining qanday asosiy funktsiyalari mavjud? :

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funktsiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funktsiyalari haqida gapirganda, bir tomonidan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomonidan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rmini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) funktsiyalarini hisobga olish lozim. Oila quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv).

Albatta, bu sanab o'tilganlar hozirgi zamon oilasini asosiy funktsiyalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo'jalik va o'zaro yordam kabi funktsiyalar hozirgi zamon oilasining

muhim funktsiyalari sifatida ko'rsatib o'tilsa, yana boshqa oilashunos mutaxassislar hozirgi zamon oilasi funktsiyalarini: inson zrtini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik funktsiyalarini farqlaydilar. Shuningdek, oila funktsiyalarini: bolalarni dunyoga keltirish, xo'jalik-maishiy, tarbiyaviy, oila a'zolari dam olishi va uni tashkil etish, ma'naviy muloqot, seksual, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, o'zaro modtsiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash kabilardan iborat ekanligani ta'kiddovchi klassifikatsiyalar ham mavjud. Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy fo'nktsiyalari, turlicha klassifikatsiya qilinmokda. Bu o'rinda oila funktsiyalarini shunchaki sanab o'tish bilan kifoyalanmay, balki ularni bir tomonidan odamlarning moddiy, xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomonidan emotsiional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funktsiyalarga farqlash muhim.

Shuni ham aytib o'tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsiional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish funktsiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy xarakterga ega bo'lgan funktsiyalarda ham hissiylik ko'proq rivojlanib bormokda. Hissiy, emotsiional kontaktlarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq ekanligi anglanmokda. Qishloq oilalari esa uy hayvonlari va tomorqa erlarining borligi evaziga shahar oilalariga karaganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo'g'inligini, ishlab chiqaruvchilik funktsiyasini ko'proq saqlab qolmoqda.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida zamonaviy oilaning asosiy funktsiyalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: iqqisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv), felitsitologik kabilar.

5. Oilaning iqtisodiy funktsiyasi nimadan iborat?

Oilaning iqqisodiy funktsiyasi uning asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Oila iqqisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejamli ro'zg'or yuritish er-xotinning katga tajriba, malakaga ega bo'lishiga bog'liq. Shuningdek, oilada o'sayotgan farzand ham mana shu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borishi zarurligini unutmagan holda o'g'il-qizga iqqisodiy masalalarni hal etishni o'rgata borish lozim. Keyingi yillarda ro'zg'orda yuzaga kelayotgan iqqisodiy muammolar oiladagi shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir etishi bilan birgalikda farzandlar bilim saviyasining pasayishiga ham olib kelmokda. Bunday nohush holatlarning oldini olish maqsadida moddiy qiyinchiliklar tufayli hosil bo'ladigan muammolarni bartaraf etishda odamlarga psixologik yordam ko'rsatish lozim.

Oila o'zining shu funktsiyasi tufayli jamiyatga, davlatga katta iqqisodiy foyda keltiradi. Masalan, bola tarbiyasi, bolani iqtisodiy ta'minlash borasidayoq uning jamiyatga keltirgan foydasi katta miqdorni tashkil etadi. Buni davlat tomonidan, davlat muassasalarida (bolalar uylarida) bir bolani 16-18 yil tarbiyalab, ishchi kuchi sifatida etishtirish uchun (uni boqish, kiyintirish, o'qitish, moddiy ta'minlash va sh.k.) davlat tomonidan har bir bolaga sarflanadigan mablag' va aynan shunday ishchi kuchini oilada tarbiyalash uchun beriladigan nafaqa pullari miqdorini solishtiradigan bo'lsak, o'rtadagi farq birinchilar foydasiga bir necha yuz ming so'mni tashkil qiladi.

Tasavvur qilishga osonroq bo'lishi uchun aytish mumkinki, har bir bolani voyaga etkazish uchun oila davlatga kamida bitta «Neksiya» avtomashinasi qimmati miqtsorida iqtisodiy foyda keltiradi. Bu boradagi, ya'ni har tomonlama kamol topgan ma'naviy-

axloqiy etuk, jismoniy-psixologik sog'lom shaxsni etishtirishning ma'naviy-axloqiy qimmatini esa hech qanday iqqisodiy mezon bilan o'lchab bo'lmaydi.

Bu oilani iqtisodiy funktsiyasini atigi birgina shaxsni shakllantirishdagi foydasini ko'rsatadi xolos. Oilada xo'jalik yumushlarini yuritish, ro'zg'orning yo'lga qo'yilishi, oilada moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, fermer xo'jaligi, shaxsiy ishlab chiqarish kabilalar uning jamiyat oldidagi iqtisodiy funktsiyasi va ahamiyatini tobora orttiraveradi.

6. Oilaning reproduktiv funktsiyasi nimadan iborat?

Oilaning muhim bo'lgan funktsiyalaridan yana biri - bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzlusizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funktsiyasidir. Bu funkdiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iboratdir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti insonda farzand ko'rishga, ularni o'stirishga va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojiga aylanadi. Bu ehtiyojlarni qondirmasdan turib, kishi odatda o'zini baxtiyor his qila olmaydi. Shuningdek, er-xotinda farzand tug'ilishi bilan bog'liq holda butunlay yangi hissiyotlar: ayodda - onalik, erkakda - otalik hissi paydo bo'ladi. Farzand er-xotin munosabatlarini yanada mustahkamlovchi asosiy omil hamdir.

Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv funktsiyasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtadan farzand bo'lishi lozimligi nazarda tutiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq sakkizinchaviydan keyin yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan. Har bir oilada ikkitadan farzandning bo'lishi ham aholi sonini saqlab turishni ta'minlay olmaydi. Demograflarning ta'kidlashlaricha, oila o'zining reproduktiv funktsiyasini bajarishi uchun har bir oilaga o'rtacha 2,6 ta farzand to'g'ri kelishi kerak.

Albatta, faqat oilagina jamiyat oldidagi funktsiyalarini bajarib qolmasdan, balki jamiyat ham oilalarga funktsiyalarini muvaffaqiyatli uddalashlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Bu o'rindan hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan demografik siyosat, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy tadbirlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bunday siyosatning asosiy yo'naliishlari onalik va bolalikni muhofaza qilish, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarning moddiy ahvolini yaxshilash, yosh oilalarga, onalarga yaratilayotgan imtiyozlar va shu kabilardan iborat.

7. Oilaning tarbiyaviy funktsiyasi deyilganda nima nazarda tutiladi?

Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-onalik, bola - san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan e'zozlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindoshurug', mahallaning ham ta'siri) bu'borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oila tarbiyaviy funktsiyasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari hulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzuklik yo'liga kirish) paydo bo'lishi

tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funktsiyasi da-rajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va hulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xal-qimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

8. Oilaning kommunikativ funktsiyasi nimadan iborat?

Oilaning kommunikativ funktsiyasi oila a'zolarining uzaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy orientatsiyalar, «ustanovka»lar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi - oiladagi o'zaro, ichki muloqot xarakteri, xonadondagi yoshi katgalarning o'zaro munosabatlarida psixologik «ustanovka»larni namoyon qilishlari oiladagi axloqiy-psixologik iqlimga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida fan-texnika taraqqiyotining yuksalib, odamlarning kundalik hayotining urbanizatsiyalashuvining (radio, televideenie, video, kompyuter va boshqalar) ortib borishi, oilalarning tobora nuklearlashib borayotganligi bilan oilaning kommunikativ funktsiyasining ahamiyati, oila a'zolarining bir-birlari bilan «odamlarcha» suhbatlashib olish-ning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu o'rinda o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyati: ko'p avlodlilik, ko'p farzandlilik kabilar bunday oilalar a'zolari o'rtasida o'zaro muloqotni to'laroq amalga oshishiga asos bo'ladi, ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq so'nggi yillarda ba'zi oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborning pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinliganing cheklanganligi (ayniqsa, qishloq oilalarida), holatlari ham mayjud. Hatto oiladagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuvi natijasida oila a'zolarini ayrimlarida stress (asabiy taranglik), suitsid (o'z joniga qasd qilish) kabi noxush holatlarning kelib chiqishi ham kuzatshshoqda. Bunday noxushliklarning oldini olish uchun, eng avvalo, oila a'zolari o'rtasida oshkora, yaqin, o'zaro tushunarli, ishonchli muloqotning amalga oshishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, lozim bo'lsa bu borada yoshlarga tegashli bilimlarni beriig aholi uchun psixologik maslahatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, treninglar tashkil etish, «Ishonch telefonlari», «Qalb markazlari» kabilarni tashkil etib, ular faoliyatini takomillashtirish lozim.

9. Oilaning rekreativ funktsiyasi nimadan iborat?

Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo'lib kelgan xususiyatlardan biri, undagi shaxslararo munosabatlar talablaridan biri uni o'z a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanishini ta'minlash, yosh bolalarga va mehnatga yaroqsiz kishilar yoki keksa qarindoshlarga moddiy-ma'naviy va jismoniy yordam ko'rsatish kabilardan iborat bo'lib kelgan.

Bu holat o'z navbatida oilaning asosiy funktsiyalaridan birini, uning rekreativ funktsiyasini tashkil qiladi. Oilaning rekreativ funktsiyasi - o'zaro jismoniy, moddiy,

ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolarining dam olishini tashkil etish demakdir. Bu funktsiya keyingi yillarda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oila a'zolari salomatligini mustahkamlash, oila a'zolarining dam olishini tashkil etish, oila a'zolarining bevosita mehnat, o'qish va boshqa ijtimoiy faoliyatlaridan holi holda, ya'ni bo'sh vaqtarni birgaliqda o'tkazishlarini qanday tashkil qilishlari, unda bularning o'zaro munosabatlari xarakteri qanday ekanligi bugungi kun oilasi mustahkamligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan hisoblanadi. Bo'sh vaqt jamiyatning nihoyatda muhim ijtimoiy qadriyatlaridan biridir. Bu qadriyatdan odamlar turlicha foydalanadilar. Bo'sh vaqagini muntazam ravishda qanday o'tkazishiga qarab har bir odamning etuklik darajasiga, ma'naviy dunyosiga baho berish mumkin. Bu borada erishilgan yutuqparimizdan biri shuki - dam olish va sog'lomlashtirish ishlariga davlat miqyosida ahamiyat berila boshlandi. Lekin ko'pchilik turli sabablar bilan (ular-ning o'zлari qo'proq moddiy sababni ko'rsatishadi) madaniy dam olishga e'tibor bermay qo'yganligini ham aytib o'tish lozim. Hozirgi vaqgda oilaviy dam olish, oilaviy turizm va qator oilaviy tadbirlar doirasi kengayib bormoqda.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi vaqgda" oilaning rekreativ funktsiyasini ko'p hollarda davlat va ijtimoiy tashkilotlar o'z zimmasiga olmoqtsa. Jamiyat a'zolarining xavfsizligini ta'minlash, qariyalarga bepul tibbiy yordam ko'rsatish (bizning milliy xususiyatlarimizga yot bo'lsada, qariyalar uylarining ochilishi), odamlar dam olishlari va o'z sog'liqlarini tiklab olish imko-niyatlarini beradigan dam olish uylari va sanatoriylarning ochilishi kabilar shular jumlasidandir. Lekin shu bilan birga oilaning o'z a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanganligini ta'minlashdagi roli tobora ortib bormoqda. Chunki inson faqat o'z oilasidagina va faqat o'z yaqinlari qurshovidagina o'zini tom ma'noda xotirjam, erkin his qila olishi mumkin xolos. Bu borada oilaning o'rmini hech bir ijtimoiy muassasa bosa olmaydi.

10.Oilaning felitsitologik funktsiyasi nima?

Hozirgi zamон oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funktsiyalaridan biri uning felitsitologik funktsiyasidir (italyancha «felitsite» - baxt degani). Shaxsiy farovonlikka erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda. Baxt nima o'zi? Hozirgi zamон oilasi o'z a'zolarining baxtini ta'minlashda qanday rol o'ynaydi? Baxtga intilish har bir inson uchun tabiiydir va ayni shu baxtga intilish ularni oila qurishga undaydi. Inson o'ziga ato etilgan baxtning to'rtdan uch qismini oiladan, choraktaga etar-etmas qismini boshqa narsalardan topadi. Oilada er-xotinning bir-birini to'liq tushunishi - ularning o'zlarini baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, o'zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlar (iqgidor)ni ro'yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o'zini baxtli his qilish imkonini beradi. Keyingi vaqtarda insonning imkoniyatlari ortgan sari uning baxtga intilish darajasi ham ortib bormoqda. Lekin ba'zan noplak yo'llar bilan pul topish orqali baxtli bo'lishga intilish yoki o'zgalar hisobiga shaxsiy baxtga intilish kabi salbiy holatlar ham uchrab turadi. Ba'zan esa oila a'zolarining (ayniqsa; er-xotinning) shaxsiy baxtga o'z maylicha intilishi oilalarda noxush holatlar (xiyonat kabi)ni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun har bir shaxs o'zida ko'proq vijdonlilik, poklik, halollik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga e'tibor berishi lozim.

11. Oilaning regulyativ funktsiyasi nimaga xizmat qiladi?

Oilaning regulyativ funktsiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda kattalar to-monidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomongan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi. O'tgan zamonalarda oilaning boshqarish funktsiyasi ma'lum darajada rasmiy tarzda belgilab ham qo'yilgan. Unga ko'ra, oilada kim xonodon boshlig'i bo'lishligi, uning obro'si va ustunligi qayd etilgan va oilaning shu a'zosi (asosan ota) butun umri davomida o'z farzandlari va oila a'zolari xatti-harakati, xulqi uchun javobgar bo'lган. Unda ota-onasiga bo'ysunmaganlarni jazolash hollari ham nazarda tutilgan.

Hozirgi zamon egalitar oilalarida esa oilaning boshqaruv funktsiyasi asosan axloqiy me'yorlar, oila a'zolarinig shaxsiy obro'si va birinchi navbatda, ota-onalarning bolalarga nisbatan bo'lgan munosabatlaridagi obro'si kabilar yordamida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, ba'zi oilalarda oilani boshqarish, unga boshchilik qilish oila a'zolarining qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, ba'zi oilalarda (er-xotinning alohida-alohida) etakchilikka intilishi natijasida oilaviy nizolarning ortib borishi, bolalarning har tomonlama e'tibordan chetda qolishi, natijada jinoyatchilik ko'chasiga kirib ketishi kabilar kuzatiladi. Ba'zi oilalarda ayol ustunligining mavjudligi o'g'il bola shaxsida ayollarga xos xususiyatlarning ko'payib borishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga oilaning boshqaruv funktsiyasi oila a'zolarining xulqi, mas'uliyati, majburiyati kabilarni ham boshqarishni, nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Odam oila qurbanidan so'ng, albatta, uning ijtimoiy mavqeい o'zgaradi. Endi u «uylanmagan yigit», «turmushga chiqmagan qiz» emas, balki «oilali» odamdir. Shunga ko'ra u o'zining xatti-harakatlari, xulqini ham oilali odamga xos tarzda qaytadan ko'rib chiqadi. Oila qurish tufayli uning mas'uliyati ortadi. Erning va xotinning xulqi ham endi o'ziga xos tarzda boshqariladi.

12. Oilaning relaksatsiya funktsiyasi nima?

Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funktsiyalaridan yana biri relaksatsiya funktsiyasidir. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsiyal faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Ma'lumki, fan-texnika tarqqiyotining hozirgi bosqichida, ishlab chiqarish munosabatlarining jadallahushi, xalq xo'jaligining turli jabhalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyatiga oldingilariga qaraganda ko'proq jismoniy, ruhiy zo'riqishlar bermoqda. Bugungi va ertangi kun sanoati, ishlab chiqarishi ishchi xodimdan bor imkoniyatini safarbar qilib, butun vujudi bilan ishlashni va o'zining kasb-hunar mahoratini muntazam oshirib borishni taqozo qiladi. Ishlab chiqarish jarayonlari jadal-ligining bunday tarzda davom etishi shu jarayonlar ishtirokchisi, boshqaruvchisi insonni tezda toliqib, o'zining mehnat qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Ish kuni davomida ko'tarinkilik, kuchli zo'riqish bilan ishlagan xodim ishdan so'ng o'z uyida, oila a'zolari qurshovida boshqa tashkishlarni unutib, unga ko'rsatiladigan mexroqibatdan baxramand bo'lgan holda, ular bilan bo'ladigan o'zaro muloqot, ular tomonidan bo'ladigan emotsiyal qo'llab-quvvatlash, beriladigan daldalardan ruhiy

quvvat olib, ertangi kun mehnat faoliyatiga o'zini qayta tiklab olishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa uning oilasida tinchlik-totuvlyk, bir-birini tushunish, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, ijobjiy psixologik iqlim hukm surmog'i lozim. Aks holda inson bu oilada emotsiyonal jihatdan, ruhiy jihatdan o'zini qayta tiklab ola olmaydi. Bu esa oqibatda odamning mehnat faoliyatida turli xatolarga, ishda sifatsizlik, jarohatlarga yo'l qo'yishiga, turli kasallikkarga duchor bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari.

1. Yoshlarni oilaga tayyorlash tushunchasi nimani anglatadi?.
2. Oila deb nimaga aytildi?
3. Oilaning qanday funkuiyalari mavjud?
4. Oilaning iqtisodiy funktsiyasiga nimalar kiradi?
5. Oilaning reguliyativ funktsiyasiga nimalar kiradi?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova

Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b

2.G'oziev. E.G'. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.

3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.

4.G`oziyev E.G`. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.

5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.

6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

Elektron ta'lim resurslari

1.www.childpsy.ru

2.www.edu.uz

3.www.flogiston.ru

4.www.pedagog.uz

8-mavzu. YOSHLIK ETUKLIK VA KEKSALIK DAVRINING PIXOLOGIK XUSUSIYATLARI PSIXOLOGIYASI

Asosiy savollar:

- 8.1. Yoshlik va etuklik tushunchasi va uning yosh chegaralari
- 8.2. Jismoniy rivojlanish
- 8.3. Psixologik xususiyatlari
- 8.4. Keksalik davriga xos xususiyatlar

Darsning maqsadi:

Yoshlik va etuklik tushunchasi va uning yosh chegaralari. Jismoniy rivojlanish Psixologik xususiyatlari. Keksalik davriga xos xususiyatlarini o'rganish

Kalit so'zlar:

Yoshlik davri, keksalik davri, jismoniy va psixologik etuklik, ijtimoiy ta'sir ko'rsatish, keksalik davri psixologik xususiyatlari, geronto psixologiya.

1. Yoshlik tushunchasi va uning yosh chegaralari

Brinchi savolning bayoni

8.1. Yosh psixologiyasida yoshlik odatda jinsiy voyaga etish bilan boshlanib, kattalikning boshlanishi bilan yakunlanuvchi rivojlanish bosqichi sifatida belgilanadi. Bundagi birinchi chegara – fiziologik chegaradir. Ikkinchisi esa – ijtimoiy. Bu yosh davri murakkab va ko'pqirrali. Yoshlikni individ (fiziologik, biologik xususiyatlar va o'zgarishlar) yoki shaxs (ijtimoiy va psixologik jarayon) sifatida inson rivojlanishining ichki jarayonlari nuqtai nazaridan tadqiq etuvchi ko'plab yoshlik nazariyalari mavjud.

Zamonaviy fanning fikricha, yoshlik muammosini rivojlanish omillari va ichki qonuniyatlarini inobatga olgan holda kompleks, har tomonlama o'rganish kerak. Bu juda qiyin, negaki psixologik rivojlanish sur'ati va bosqichlari har doim ham ijtimoiy voyaga etish muddati bilan mos kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarning jismoniy rivojlanishi bir-ikki avlod oldingilardan ikki yilga tezlashgan. Akseleratsiya bilan bog'liq tarzda o'smirlilik yoshi chegaralari «yashardi» u 14 – 14,5 yoshdayoq yakunlanadi. Shunga muvofiq tarzda yoshlik ham ertaroq boshlanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ilk yoshlikning quyidagi yosh chegaralarini belgilash mumkin – bu 14,5–17 yosh.

8.2. Jismoniy rivojlanish

Erta yoshlik – inson jismoniy rivojlanishining yakunlanish davri. Tananing bo'yiga o'sishi o'smirlilik yoshiga nisbatan sekinlashadi. Qizlar 16–17 (farq 13 oy) yosh orasida, yigitlar 17–18 yosh orasida (farq 10 oy) to'la bo'yga etadilar. Bolalar qizlardan vazn bo'yicha biroz ortda qolishi o'rnini qoplaydilar. Mushaklar kuchi juda tez ortadi: 16 yoshli bola bu jihatdan 12 yoshli boladan deyarli ikki barobar ustunlik qiladi. O'sish yakunlangandan so'ng taxminan bir yildan keyin odam kattalarga xos normal mushak kuchiga erishadi. Ko'p narsa, albatta, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga bog'liq. Ayrim sport turlarida erta yoshlik – maksimal yutuqlar davridir.

Keng tarqalgan tushunchalarga qaramay, jismoniy voyaga etish muddati irqiy va milliy xususiyatlar hamda iqlimga bog'liq emas. Lekin ovqatlanish sifatidagi tafovutlar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri bor. Bundan tashqari o'rta statistik me'yordarning individual-fiziologik me'yorlar bilan mos tushmasligini nazarda tutish juda muhim. Ayrim to'la normal yoshlar rivojlanishda statistik muddatlardan juda o'zib ketadilar yoki ortda qoladilar. Yosh yigit bola va katta yoshdagি odam o'rtasidagi oraliq holatda turadi. ²ayot faoliyatining murakkablashishi bilan yoshlarda nafaqat ijtimoiy rol va qiziqishlar doirasining miqdoriy kengayishi, balki ularning sifat o'zgarishi ham ro'y beradi. Unda kattalarga xos rollar, ulardan kelib chiqqan holda mustaqil javobgarlik me'yori paydo bo'ladi. Ko'pchilik bu yoshda allaqachon mehnat faoliyatini boshlaydi, hamma kasb tanlashni o'ylaydi va hokazo. Biroq kattalar mavqeい elementlari bilan bir qatorda yoshlarda hali uning holatini bola holati bilan yaqinlashtiruvchi tobelik belgilari saqlanadi. Moddiy jihatdan hali yuqori sinf o'quvchisi ota-onasi qaramog'ida bo'ladi.

Maktabda bir tomondan uning kattaligini eslatib turishsa, boshqa tomondan doimo bo'ysunishni talab qilishadi.

15-17 yoshli yigit va qizlar maktab o'quvchisi bo'lgan yoshlardan farqli ravishda, kollej talabalari ham bo'lishi mumkin. Ayrim yoshlar o'qish bilan ishlab chiqarish mehnatini birgalikda olib boradilar. Bu tafovutlar uning psixologiyasida aks etadi va tarbiyachilar tomonidan e'tiborga olinishi shart.

8.3. Psixologik xususiyatlар

15-16 yoshli odamning umumiy aqliy qobiliyatları, odatda, allaqachon shakllanib bo'ladi va ularning bolalikdagidek tez o'sishi kuzatilmaydi. Biroq ular mukammallashishda davom etadi. Murakkab intellektual operatsiyalarini egallash va tushunchalar apparatining boyishi yigit va qizlarning aqliy faoliyatini mustahkamroq va samaraliroq qiladi, bu esa ularni kattalar faoliyatiga yaqinlashtiradi. Ayniqsa, maxsus qobiliyatlar tez rivojlanadi.

O'z-o'zini anglash. O'zining psixik xususiyatlarini anglash va o'z-o'zini baholash yoshlar va o'spirinlarda yanada katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar va o'spirinlar hayotda o'z o'rmini topishga kirishishadi – shaxs xususiyatlari aktiv shakllanadi. Yoshlar o'zlarini anglashdek murakkab muammoni yolg'iz emas, ota-on, tengdoshlar, o'qituvchilar bilan muloqotda, ularning qo'llab-quvvatlashlari ostida hal qiladi.

Emotsional, axloqiy qadriyatlar, yo'l topish sohasida o'spirinlar o'z huquqlari va mustaqilligini himoya qiladilar. Ba'zan ular faqat originallikka da'vogarlik uchungina ataylab qo'rslik qilishadi. Aslida ota-oni ta'siri ustunligicha qolaverdi. Avlodlar o'rtasidagi farq moda, did, ko'ngil ochish usullari kabi nisbatan yuzaki masalalarda juda sezilarlidir. Lekin ancha teran masalalar – siyosiy qarashlar, dunyoqarash, kasb tanlashda ota-oni mavqei ahamiyatiroq bo'ladi va, odatda, tengdosh-o'rtoqlar ta'siridan ustunlik qiladi.

Jamoa hayotining ahamiyati o'sib borishi bilan bir qatorda, erta yoshlikda individual intim do'stlikka talab keskin kuchayadi. Yoshlikdagi do'stlik intimlik, emotsiyal iliqlik, samimiyatni birinchi o'ringa olib chiqadi. O'z-o'zini anglashning rivojlanishi va unga xos bo'lgan ziddiyatlar engib bo'lmaydigan «ko'ngil izhori» talabini uyg'otadi. Xuddi mana shundan do'stni xuddi o'zidek alter ego (boshqa «men») tushunish paydo bo'ladi. Bunday ehtiyoj aynan erta yoshlikda paydo bo'ladi.

Sevgi. O'g'il bola va qiz bola o'rtasida o'spirinlikda cheklangan o'zaro munosabatlar erta yoshlikda sezilarli darajada faollashadi. Dastlabki jiddiy qiziqish, sevgi va chuqur hissiyotlarga katta ehtiyoj paydo bo'ladi.

ERTA YOSHLIK – dunyoqarashning shakllanishida hal qiluvchi yosh. Albatta, dunyoqarash asoslari ancha ilgari - bolalikda quriladi. Lekin faqat yoshlikdagina shaxs sifatlarining ancha yuqori darajada shakllanishiga asoslanib, dunyoga nisbatan munosabatni aniqlash mumkin. Umumiy dunyoqarash tushunchalari rejalarda hayotiylashadi va aniqlashadi. Biroq yoshlar ularga yig'ilgan bilim-tajribani etkazib beruvchi kattalar yordami va rahbarligiga doimo muhtoj bo'ladir. Yoshlik xususiyatlari qanchalik inobatga olinsa va uning faollikka intilishiga suyanilsa, tarbiya ham shunchalik samarali bo'ladi.

8.4.Keksalik davriniga xos xususiyatlар

Keksalik davri èsh psixologiyasida boshqa davrlardan keskin farq qilishi bilan ajralib turadi. Bu davrga kelib, inson mehnat mahsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydi. Keksalik davrida oilaviy turmushga, ijtimoiy haètga, yashash maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak-atrofdagilarga yangicha mezon bilan qaray boshlaydi. Bu èshda keksalarijtimoiy hodisalar, kundalik turmush muammolarini tajribaviy vazminlik,sabr-toqatlilik, uzoqni ko'ra olishlik va yana boshqa pozitsiyalaridan turib ijobiy hal qiladilar. Keksalar har bir voqeа-hodisa va narsalarning yaxshi oqibatidan oldin, avvalo, uning èmon oqibatlari haqida o'z mulohazalarini shakllantirish qobiliyatiga ega. Haètda qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar, xato va kamchiliklar ularning "etti o'lchab, bir kes" xalqona tamoyiliga asosanhaèt faoliyatini olib borishlarini taqozo etadi. Inson keksaygan sari umrining biror daqiqasi behuda o'tishiga achinadi, èshlik yillarida yo'qotganlarini aql-zakovat va donishmandlik bilan to'ldirishga intilad i. Shu bilan birga keksalik davrida biologik organning zaiflashuvi psixik jaraènlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Bu esa bilish jaraènlari (sezgi, idr ok, xotira, tafakkur...), axloq (hushèrlik, hozirjavoblik, topqirlik...) va aql-zakovat (aql, bilim, ijtimoiy tajriba, mahorat, ijodiy faoliyat, barqaror malaka...) kabi ruhiy holatlarda o'z aksini topadi. Bu davrda sezgi organlarining zaiflashuvi, asab sistemasining kuchsizlanishi, xotira, tafakkur, diqqatni to'plashning qiyinlashuvi, unutish jaraèniningkuchayishiga olib keladi. Lekin shunga qaramay, keksalarda ma'naviy-ruhiy jihatdan o'zligini anglashning yanada takomillashuvi, o'z-o'zini baholash, nazorat qilish, o'z-o'ziga buyruq berish kabi mezonlar, mas'uliyatlilik hissining ortishi, kelajakka intilish, ishchanlik qobiliyatining saqlanishiga olib keladi. Istiqbol reja va maqsadlar, sog'lom ruhiyat uzoq umr ko'rishga hamda keksalik gashtini xavas qilgudek o'tkazishga olib boradi. Bu borada èsh psixologiyasi qonuniyatlariga suyanmoq darkor. Passiv turmush tarziga ko'nikkan qariyalar esa foniy dunèdan umidsizlik tuyg'usi paydo b o'ladi va bu hol faollikni, rejalar tuzishga intilishni susaytiradi. Bunday qariyalar betoblikdaèq vasiyat qilish, qarindoshlardan rozi-rizochilik tilashga o'tib oladilar. Nafaqaga chiqish arafasida ham insonda xotirjam dam olish istagi va ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz paydo bo'ladi.

Hozirgi zamon kishilarining o'rtacha umr ko'rishi qariyb bir yarim -ikki marta uzayganligi, bu davrda jismoniy baquvvatlilik, ma'naviyat va ruhiyatning tetikligi ijtimoiy faoliyatni susaytirish haqida so'z bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Demak, ularning ishchanligi, aqliy qobiliyati, kasbiy mahorati, turmush tajribasi, ongning yuksakligi, ma'naviyatning boyligi, ruhiyatning sofligi yangi zafar, mehnat quvonchlari sari dadil qadam tashlashga to'la kafolat beradi.

Somatik sihatlilik keksa odamning psixolofiziologik funktsiyalari, psixik jaraènlar va shaxsiy xususiyatlarining takomillashishiga olib keladi. Bu esa aqliy zo'riqish, asabiy taranglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtidan tejamli foydalanish imkoniyatini yara tadi va ularni èsh avlod oldida ibrat bo'lgudek imkoniyatlarini yaratadi. Barqaror kayfiyat, xotirjamlik tuyg'usiga ega bo'lgan, o'z qadr -qimmatini saqlaètgan, oila muhitining sardoriga aylangan, ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashsa-da, qarilik gashtini suraètgan keksalar ham talaygina.Jismoniy harakat imkoniyatiga ega bo'lgan qariyalar mehnat qilishga intiladilar. Ular tarixiy voqealarni tirik guvoh sifatida batafsil baèn qiladilar. Sog'lom qariyalarda donishmandlik umrning oxirgi nafasiga qadar saqlanishi tajribalarda qayd etilgan.

Bir-birini qo'msash, hamdardlik,yuksak tuyg'ular oilada totuvlikni yanada mustahkamlaydi. Xayrixohlik bildirish, insonparvarlik hissi tufayli jamiki inson zotiga yaxshilik tilanadi. Keksalarda rahmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik singari tuyg'ularning ifodalanishi boshqa èsh davrdagi odamlar tuyg'usiga aslo o'xshamaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Qari bilganni pari bilmas" degan naql bor. Ortiqcha zo'riqishsiz jismoniy mehnat bilan shug'ullangan odamlarda harakatning tezligi, qad-qomatning tikligi, ma'naviy tetiklik, ruhiy faollik uzoqroq saqlanadi. Bunday holat sog'lom keksayishdan dalolat beradi. Aqliy mehnat bilan doimo shug'ullanuvchi keksa odamlarning xotirasi yaxshi bo'ladi, aqlni peshlaydigan mashqlar bilan shug'ullanuvchi odamlarda ham intellektning yuksak darajasi saqlanib qoladi. Shaxslararo munosabat, shirin muomala, oilaviy totuvlik, asabni saqlash, psixik faollik umrni uzaytirish omillaridandir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yoshlik va etuklik tushunchasi va uning yosh chegaralari
2. Jismoniy rivojlanish
3. Psixologik xususiyatlari
4. Keksalik davriga xos xususiyatlar

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova **Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.** «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
- 4.G`oziyev E.G. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.www.childpsy.ru
- 2.www.edu.uz
- 3.www.flogiston.ru
- 4.www.pedagog.uz

9-MAVZU: GERONTOPSIXOLOGIYA

Asosiy savollar

- 9.1. Gerontopsixologiya - keksalik psixologiyasi haqida umumiyl tushuncha.
- 9.2. Gerontopsixologiya – psixologiya fanining tarkibiy qismi sifatida.
- 9.3. Psixolog olimlarning keksayish davri haqidagi falsafiy fikrlari.
- 9.4. Keksalik davrining o'ziga xos xususiyatlari.
- 9.5. Biologik keksayish davridagi shaxs psixologiyasi. Keksalik davridagi shaxsning psixologik hususiyatlari.

9.6. Uzoq umr ko'rvchilarning psixologik xususiyatlari.

Darsning maqsadi:

Gerontopsixologiya - keksalik psixologiyasi haqida umumiy tushuncha.

Gerontopsixologiya – psixologiya fanining tarkibiy qismi sifatida. Psixolog olimlarning keksayish davri haqidagi falsafiy fikrlari. Keksalik davrining o'ziga xos xususiyatlari. Biologik keksayish davridagi shaxs psixologiyasi. Keksalik davridagi shaxsning psixologik xususiyatlari. Uzoq umr ko'rvchilarning psixologik xususiyatlari.

Kalit so'zlar:

Psixogerontologiya. Geriatriya. Gerogigiena. Mikrosopiya.

1. Gerontopsixologiya - keksalik psixologiyasi haqida umumiy tushuncha Brinchi savolning bayoni

9.1. Psixogerontologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jixatdan S.Xoll asoslagan bo'lsa-da, lekin bu yo'nalihsning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Tsitseron («Katta Katon yoki keksayish xaqida» asarida), I.I.Mechnikov («Optimizm etyudlari» kitobida), O'rta Osiyo allomalari donolik, donishmandlik xaqidagi durdonalarida falsafiy fikr va muloxazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog S.Xoll (1846-1924) «Keksayish» monografiyasida amaliy va metodilogik ahamiyatga molik qator g'oyalarni ilgari surgan.

Yigirmanchi asrning 30-yillaridan boshlab keksalik davriga oid tibbiy biologik tadqiqotlarning ko'payishi, shuningdek, inson kamolotiga shaxs sifatida yondoshishning paydo bo'lishi psixogerontologiyaning rivojlanishiga alohida jarayon sifatida yondoshishning paydo bo'lishi psixogerontologiyaning rivojlanishiga birmuncha ta'sir ko'rsatadi.

Ana shu tariqa keksayishning tibbiy, ijtimoiy jixatidan yondoshish bilan bir qatorda psixologik jabhasi jihatidan yondoshish ham vujudga keldi va psixogerontologiyaning tadqiqot soxasi kengayib bordi, shu soha bo'yicha ingliz tilida maxsus jurnallar chiqa boshladi.

Ilmiy izlanishlarning aksariyati keksayish davridagi odamlar shaxsining xususiyatlari, diqqati, xotirasi, tafakkuri, aql-zakovatiga bag'ishlangan bo'lib, boshqa psixik xolatlar jarayonlar juda kam tadqiq qilingan. Xozir keksayish psixologiyasi hamda psixogerontologiyani ham yosh psixologiyasi soxasiga taaluqli degan ikki xil ilmiy nazariya mavjud. Vaholangki, ular o'zaro bog'liq bo'lib bir-birini doimo ilmiy axborot va ma'lumotlar bilan boyitib turadi.

Psixogerontologiya fanida gerontologiya, involyutsiya, geriatriya, geregigiena, geteroxronlik kabi ilmiy tushunchalar mavjud.

Geriatriya evolyutsianing teskarisi bo'lib, o'sishdan orqaga qaytishini ifodalaydi. Gerogigiena-keksaygan odamning salomatligini saqlash va mustaxkamlash soxasidir. Gerogigiena keksa odamlarda asab, ruxiy kasalliklarning oldini olish uchun xizmat qiladi. Geteroxronlik-bir xil yoshdagi odamlarda ruxiy jarayonlarning turlicha (xar-xil vaqt va muddat) namayon bo'lishidir.

Psixogerontologiya fanida gerontogenezning evolyutsion omillari qatorida I.V.Davidovskiy nasliy, ekologik, biologik, ijtimoiy alomatlarini kiritadi. D.Bromley insonni qarishi tsikli uchta bosqichdan iborat bo'lishini ta'kidlaydi:

- 1) «ishdan xizmatdan uzoqlashish» (istexfo)- 66-70 yosh;
- 2) keksalik (70va undan katta yosh),
- 3) munkillagan keksalik (xasta keksalik va o'lim)- maksimum 110yosh.

Shu bilan birga keksayishning qonuniyatları ham kashf qilingan, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Geteroxronlik(xar-xil vaqtliklilik)qonuni;
2. O'ziga xoslik qonuni;
3. Xilma-xillik qonuni.

I.V.Davidovskiy «Keksayish nima?» nomli asarida ta'kidlaganidek, inson 50-60 yoshga to'lganda yoki, undan oshgan chog'ida etuklikning kechikkan davriga kirib keladi. Shu yoshdagi odamlarining o'limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mexnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki xozirgi kunda nafaqani belgilash xaqiqiy biologik qarish yoshidan 15-20 yil ilgarilab ketgan. Bu xol aqliy mehnat bilan shug'ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko'zga tashlandi. I.V.Davidovskiy fikricha, uzoq umr ko'ruchilar asosan ozgina, faol, xarakatchan odamlar bo'llib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyatiga daxldor tinka quritar cassalliklardan xolis bo'ladilar.

Tadqiqotchi P.P.Lazerev 1928 yilda umr o'tishi bilan ko'ruv apparati markaziy etnologiyasining xiralashuvini aytgan edi.

Keyinchalik, 1967 yilda amerikalik psixolog Gregori bu fikrni tajribadan o'tkazdi va inson keksayishi bilan retseptor apparatining optik funktsiyasi zaiflashadi, ko'ruv sezgisi va idrokini xirilashtiradi, dedi. Ko'zning rangni sezishi yosh ulg'ayishi bilan o'zgarib boradi, xatto, rangni ajratish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi.

Shuni alovida ta'kidlash kerakki, rang ajratish, spektr nurlarining yoyilishi Ibn Sino tomonidan tushuntirib berilgan, fan olamida geteroxronik xususiyat kasb etib, spektrning qisqa va to'kis qismida (ko'k va qizil rangda) aniqroq aks etadi.

Psixogerontologik nuqtai-nazardan sezish vaqtini tadqiq qilgan E.N.Slkolov, E.I.Boyko, A.R.Luriyalar sezish vaqtini yoki davrining informatsion funktsiyasidan boshqa narsa emas deya xulosa chiqaradilar.

Ular sezish vaqtining egri chiziqli ko'rsatkichlarini sxema tarzida ishlab chiqib, keksalik davriga xos ikkita xususiyatni chuqur tahlil qildilar. Xuddi shunga o'xhash ma'lumotlar D.Birron, D.,Botvinnik tajribalarida ham olingan.

Psixogerontologiyada keksa erkak va ayollarning psixologik xususiyatlarini o'rganishda ko'proq test (sinov) dan foydalilanadi. Testlar o'z maqsadi, moxiyati hamda tizimiga binoan bir necha ko'rinishga ega:

- 1)maqsadga yo'naltirilgan, bilim xajmini aniqlovchi standart testlar; imtixon, sinov varaqasi;
- 2)insonning aql zakovatini o'lchashga moslashtirilgan aql testlari; 3)inson shaxsining fazilatlarini tekshirishga mo'ljallangan testlar;
- 4) inson iste'dodi, iqtidori hamda qobiliyatining darajasini aniqqlashga qaratilgan testlar.

Keksayish davrida odamlar psixologiyasini o'rganish testlar yordamida amalga oshishilishining sinaluvchilarda irodaviy kuch quvvat sarflash, aqliy zo'riqish, asabdan

tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga testlar kishilarda (rang-barangligi uchun) qiziqish, tabiiy mayl, shug'ullanish xis tuyg'usini uyg'otadi. Testlar bilan ishlashda vaqt cheklanganligi sababli ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yiladi, lekin ularni aynan sinaluvchilarda muayyan vaqt o'tganidan keyin takror o'tkazilsa, kamchiliklar barham topishi mumkin.

Keksalar psixologiyasini tadqiq qilishga oid tajribalarda psixogerontologiyaning ayrim usullaridan keng foydalanilmoqda. Nafaqa yoshiga to'lgan kishilarning ishni davom ettirish istagi va ulardan foydalanish extiyoji tibbiyat va ruxiyat ilmi oldida bir qancha talablar qo'yadi. Bu talablar M.D.Aleksandrova va uning shogirdlari ta'kidlaganidek, 60 yoshdan oshgan odamlarning somatik sixatligi ularning ishlab chiqarishida qatnashishiga qanchalik imkon berishini, insonning ruxiy salomatligi ishlashda qay darajada yordamlashuvini, sog'ldom keksa odamning psixofiziologik funktsiyalari, psixik jarayonlari shaxsiy xususiyatlari va kasb korlik uchun mos kelish-kelmasligini aniqlashdan iboratdir.

Shularning so'nggi qismini tadqiq qilish bevosita psixologlarning zimmasida bo'lib, yosh ulg'ayib borishiga qarab fiziologik funktsiyalarning o'zgarishini psixometriya ma'lumotlariga tayanib muayyan usulda o'rganishi lozim. Bu usulda bir qancha elat, jamoa, xududning xuddi shu yoshdagi axolisi bilan solishtiriladi. Tadqiqotning bu usuli ayrim ruxiy jarayonlarning yosh dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Asab sistemasining qarishini V.D.Mixaylova I.A.Lukasheva, M.M.Aleksandrovska kabi olimlarning fiziologik va gistologik tadqiqotlarida keksalarning asab sistemasi, bosh miya tuzilishi o'zgarishi o'rganilgan bo'lib, bu xol makrosopiya ma'lumotlari asosida ifodalangan.

Makrosapiya ma'lumotlariga ko'ra: a) keksalik darida miyaning og'irligi 20-30 % yangilashadi:

b) bir davrning o'zida miya kalla suyagining xajmi o'rtasida kuchayadi; v) keksayish davrida miya burmalari kamayadi va ariqchalari kengayadi; qo'zg'aladi, bular ayniqsa miya qobig'ining peshona qismida yaqqol ko'rindi va etuk odamlarga qaraganda 3-4 ta yo'l qisqaradi; g) miyaning zichligi ortadi.

Mikrosapiyaning natijalariga binoan: 1)nerv xujayralarining umumiyl miqdorni kamayadi, bu o'zgarish qobig'ining 3va 4 zonalarida aniq bilinadi;

2)Purkin'e xujayralarining miqdori keskin kamayadi, xujayralarning yo'qolishi etuk kishilarga nisbatan 25% ko'p bo'ladi; 3)nerv tolalari yo'g'onlashadi; 4)xabar olib boruvchi yo'lda mielin tolalari miqdori ozayadi. Sensor-pertseptiv funktsiyalarining qarishi.

Ko'rish funktsiyasining yosh davri dinamikasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, amerikalik psixologlar ko'rish tadqiqotining ma'lumotlariga qaraganda, agar vaqt xech bir cheklanmasa, ko'rvu stimullarini idrok qilish 20-50yoshli odamlarda bir tekis, aniq va to'g'ri amalaga oshishi mumkin. Mabodo vaqt cheklangan bo'lsa, idrok qilinayotgan jism qisqa vaqt namoyish qilinsa, qo'zg'atuvchining kuchi o'zgarib tursa, yoshlari bilan kattalar o'rtasida keskin farq vujudga keladi.

Oddiy turmushda bu xol jismalarga uzoq muddat termilish imkoniyatini va sun'iy ko'rishdan foydalanish ko'rvu idroki pasayishining oldini oladi va muvaqqat nerv uzilishiga barham beradi. L.E.Birrona, L.Botvinnik, quyidagicha xulosa chiqardilar: sensor informatsiyani qayta ishlash va stimullarni baxolash uchun keksa kishilarga bir

necha kun vaqt kerak. Ko'rish pasayishining ikkita sababi bo'lib, birinchisi ko'z gavxarining torayishi, ikkinchisi ko'z akkomadatsiyasining yomonlashuvidir.

S.Pakoning fikricha idrok qilinayotgan ob'ekt va uning stimullari qanchalik murakkablashib borsa, tajribada yosh davrining farqlari shunchalik ortib boradi.

Bir gurux psixologlarning o'qtirishicha, idrok funktsiyasidagi yosh davriga bog'liq pasayishining asosiy sabablaridan biri miya nuqtasining genostik zonasidagi neyronlar miqdorining kamayishidir. U Mayls va A.Uelford uning pasayishini aytganlar.

Eshitish. Eshitish qobiliyatining eng yuqori darajasini 14-15 yoshlarga to'g'ri keladi, undan keyingi kamolot davrlarida biroz pasayish yuz beradi. Ko'pgina olimlarning fikricha, inson yoshining ulg'ayishi bilan eshitishning zaiflashuvi mo'tadil xisoblanib, organizmning biologik qarishi bilan uzviy bog'liq ravishda kechadi.

Ishlab chiqarishdagi kuchli shovqin odamning eshitish qobiliyatini yomonlashtiradi. Eshitish o'quvini yo'qotish erkaklarda ayollarga qaraganda ko'p uchraydi.

Ta'm bilish sezgisida ham yosh va keksalik tufayli ayrim o'zgarishlar vujudga keladi. Masalan, nordon, shirin va achchiqni sezish 50 yoshgacha keskin o'zgarmasada, lekin undan keyingi davrda maza so'rgichlari miqdorining kamayishi evaziga sezgi chegaralarining kengayishi sodir bo'ladi. Hid sezgilaring o'zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxtlikning boshlanishidir.

Bundan tashqari, hid bilish sezgirligi kamayishining sabalari xavoning ifloslanishi, zaxarli va qo'lansa hidli moddalar bilan nafas olish, chekish, oziq-ovqatda A vitamin etishmasligidir. Keksayganda og'riq va teri –tuyish sezgilari ham pasayadi. Tebranish sezgilari ham yosh o'tgan sari yomonlashadi, orqa miyaning orqa qismlaridagi vegetativ o'zgarish ana shu xolatni keltirib chiqaradi.

Keksayish davriga 61 (56)-74 yoshli erkak va ayollar kiradilar.

Bu davrdagi kishilar xilma-xil xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari bilan boshqa davrlardagilardan ajralib turadi.

Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruxga ajratish mumkin:

a) mutlaqo isxtefoga chiqqan, ijtimoiy faol bo'limgan erkak va ayollar;

b) nafaqaxo'r erkak va ayollar ijtimoiy hayotning u yoki bu jabxalarida faoliyat ko'rsatayotgan keksalik alomatlari bosayotgan odamlar. Ularning xis-tuyg'ulari yashash tarziga muvofiq namayon bo'ladi.

Ularning xis-tuyg'ulari vujudga kelishi jixatidan ikki xildir: 1)barqaror kayfiyat, xotirjamlik tuyg'usiga ega bo'lgan, o'z qadr -qimmatini saqlayotgan nufuz talab erkak va ayollar:

2) kayfiyati barqaror, osoyishta xulq-atvorli, oila muhitining sardoriga aylangan, tabiat va jamiyat go'zalliklaridan baxramand bo'layotgan ijtimoiy faoliyatidan qariyb uzoqlashgan, qarilik gashtini surayotgan kishilar.

Ularning bir guruxi moddiy boylik bilan qanoat xosil qilgan erkak va ayollardan iboratdir.

Mazkur yoshda yuzaga keladigan inqiroz zaiflashuvi psixik jarayonlarning ham o'zgarishiga olib keladi.

Ruxiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq paydo bo'ladi.

Erkak va ayollar o'rtasida farqlar borgan sari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi.

Bu farqlarni bilish jarayonlari(sezgi, idrok, xotira, tafakkur), axloqqacha (farosatlilik, xushyorlik, xozirjavoblik, topqirlik) va aql zakovat (aql, bilim, ijtimoiy tajriba, maxorat, ijodiy faoliyat, barqaror malaka) kabi ruxiy xolatlarda o'z aksini topadi.

Ayollarning zaifa deb nomlanishi ham beziz emas, chunki jismoniy zaiflikdan tashqari boshqa ruxiy kechinmalarda ham beqarorlik sezilib turadi. Ko'z yoshi quvonchdan bo'lsa iordaning zaifligini ko'rsatadi, g'am-g'ussa, o'kinch, tuyg'u sababli bo'lsa xis-tuyg'uni boshqarish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi.

Ayollarning tabiiy azobdan (tug'ish, bola tarbiyasi) tashqari xizmat, oila tashvishi, yumushi, mexr-muxabbatga otashligi, nozik qalbi tashqi qo'zg'atuvchilarga tez javob beruvchanligi jixatdan ertaroq qarishga olib keladi (asab sistemasining buzilishi, irodaviy zo'riqish, aqliy tanglik xolatlari).

Psixologlar keksayish davridagi erkak va ayollarning ruxiy dunyosini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borganlar.

Amerikalik V.Shevchuk mazkur yoshdagi odamlarning ijtimoiy faoliyatida qatnashishi xususiyatini tekshirib, 65 yoshlilarning 24,1% 70 yoshlilarning 17,4%, 75 yoshlarning 7,7% ijtimoiy faoliyatdan voz kechganligini aniqlagan.

Oliy maktab muallimlarining ilmiy maxsuldarligi M.D.Aleksandrova matematika, fizika, biologiya, psixologiya, va boshqa soxalarning vakillari o'rtaida keksayishning birinchi bosqichida (61-66 yoshlarda) bir oz mavjud bo'lsa-da, uning ikkinchi bosqichida (67-72 yoshlarda) o'sha tafovut ham yo'qolib borishini ta'kidlaydi. L.I.Zaxarova esa keksayish davridagi erkak va ayollarning oliy nerv faoliyatini tekshirib, ularda ranglarni ko'rish maydonining chegarasi uchun quyidagilar muhim rol o'ynashini uqtiradi:

1. Ko'rish yo'llari analizatori chekka qismlarining xolati;
2. Markaziy nerv sistemasining umumiyligi faolligi;
3. Insonning yoshi;
4. Ko'rish analizatorlarining faoliyat ko'rsatish sharoiti;
5. Insonning jinsi.

Amerikalik psixolog D.Veksler keksayishida aqlni o'lchash uchun 1939 yilda maxsus test ishlab chiqqan va «Katta kishilar aqlini o'lchash va baxolash» nomli kitobida test o'tkazish uslubiyatini batafsil bayon qilgan.

D.Veksler tavsiya qilgan formulaga binoan har qanday yoshdagi shaxsning aqliy kamolot darajasini mazkur yoshga munosib tarzda ishlab chiqsa bo'ladi.

Buning uchun muallif aql koeffitsenti atamasidan foydalilaniladi:

D.Veksler shkalasi bo'yicha AD-aqliy ko'rsatkichini, KD-(keksayish darjasini) esa shaxsning kalendar yoshini anglatib keladi.

«Veksler batareyasi» 11 ta subtestdan iborat bo'lib, ulardan 7 tasi verbal so'zlardan tuzilgan, 4 tasi noverbal (alomatlardan iborat)dir.

Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori natijaga 15-25 yoshlilar, boshqa ma'lumotlarga ko'ra 26-29 yoshlilar erishadilar: keyin 40-45 dan asta-sekin pasayish boshlanadi: 60-65 yoshlarda bu ko'rsatkich kuyiga tushadi.

D.Veksler keskin o'zgaruvchan va kam o'zgaruvchan yosh davri funktsiyalariga alovida e'tibor beradi.

Birinchisiga qisqa muddatli xotira, o'xshashlik, simvollar, Koss kubchalari: ikkinchisiga-lug'at boyligi, umumiy ma'lumotlilik, rasm tuzish (tartibga keltirish ma'nosida), tugallanmagan rasmlarni idrok qilish kiradi.

Mazkur variatsiyalardan foydalanib, eksperimental psixologiyada yangi ko'rsatkich kiritishni taklif qiladi, u deterioratsiya koeffitsenti deb ataydi, (deterioratsiya-yomonlashuv, buzilish, demakdir): barqaror ko'rsatkich,

Yosh odamlarda mazkur koeffitsent 5%dan oshmaydi, keksalarda esa 20%ga yaqinlashadi.

Ko'rinish turibdiki, yosh ulg'ayishi bilan nomutanosiblik darajasi o'sib boradi.

D.Veksler testi to'g'risida xar-xil tanqidiy muloxazalar mavjud bo'lsa-da, lekin muallifning yoshlarga tatbiq qilgan testi ularning aqliy tayyorgarligi darajasini, o'qishga o'quvliligin bildirsa, keksalarda u hayotiy tajribalarga asoslangan donishmandlikni anglatdi, degan fikr to'g'ridir.

Keksalik davriga 75-90 yoshdagagi erkak va ayollar (buva va buvilar) kiradi va bunday odamlarning boshqa yosh darlaridagi odamlardan keskin farqlanadigan xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Keksalarni jismoniy va aqliy faolikka moyil hamda passiv turmush tarziga ko'nikkun qariyalar guruxlariga ajratish mumkin.

Ijtimoiy faoliyolar jamoasida, kasbiy jamoalar faoliyatida qatnashishida o'z ifodasini topadi.

Keksalik davrida foniy dunyodan umidsizlik tuyg'usi paydo bo'ladi va bu xol faollikni, istiqbol rejalarini tuzishga intilishni susaytiradi.

Lekin «O'g'limni uylantirsam, dunyodan armonim yo'q» qabilidagi muloxazalar doimiy odatga aylanib qolgan.

Keksalarning ikkinchi muhim xususiyati betoblikda, vasiyat qilish, qarindosh urug'lardan rozi-rizolik tilashishdir. Jismoniy xarakat imkoniyatiga ega bo'lgan qariyalar mexnat qilishga intiladilar, biroq uning maxsulidan ko'ngillari sira to'lmaydi. Ular tarixiy voqealarni tipik sifatida batafsil bayon qilib beradilar.

Nutqdagi juz'iy kamchiliklarni xisobga olmaganda (ayrim mantiqiy bog'lanishdagi nuqson, talaffuzning buzilishi) keng ko'lamdag'i axborotlarni o'zgalarga uzatish imkoniyatiga ega.

Biologik qarish psixik jarayonlar, xolatlar, xususiyatlar, va xatti-xarakatlarda keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma'lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta ishslash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu xolatlarga nigohini to'plash va unda muayyan muddat tutib turish (diqqat) qiyinlashadi.

Iordaning kuchsizlanishi og'riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg'usini emira boshlaydi. Natijada tashqi ta'sirni qabul qilishda diqqatni saralash xususiyati o'z ahamiyatini yo'qotib borishi sabali qari odam bola tabiat, arazchan, ko'ngli bo'sh, xissiyotga beriluvchan xarakterli bo'lib qoladi.

Shuning uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsning sifatlarini xisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarga xayolparastlik illatini keltirib chiqaradi ko'pincha esda olib qolish, esda saqlash va esaga tushirish o'rtasida ko'pgina sabablarga ko'ra nomutanosblik tug'iladi, natijada unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan ob'ektga to'play olmaslik oqibatida biron faoliyat turi

ustida uzoq mashg'ul bo'la ololmaslik vujudga keladi. Narsa va jismlarni noto'g'ri idrok qilish, ya'ni illyuziyalar ko'proq o'rinni egallaydi.

Shuning uchun keksayganda «jon shirin bo'lib qoladi». «Keksalikda er-xotin munosabati yaanada mustaxkamlanadi, yangi shakl va yangi sifat kasb etadi. Muloqot kezida barcha taxssurotlar, ma'lumotlar, kechinmalar, xis-tuyg'ular yuzasidan fikr almashadilar. Bir-birlarini qo'msash, hamdardlik kabi yuksak tuyg'ular yanada mustaxkamlanadi.

Keksalik davrining yana bir xususiyati boshqa kishilirga, begonalarga ham xayrioxlik bildirishdir.

Ana shu yuksak insonparvarlik xissi tufayli ular er yuzidagi jamiki inson hayotiga yaxshilik tilaydilar.

Bu so'nggi yuksak tuyg'u baynalminalchilikning tabiiy ko'rinishidir. Qariyalardagi raxmdillik, poklik, orastalik, muloyimlik, samimiylit singari tuyg'ularning ifodalanishi boshqa yosh davridagi odamlar tuyg'usiga aslo o'xshamaydi. «Shuning uchun qari bilganni-pari bilmas», -degan naql bor.

Yirik jaxon psixologlari S.Pako, G.Offore, L.Bine, U. Maynot, E.Medavir, A.Kamfort, I.V.Davidovskiy, B.G.Anan'ev, N.V.Nagorniy, E.D.Aleksandrova va boshqalar uzoq umr ko'rish sirlarini ekologik omillar orqali tushuntirishga xarakat qiladilar.

Aksariyat olimlarning fikricha, ekologik omillar insonning yashash sharoitiga, kamol topishiga, bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladigan omillardir.

Insonning ijtimiy muhiti sharoitlari ichiga kasb mehnati, turmush tarzi, madaniyati va ma'naviyati kabilar kiradi.

Jaxon fani to'plagan ma'lumolarga ko'ra ochiq zavodda ortiqcha zo'riqishsiz jismoniy mehnat bilan shug'ullangan odamlarda xarakatning tezligi, qad-qomatining tikligi, ma'naviy tetiklik, ruxiy faollik saqlanadi. Mana shu xolat jismoniy tarbiya bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilarda ham bo'ladi.

«Umrni o'zaytirish muammolari » nomli (1952)kitobida dog'istonliklarda uzoq umr ko'rishning asosiy sabablari quyidagilar ekanai ta'kidlangan:

1. respublikaning tog'li qismidagi iqlim sharoiti va jo'g'rofiy omillar;
2. Sutkasiga 3-4 marta iste'mol qilinadigan go'shtli, o'simlik, moyli va sutli oziq-ovqatlar, chekishning, ichish va ortiqcha jinsiy aloqaning taqiqlangani;
3. Avloddan-avlodga asrlar davomida o'tib kelayotgan madaniy an'analar, o'ziga xos turmush tarzi va uning xususiyatlari;
4. Gigienaning barcha qonun va qoidalariга rioya qilinishi va butun umr bo'yisi jismoniy mehnat bilan shug'ullanish;
5. Bir maromda ham passiv, ham faol xordiq chiqarish;
6. Axoli turmush darajasining moddiy-maishiy jixatidan yaqinlashishi va xokozolar.

Umrining uzayishiga, shaxsda ijodiy faollik uzlusiz davom etishiga yordam beradi, aqliy mexnat bilan doimo shug'ullanuvchi keksa odamlarda mantiqiy xotira saqlanadi.

Psixogerontologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jixatdan S. Xoll asoslagan bo'lsada, lekin bu yunalishning uziga xos xususiyatlari to'g'risida Mark Tully Kikeron («Katta Katon yoki keksayish xaqida» asarida), I. I. Mechnikov («Optimizm etyudlari» kitobida), O'rta Osiyo allomalari donolik, donishmandlik

xaqidagi durdonalarida falsafiy ong va mulozxazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog S. Xoll (1846— 1924) «Keksayish» monografiyasida amaliy va metodologik axamiyatga molik qator g’oyalarni ilgari surgan.

Yigirmanchi asrning 30- yillaridan boshlab keksalik davriga oid tibbiy biologik tadqiqotlarning ko’payishi, shuningdek, inson kamolotiga shaxs sifatida yondashishnipg paydo bo’lishi psixogerontologyaning rivojlapishiga birmuncha ta’sir ko’rsatdi. Psixogerontologiya fanida gerontologiya, involyutsiya, geriatriya, gerogigiena, geteroxronlik kabi ilmiy tushunchalar mavjud: Gerontologiya; — grekcha so’z bo’lib — keksayish, keksalikning kelib chikishi demakdir. Geriatriya so’zi keksaygan inson shaxsini davolashni bildiradi. Involyutsiya tushunchasi evolyutsyaning teskarisi bo’lib, o’sishdan orqaga qaytishni ifodalaydi. Gerogigiena — keksaygan odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash sohasidir. Gerogigiena keksa odamlarda asab, ruhiy kasalliklarniig oldini olish uchun xizmat qiladi. Geteroxronlik bir xil yoshdagi odamlarda ruhiy jarayonlarniig turlicha (har xil vaqt va muddatda) namoyon bo’lishidir, I. Davidovskiy «Keksayish nima? nomli asarida ta’kidlaganidek, inson 50—60 yoshga to’lgancha yoki undan oshgan chog’ida etuklikning kechikkan davriga kirib keladi. ularning yashash va mehnat kilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki hozirgi kunda nafaqani belgilashda biologik qarilik yoshidan 15—20 yil ilgarilab ketgan. Bu xol akliy mehnat bilan shug’ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko’zga tashlanadi, I. V.Zavidovskiynint fikricha, uzoq umr ko’rvuchilar asosan ozg’in, faol, harakatchan odamlar bo’lib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyati»ga daxldor tinka quritar kasalliklardan bo’ladilar.

[psixogerontologiyada keksa -) erkak va ayollarning psixologik xususiyatlarini o’rganishda ko’proq test (sinov)dan foydalaniladi. Testlar o’z maqsadi, mohiyati hamda tizmiga binoan bir nechta ko’rinishga ega: 1) maqsadga yo’naltirilgan. bilim hajmini aniqlovchi standart testlar — imtihon varaqasi; 2) insonning aql-zakovatini o’lchashga moslashtirilgan testlari; 3) inson shaxsining fazilatlarini tekshirishga mo’ljallangan testlar; 4) inson iste’dodi, iqtidori hamda qobiliyatining darajasini aniqlashga qaratilgan testlar.

Biologik keksayish

Nafaqa yoshiga to’lgan kishilarning ishni davom ettirish istagi va ulardan foydalanish ehtiyoji tibbiyot va ruhiyat ilmi oldiga bir qancha talablar qo’ydi, Bu talablarni M. D. Aleksandrova va uning shogirdlari ta’kidlab o’tdilar. ma’lumotlariga ko’ra: Ko’rish pasayishinipg ikkita sababi bo’lib, bir ko’z gavxarining torayishi, ikkinchisi ko’z akkomodatsiyasining yomonlashuvindir.

Eshitish qobiliyatining eng yukori darajasini 14—15 yoshlarga to’gri keladi, inson yoshining ulg’ayishi bilan eshitishning zaiflashuvi mu’tadil holat hisoblanib, organizmning biologik qarishi bilan uzviy bog’lik ravishda kechadi. Ishlab chiqarishdagi kuchli shovqin odamning eshitish qobiliyatini yomonlashtiradi. Eshitish uquvini yuqotish erkaklarda ayollarga qaraganda ko’p uchraydi.

Ta’m bilish sezgisida ham yosh ulg’ayishi va keksalik tufayli ayrim o’zgarishlar vujudga keladi. Masalan nordon, shirin va achchiqni sezish 50 yoshgacha keskin o’zgarmasa-da, lekin undan keyingi o’sish davrida maza so’rgichlari mikdorining kamayishi evaziga sezgi chegaralarinnng kengayishi sodir bo’ladi.

Hid sezgirliginipg o’zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxtlikning boshlanishiidir. Bundan tahqari, hid bilish sezgirligi kamayishinipg sabablari havoning

ifloslanishi, zaharli va qo'lansa hidli moddalar bilan nafas olish, chekish, oziq-ovqatlarda A vitamini etishmasligidir.

Keksayganda og'riq va teri-tuyush sezgirligi ham pasayadi. Tebranish sezgirligi ham yosh o'tgan sari yomonlashadi, orqa miyaiig orqa kismlaridagi vegetativ o'zgarish ana shu holatni keltirib chiqaradi.

Kksayish davridagi shaxs psixologiyasi

Keksayish davriga 61 (56)—74 yoshli erkak va ayollar kiradilar. Bu davrdagi kishilar xilma-xil xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari bilan boshqa yosh davrlardagilardan ajralib turadi. Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkii: a) mutlako iste'foga chiqqan, ijtimoiy faol bulmagan erkak va ayollar; b) nafaqaxur erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning u yoki bu jabbalarida faoliyat kursatayotgan keksalik alomatlari bosayotgan odamlar. Ularning his-tuygulari yashash tarziga muvofiq mos bo'ladi. Ularning bir guruhi moddiy boylik ma'naviyat bilan qo'shib olib borishga intilsalar, boshqalari to'plangan moddiy boylik bilan qanoat hosil qiluvchilar, qolgan umrini xotirjam, zahmat chekmay o'tkazishga ahdu paymon qilgan erkak va ayollardan iboratdir. Mazkur yoshda yuzaga keladigan inqiroz ham mana shu ikkala omilning mahsuli hisoblanadi. : Keksayish davrida biologik organning zaiflashuvi psixik jarayonlarning xam o'zgarishlariga olib keladi. Ruhiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq paydo bo'ladi. Erkak va ayollar o'rtaсидаги faqlar borgan) sari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. tekshirib, ularda ranglarni ko'rish maydonining chegarasi uchun quyidagilar

Keksalik davridagi shaxsning psixologik xususiyatlari

Keksalik davriga 75—90 yoshdagagi erkak va ayollar I (buva va buvilar) kiradi va bundan odamlarning boshqa yosh davrlaridagi odamlardan keskin farqlanadigan xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Keksalarni jismoniy va aqliy faollikka moyil hamda passiv turmush tarziga ko'nikkan qariyalar guruhiga ajratish mumkin. Ijtimoiy faollik faxriyalar jamoasida, kasbiy jamoalar faoliyatida qatnashishda o'z ifodasini topadi.

Keksalik davrida foni dunyodan umidsizlik tuyg'rusi paydo bo'ladi va bu hol faollikni, istiqbol rejalarini tuzishga intilishni susaytiradi. Lekin «O'g'limni uylantirsam, dunyodan armonim yo'q, qabilidagi mulohazalar doymiy odatga aylanib qolgan. Keksalikning ikkinchi muhim xususiyati betoblikda, vasiyat qilish, qarindoshurug'lardan rozi-rizolik tilashishdir. Jismoniy harakat imkoniyatiga ega bo'lgan qariyalar mehnat kilishga intiladilar, biroq uning mahsulidan ko'ngillari sira to'lmaydi. Ular tarixiy voqealarni tirik guvoh sifatida bat afsil bayon qilib beradilar. Nutqdagi juz'iy kamchiliklarni hisobga olmaganda (ayrim mantiqiy bog'lanishdagi nuqson, talaffuzning buzilishi) keng ko'lami dagi axborotlarni o'zgalarga uzatish, imkoniyatiga ega.

Biologik qarish psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va xatti-harakatlarda keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Aksariyat sezgi organlari zaiflashadi, asab sistemasi kuchsizlanadi, ma'lumotlarni qabul qilish (xotira) va ularni qayta eslash, mohiyatini anglash (tafakkur), u yoki bu holatlarga nigoh tashlash va unda muayyan muddat o'tib ko'rish (diqqat) qiyinlashadi... Iordaning kuchsizlanishi og'riq sezgilariga nisbatan bardoshlilik tuyg'usini emira boshlaydi. Natijada tashqi ta'sirni qabul qilishda diqqatni saralash xususiyati o'z ahamiyatini yo'qotib borishi sababli qari odam bola kabi arazchan, KO'NGLI bo'sh, hissiyotga beriluvchan xarakterli bo'lib qoladi. Shuning

uchun ular bilan muloqotga kirishishda mazkur shaxsning sifatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Xotiraning zaiflashuvi qariyalarda hayolparastlik illatini keltirib chiqaradi, ko'pincha esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish o'rtasida KO'Pgina sabablarga ko'ra nomunosiblik turiladi, natijada unutish jarayoni kuchayadi. Diqqatni muayyan ob'ektga to'play olmaslik okibatida biron faoliyat turi ustida uzoq mashg'ul bo'la olmaslik vujudga keladi. Har soxa va jismalarni noto'g'ri idrok qilish, ya'ni illyuziyalar ko'prok o'rinni egallaydi._ Monokulyar va binokulyar ko'rishda xilma-xillik yuzaga keladi. Xarakter hislatlarida chekinish, hadiksirash, ishonchsizlik hislari etakchi rol o'ynay boshlaydi.

Keksalik davrida, umuman ayollar bilan erkaklar o'rtasidagi donishmandlikda farq, mavjud bo'lsa ham, lekin kariyalar orasidagi donishmandlik, donolik xislatlari ham ikkala jinsga xosdir. Shuning uchun ikkala jins o'rtasida biologik qarishda tafovut mavjud bo'lsada, lekin ruhiy jihatdan zaiflashuv jarayonida o'zaro YAQINLIK HUKM suradi.

Keksalik yoshidagi chol va kampirlarda o'z shaxsiyatiga yangicha munosabatlar paydo bo'ladi. Ko'pincha ular o'zlarini kamroq bezovta qilishga, jismoniy kuch-quvvatini ayashga, ehtiyyotkorlik bilan harakat qilishga odatlanadilar, orgalizmlariling toliqishiga YO'L QO'Ymaydilar, iloji boricha nutk faoliyatiga kamroq murojaat qiladilar, ortiqcha axborotlarni kabul qilmaydilar. Buning uchun keksayganda «jon shirin bo'lib qoladi».

Keksalikda er-xotin o'rtasidagi munosabat yanada mustahkamlanadi, yangi shakl va yangi sifat kasb etadi. Muloqot kezida barcha taassurotlar, ma'lumotlar, kechinmalar, his-tuyg'ular yuzasidan fikr almashadilar. Bir-birlarini qumsash, xAMDARDLIK kabi yuksak tuyg'ular totuvlikni yanada mustahkamlaydi.

Keksalik davriningg yana bir xususiyati boshqa kishilarga, begonalarga xayrixohlik bildirishdir. Ana shu yuksak insonparvarlik HISSI TUFAyli ular er yuzidagi jamiki inson zotiga yaxshilik tilaydilar.

5. Uzoq umr ko'rvchilarning psixologik xususiyatlari

Aleksandrova va boshqalar uzok umr kurish sirlarini ekologik omillar orkali tushuntirishga harakat kiladilar. Aksariyat olimlarning fikricha,

- ekologik omillar insonning yashash sharoitiga, kamol topishiga, bevosita yoki bilvosita ta'sir kiladigan omillardir. Insonning ijtimoiy muhit sharoitlari ichiga kasb ,mehnati, turmush tarzi, madaniyati va ma'naviyati kabilalar kiradi.

Jahon fani to'plagan ma'lumotlarga ko'ra ochik havoda ortikcha zo'rikishsiz jismoniy mehnat bilan hug'ullangan odamlarda harakatnnng tezligi, qad-qomatning tikligi, ma'naviy tetiklik, ruhiy faollik uzokrok saklanadi. Mana shu holat jismoniy tarbiya bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilarda ham bo'ladi.

«Umrni uzaytirish muammolari» nomli (1952) kitobda dog'istonliklarda uzok umr ko'rishning asosiy sabablari kuyidagilar ekanini ta'kidlangan: 1) Respublikaning tog'li kismidagi iklim sharoiti va jurg'rofiy omillar; 2) sutkasiga 3—4 marta iste'mol qilinadigan GO'SHTLI, O'simlik moyli va sutli ozik-ovqatlar, chekishning, ichish va ortikcha jinsiy aloqaning taqiklangani; 3) avloddan-avlodga asrlar davomida o'tib kelayotgan madaniy an'analar, uziga xos turmuh tarzi va uning xususiyatlari; 4) gigienaning barcha qonun va koidalariga rioya kilinishi va butun umr bo'yli jismoniy mehnat bilan shug'ullanish; 5) bir ma romda ham passiv, ham aktiv xordik chiqarish; 6) axoli turmush darajasining moddiy-maishiy jihatdan yaxshilanishi va hokozolar.

Uzoq umr ko'rishning, umr uzayishining muhim omillaridan yana bittasi kasb-korlik faoliyatiga bog'lik ruxiy holatning barkarorlashuvadir.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Gerontopsixologiya - keksalik psixologiyasi haqida umumiyl tushuncha.
2. Gerontopsixologiya – psixologiya fanining tarkibiy qismi sifatida.
3. Psixolog olimlarning keksayish davri haqidagi falsafiy fikrlari.
4. Keksalik davrining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Biologik keksayish davridagi shaxs psixologiyasi. Keksalik davridagi shaxsning psixologik hususiyatlari.
6. Uzoq umr ko'ruchilarning psixologik hususiyatlari

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova **Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.** «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
- 4.G`oziyev E.G` Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

10-MAVZU: TA'LIM PSIXOLOGI YASI

Asosiy savollar:

- 10.1. Ta'larning yosh va pedagogik psixologiya fanida tutgan o'rni,
- 10.2. Ta'lim va aqliy taraqqiyot, o'qish faoliyati va uning turlari,
- 10.3. Ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari,
- 10.4. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirishning mohiyati, muammoli ta'larning mohiyati,
- 10.5. Pedagogik baho va uning turlari, ta'lim texnologiyalarining psixologik xususiyatlari haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.

Darsning maqsadi:

Ta'larning yosh va pedagogik psixologiya fanida tutgan o'rni, ta'lim va aqliy taraqqiyot, o'qish faoliyati va uning turlari, ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari, aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirishning mohiyati, muammoli ta'larning mohiyati, pedagogik baho va uning turlari, ta'lim texnologiyalarining psixologik xususiyatlari haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.

Kalit so'zlar:

Ekstroversiya, introversiya individual yondashuv, ziddiyatli xarakter, vijdonlilik, shaxsning yo'nalganligi, xarakter aktsentuatsiyasi, introvert, ekstravert, boshqarib bo'lmaydigan, senzitiv, namoyishkorona tip.

1. Ta'limning yosh va pedagogik psixologiya fanida tutgan o'rni, Birinchi savolning bayoni.

10.1. O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi.

O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon buluvchi uzluksiz jarayondir.

Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o'quv faoliyatida o'sishini ta'kidlaydi.

D.B.Elkonin esa o'quv faoliyatining xususiyatlarini ko'rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o'zini namoyon bo'lish shakliga ko'ra ijtimoiyligini ta'kidlaydi.

O'quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o'quvchida o'zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo'lishi darkor. Bu motivlar bevosita o'quvchi shaxsining o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quv faoliyati ta'lim, o'qish va o'rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog'liqidir. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir.

Ta'lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorning shakllarini o'zlashtirishga qaratilgandir. O'qish va o'rgatish tushunchalari o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, o'rgatishga xizmat qiladi.

O'quv faoliyatining besh elementi mavjud:

1. O'quv motivlari.
2. O'quv topshiriklari.
3. O'quv harakatlari.
4. O'qituvchining nazorati.
5. O'qituvchining baholashi.

D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta -sekinlik bilan o'quvchining o'ziga o'qituvchining ishtirosiz mustaqil bajarish uchun o'tkazilishidir.

2. Boshqarishning metodologik va nazariy asoslari. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasi va uning mohiyati.

Ta'lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo'lib, u o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta'lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta'limning maqsadi - nima uchun o'qitish kerak?
2. Ta'limning mazmuni - nimaga o'qitish kerak?
3. Ta'limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo'llari.
4. Ta'lim beruvchi.
5. O'quvchi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o'zlashtirilishi:

- faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o'zlashtirilishiga;

- maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to'g'ri tanlash va foydalanishga bog'liq.

Ta'lism jarayonining muvaffaqiyati:

1. Motivatsiya.
2. Ma'lumot usullari.
3. Ma'lumotning tushunarligi.
4. Xotira.
5. Ma'lumotni qo'llash.

Ta'lism va ta'lism jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta'lism va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri:

1. Aqliy hatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin).

P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivatsiya.
2. Tushuntirish.
3. Moddiy formadagi hatti-harakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda hatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan hatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

- birinchi turda - hatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material etarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib etmaydi;

- ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;

- uchinchi tur - tez, samarador va bexato hatti-harakatlarni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ilmiy tushunchalarni o'zlashtirilishini targ'ib qiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnila xususiydan umumiy bilimlarga o'tilishni ta'minlaydi.

Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

3.Ta'limni boshqarishning boshqa imkoniyatlarini qidirish, dasturlashtirilgan ta'limning psixologik asoslarini ishlab chiqish.

Ta'limning psixolik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog'liq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat diqqatda, hiss tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EXM vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishslash xolatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalg etish hamda ularni takrorlash kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustankani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotSIONalligi ta'limning muvaffaqiyatlilagini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik xolatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistiq kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar. O'tkazilgan tajribalar o'quvchilar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, xajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirishi lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo'lishgan ishga esa hech qanday xafsala bo'lmaydi. Kadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaydilar: "Talaba -to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Zero, o'qituvchi biz yuqorida ta'kidlab o'tgan ta'lim metodlari muammoli ta'lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo'llanishi kerak. Ta'lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish bo'lib, yuqorida aytib o'tgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash'allar paydo bo'lishini ta'minlab beradi.

Ma'lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga aktiv munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsnинг o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan

muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qizikishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta rol o'yndaydi.

4. Muammoli ta'lif va muammoli vaziyat.

O'qitishning ikkita usuli mavjud. Biri an'anviy o'qitish usuli - bunda o'qituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlaydi va muammoni echib beradi. O'quvchi esa masalani echish yo'llarini eslab qoladi va uni echishni mashq qiladi. Bunda o'quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi.

Rivojlantiruvchi ta'lif o'qitishning muammoli usulida o'qituvchi o'quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O'quvchi esa muammoni tushunadi. Uni echish yo'llarini kidiradi va uni echadi. Bunday xollarda o'quvchi tafakkurining maxsuldarligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ta'lifning yosh va pedagogik psixologiya fanida tutgan o'rni,
2. Ta'lif va aqliy taraqqiyot, o'qish faoliyati va uning turlari,
3. Ta'lif va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari,
4. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich tarkib toptirishning mohiyati, muammoli ta'lifning mohiyati,
5. Pedagogik baho va uning turlari, ta'lif texnologiyalarining psixologik xususiyatlari haqida ilmiy bilimlarni shakllantirish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova
- Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.** «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
- 4.G`oziyev E.G. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

11-MAVZU: TARBIYA PSIXOLOGIYASI

Asosiy savollar:

- 11.1. Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, tarbiya metodlari va turlari,
- 11.2. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari,
- 11.3. Tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishslash metodlari,
- 11.4. Ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari, ideal, jinsiy tarbiyalash, mehnatning tarbiyaviy ta'siri
- 11.5. O'z-o'zini tarbiyalashning metod va shakllari, tarbiyaning psixologik mexanizmlari, milliy ong va milliy g'ururni tarbiyalashning psixologik asoslari muammozi yuzasidan tassavvurlarni shakllantirish.

Darsning maqsadi:

Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, tarbiya metodlari va turlari, bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari, tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishslash metodlari, ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari, ideal, jinsiy tarbiyalash, mehnatning tarbiyaviy ta'siri o'z-o'zini tarbiyalashning metod va shakllari, tarbiyaning psixologik mexanizmlari, milliy ong va milliy g'ururni tarbiyalashning psixologik asoslari muammosi yuzasidan tassavvurlarni shakllantirish.

Kalit so'zlar:

Tarbiya psixologiyasi, psixologik mexanizmlar, yosh, jinsiy va individual tipologik xususiyatlar, sensor, mnemik, verbal va mantiq psixofiziologik funktsiyalari dinamikasi, organik ehtiyojlar, motivlar, psixologik komponentlar, tafakkur, o'quv faoliyati, ko'nikma, malakalar.

1. Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, tarbiya metodlari va turlari, Birinchi savolning bayoni.

11.1 Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muxim laxzasi, uning dinamik xususiyatlari xisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy uzaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funktsiyasi muayyan maqsadlarga va kadriyatlarga yunalganlik shaxsni faollashtiradi. Status, rol, qadriyatga yunalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bulib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq, motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l- atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining uzaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak Samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl - uning jamiyatdagi xayot yuli va ijtimoiy tarjimai xoli xisoblanadi.

2. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. Tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishslash metodlari.

Ikkinci savolning bayoni:

«Tarbiyasi qiyin» bolalar pedagogik karovsizlik natijasidir.

L.S.Vigotskiy fikricha, «qiyin» o'smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir.

Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir.

Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, ko'pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi xuquqlarni berish yo'li bilan ularga ta'sir

o'tkazish mumkin. Psixologiyada «tarbiyasi qiyin» bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi guruh - ijtimoiy salbiy mustahkam qarashlari ega bolalar;

Ikkinchi guruh - qonunbuzarlarga taqlid kiluvchilar.

Uchinchi guruh - ijobiy va salbiy xulq - atvor stereotiplari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z xatolarini tushunuvchi bolalardir.

Turtinchi guruh - irodali bolalarga bo'y sunuvchilar.

Beshinchi guruh - qonunbuzarlik yo'liga tasodifan kirib qolganlar. Shuni aytish lozimki, tarbiyasi og'ir bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.

4. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri. O'quvchilarni turmushga tayyorlash. O'z-o'zini tarbiyalashning metod va shakllari. Tarbiyaning psixologik mexanizmlari.

4- savolning bayoni:

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya – bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Uzining kadriqimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz» deb ta'kidlab o'tganlaridek, «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bugungi kunda shaxs tarbiyasiga jiddiy e'tiborni qaratmoqda. Tarbiya jarayonining texnologiyasini quyidagicha sharxlash mumkin:

1. Tarbiyalanuvchini alohida takrorlanmas, individuallik sifatida tushunmoq lozim. Uning ehtiyojlari strukturasini aniqlash kerak.

2. Ijobiy emotsiyalar vositasida ijobiy xulq-atvor odatlarini shakllantirmok kerak. Ong ham, iroda ham motivlar ierarxiyasini shakllantira olmaydi. Zotan, bir ehtiyojning o'rnini faqat boshqa ehtiyojgina egallashi mumkin.

3. Shu ehtiyojlarni qondirish vositalari bilan bolani qurollantirish tarbiya va tarbiyachidan muloqotni ham, hamdardlikni ham emas, aynan shu vositalar bilan qurollantirishni kutadi. Arastu aytganidek: «Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa».

Mavzu yuzasida savollar:

1. Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, tarbiya metodlari va turlari,
2. bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari,
3. tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishslash metodlari,
4. ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari, ideal, jinsiy tarbiyalash, mehnatning tarbiyaviy ta'siri
5. o'z-o'zini tarbiyalashning metod va shakllari, tarbiyaning psixologik mexanizmlari, milliy ong va milliy g'ururni tarbiyalashning psixologik asoslari muammosi yuzasidan tessavvurlarni shakllantirish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova **Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.** «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat» nashriyoti TOSHKENT – 2018.-600 b
- 2.G'oziev. E.G. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
- 3.V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
- 4.G`oziyev E.G. Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi). T., O`qituvchi, 1994.
- 5.Davletshin M.G., Do`stmuxamedova Sh.A., To`ychiyeva S.M., Mavlonov M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
- 6.Ibragimov X.I., Yo`ldoshevU.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: 2010 y.

12-mavzu: O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

Asosiy savollar:

- 12.1. Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari,
- 12.2. Pedagogning o'z-o'ziga talab qo'yishi muammosi,
- 12.3. O'qituvchining kasbiy moslashishi muammosi,
- 12.4. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning vazifalari, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining kasbiga xos xislatlari,
- 12.5. O'qituvchi o'quvchilarning hayoti va faoliyati tashkilotchisi ekanligi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik qobiliyatlarning turlari,
- 12.6. Pedagog o'z ilmiy, o'quv-uslubiy salohiyatini oshirishining psixologik muammolari haqida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish.

Darsning maqsadi:

Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari, pedagogning o'z-o'ziga talab qo'yishi muammosi, o'qituvchining kasbiy moslashishi muammosi, jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning vazifalari, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining kasbiga xos xislatlari, o'qituvchi o'quvchilarning hayoti va faoliyati tashkilotchisi ekanligi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik

qobiliyatlarning turlari, pedagog o'z ilmiy, o'quv-uslubiy salohiyatini oshirishining psixologik muammolari haqida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish.

Kalit so'zlar:

Pedagogik qobiliyatlar, o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, tashkilotchilik, gnostik, kommunikativ malakalar, kasbiy va ijodiy hislatlar.

1. Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari

Birinchi savolning bayoni.

12.1.Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning vazifalari. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar.

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbik etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

O'qituvchi – sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars paytida, kushimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari xollarda ham kerakli maslaxatlar berishda bilimlar manbaidan biridir.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga milliy madaniyatni milliy qadriyatlarni avaylab akrashni boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat izzat bilan qaray olishni o'rgatib borishi kerak

Zero hech bir xalq o'z o'zini anglamasdan milliy madaniyati milliy qadriyatlarni avaylab akrab saqlamasdan turib boshqa xalqlarning qadriyatlariha hurmat izzat bilan qaray olmaydi. Shuning uchun milliy qadriyatlarning tiklanishi umuminsoniy qadriyatlari sari rivojlanishning yakkayu yagona yo'lidir.

Mustaqil O'zbekistonimizning kuch qudrati, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariha sodiqligidadir. «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak, — deb yozadi birinchi prizidentimiz I. A. Karimov, - Shu bilan birga, milliy o'z o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari ideallaridan; bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas»¹.

2.O'qituvchining shaxsiy sifatlari. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari.

Ikkinchi savolning bayoni:

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq hislatlariga qaratilgan. O'qituvchining eng muhim hislatlari quyidagilardan iborat:

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- Т.:Ўзбекистон, 1992, 73- бет.

- o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan iboratdir;
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
- oljanobligi, aqli, farosati, ma'naviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;
- o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatliligidir.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning, milliy uygonish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiklik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- keng bilimga ega bo'lisi, turli bilimlardan xabardor bo'lisi;
- yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda o'quv maskani gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lisi;
- o'zi dars beradigan fan

bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jaxon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lisi;

- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lisi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lismiga intilishi shart.

O'qituvchilar birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, o'quv maskani direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, o'quv maskanlar jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lismini bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar, o'quv maskani rahbarlari esa bunday hislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar. Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lismidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko'rish hislatlari; ikkinchidan, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi hislatlari va xulq-atvoriga karab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq hislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tarika talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur hislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V.Kuzmina, V.Slastenin,

F.N.Gonobolin, O'zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynudinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Qoplonova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiytadqiqotlar o'qituvchilik kasbini atroflicha o'rganib, ancha batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratadi. Bunda gap o'qituvchilik kasbining professiogramma (ma'lum tizimga keltirilgan, mehnat psixologik tomonidan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan xujjatga - professiogramma deyiladi). Professiogramma psixologik nuqtai nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasi (aniq birorta kasb bo'yicha kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo'lган mazmundagi barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerak) ustida boradi.

3.O'qituvchi va o'quvchilar o'rtaсидаги о'заро муносабатлар.

Uchinchi savolning bayoni:

O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo'llik qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, O'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jum utirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi.

